


MATEMATIKA

9



A. AXATOV, F. MUZAFFAROVA, M. SAYDALIYEVA,

M. BARAKAYEVA

MATEMATIKA

*Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab
va maktab-internatlarning 9-sinf darsligi*

Ikkinchi nashr

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tomonidan tasdiqlangan*

«MAJBURIY NUSXA»

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2016

Alifbar Nomi	№
nomidagi	02
O'zbekiston M.	▲

51:376(075.3) Matematika

UO'K: 51:376(075.3)

KBK: 22.1

M31

Taqrizchilar:

N.Sagdullayeva – Toshkent shahar 37-ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi;

M.Xamidova – TDPU dotsenti, p.f.n.;

M.Mirsoatova – Toshkent shahar 37-ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi.

Darslikda qo'llanilgan shartli belgilar:



– asosiy qoida va ifodalar.

Ushbu darslikdan o'quvchilarning bilish darajasi va imkoniyati hisobga olingan holda differensial yondoshib foydalanish tavsiya etiladi.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi

A. Axatov va boshqalar.

Matematika. Yordamchi maktablarning 9-sinf darsligi. Ikkinchi nashr. – T.: «Niso Poligraf» nashriyoti, 2016. – 200 b.


UO'K: 51:376(075.3)

KBK: 22.1я72

ISBN 978-9943-4765-9-2

© F. Muzaffarova, M. Saydaliyeva, 2016-y.

© «Niso Poligraf» nashriyoti, 2016-y





TAKRORLASH

RAQAMLASH

1. Sonlarni o'qing: 268 500; 49; 65; $\frac{1}{3}$; 31 m 90 sm. Bu sonlar qanday sonlar deyiladi? Har bir son qanday hosil bo'lgan?
2. Sonlar qatoridan avval o'lchashda hosil bo'lgan sonlarni, so'ng butun sonlarni va o'nli kasrlarni ajratib yozing: 50799; 728,1; 65 so'm; 999721; 121 t 200 kg; 5,009; 51,086; 500 km 150 m; 66205; 1000000; 221, 05; 4 m 33 sm.
3. Ko'p xonali sonlardan 5 ta; uzunlik, og'irlik, vaqt birliklarini ifodalovchi sonlar va o'nli kasrlarga oid sonlardan 5 tadan yozing.
4. 10 gacha bittalab sanang: 1; ...
100 gacha o'ntalab sanang: 10, ...
1000 gacha yuztalab sanang: 100, ...
10000 gacha mingtalab sanang: 1000, ...
100000 gacha o'n mingtalab sanang: 10000, ...
1000000 gacha yuz mingtalab sanang: 100000, ...
5. Sinflar va xona birliklari jadvalini ko'rib chiqing. Sinf va xonalarning nomini eslab qoling, jadvalni chizib oling:

III sinf Millionlar sinfi			II sinf Mingliklar sinfi			I sinf Birliklar sinfi		
Yuz milli- onlar	O'n milli- onlar	Bir milli- onlar	Yuz minglar	O'n minglar	Bir minglar	Yuzlar	O'nlar	Birlar

- a) Sinflar nomini ayting. Har bir sinf xona birliklari nomini ayting.
- b) Har bir sinfdan nechta xona birligi bor?
- d) Minglar sinfi va birlar sinfi xona birliklari o'rtasidagi o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlarni ayting.
- e) Uchinchi sinf xona birliklari nomini ayting. Ular qaysi sinf xonasiga tegishli?
- f) 3, 4, 5 – xona birligi nomlarini ayting. Ular qaysi sinf xona birligiga tegishli?
6. Sinf va xonalar jadvaliga quyidagi sonlarni yozing:
525; 337 000; 440 028; 600 006; 770 400; 800 020; 901 200;
800 000. Ularni o'qing.
7. Raqamlar bilan yozing:
1) to'rt yuz qirq to'qqiz ming besh yuz ellik;
2) bir yuz ikki ming olti yuz o'n to'rt;
3) sakson uch ming besh yuz yetmish ikki;
4) o'n ming to'qqiz yuz sakson sakkiz.
8. Har bir sonda nechta birlik, o'nlik, yuzlik, minglik, o'n minglik, yuz minglik bor?
348; 608; 735; 896; 1450; 15 086; 20 700; 500 408;
940 903.
9. 998 dan 1020 gacha, 9995 dan 10000 gacha, 99996 dan 100003 gacha, 999998 dan 1000000 gacha bittalab sanang.
10. Sonlarni yozing:
8997 dan 9005 gacha, 96897 dan 96901 gacha, 397458 dan 397 463 gacha.

11. Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing:

45 209		45 211
10 009		10 011
99 999		100 001

34 100		34 102
57 049		57 051
49 999		50 001

12. 3 raqami qatnashgan ixtiyoriy bir xonali, ikki xonali, uch xonali, to'rt xonali, besh xonali va olti xonali son yozing. Bu sonlarning har birida uch raqami qaysi sinfga tegishli?

13. Sonni to'g'ri o'qish uchun uni sinflarga ajratish kerak. Uchinchi va ikkinchi sinf birliklariga sinf nomini qo'shib o'qing.

Masalan:

	III sinf	II sinf	I sinf
<u>280</u> <u>740</u>		280 ming	740

35 937 175 036 80 032 500 008

232 729 340 402 800 306 809 004

464 342 507 013 390 014 1 000 000

Bu sonlarning har biri qaysi sinfga tegishli va unda qaysi xonalar borligini ayting.

14. Har bir ustundagi sonlarni o'qing:

375 000	58 630	236 070	1 100
375 402	58 603	236 700	99 999
375 042	58 600	236 007	400 099

15. Sonlarni o'qing va ularni daftaringizga ortib borish tartibida yozing:

4ta o'n ming, 8ta ming, 5ta yuz, 3ta bir; 5ta yuz ming, 2ta ming, 9ta yuz; 6ta ming, 3ta yuz, 6ta o'n, 4ta bir; 9ta o'n ming, 3ta ming; 5ta yuz ming; 8ta

yuz ming, 8ta o'n ming, 1ta yuz, 6ta bir; 9ta yuz ming, 8ta o'n.

16. Sonlarning har birida nechta bir, nechta o'n, nechta ming, nechta o'n ming va nechta yuz ming bor:

85400	804875	403009
24534	800426	200411
572734	329006	50505

17. Ixtiyoriy sonni uni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi bilan almashtirish mumkin.

Masalan: $704 = 700 + 4$, $704\,000 = 700\,000 + 4\,000$

48936	285170	175206	400400
194272	180290	907005	879060

18. Namunadan foydalanib, sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi shaklida yozing: $306\,200 = 300\,000 + 6\,000 + 200$

56751	495807	13605	578043
185924	74033	2402441	513080
7980	810340	150207	440005

19. 7947 dan 7951 gacha, 13409 dan 13415 gacha, 607896 dan 607912 gacha bo'lgan natural sonlarni yozing.



Yodda tuting: taqqoslash eng yuqori xona birligidan boshlanadi.

20. Taqqoslang:

8500 va 8496	440800 va 40800
7254 va 7354	54600 va 54060

15 130 va 15 030

72 009 va 72 900

375 148 va 375 148

34 000 va 34 000

21. 1) Sonlarni ortib borish tartibida joylashtiring:
56 748; 10 000; 6 749; 35 670; 99 999; 375 800; 10 349;
50 006; 100 000; 93 702.
- 2) Sonlarni kamayib borish tartibida joylashtiring: 17 899;
24 900; 30 700; 1 000 000; 50 384; 101 705; 14 300; 490 674.
22. 295 dan 350 gacha, 1 640 dan 1 675 gacha, 24 300 dan
24 350 gacha beshtalab sanang.
23. 20 dan 200 gacha, 1 000 dan 1 240 gacha, 380 dan 460
gacha, 500 dan 400 gacha, 840 dan 760 gacha 20 talab
to'g'ri va teskari tartibda sanang.
24. 500 dan 5 000 gacha, 2 500 dan 7 000 gacha, 25 000
dan 40 000 gacha 500 talab to'g'ri va teskari tartibda
sanang.
25. 1) 250 dan 750 gacha, 1 000 dan 1 750 gacha, 6 250 dan
7 500 gacha 250 talab to'g'ri tartibda sanang.
- 2) 1 000 dan 0 gacha, 6 250 dan 3 000 gacha, 10 000
dan 5 000 gacha 250 talab teskari tartibda sanang.
26. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
803; 53 709; 50 060; 302 712; 840 304; 930 001; 500 494;
999 997; 203 395; 348 000.
- Namuna:** $803 = 800 + 3$; $53\,709 = 50\,000 + 3\,000 + 700 + 9$.
27. Yozing:
- 1) eng katta ikki xonali sonni;
- 2) eng kichik uch xonali sonni;

- 3) eng katta besh xonali sonni;
- 4) eng kichik yetti xonali sonni.

28. Tushirib qoldirilgan sonlarni o'rniga qo'ying:

200	400			1000			1600
1 400	1 200		800			200	

29. O'qing:

- 1) Vatanimiz – O'zbekistonning yer maydoni 447 400 kvadrat metr;
- 2) Qoraqalpog'iston Respublikasining yer maydoni 165 600 kvadrat metr;
- 3) Sirdaryo (Sayxun)ning uzunligi 2 137 kilometr;
- 4) Amudaryo (Jayxun)ning uzunligi 1 437 kilometr;
- 5) Zarafshon daryosining uzunligi 781 000 metr;
- 6) Norin daryosining uzunligi 534 000 metr;
- 7) Bir sutka 86 400 sekund.

30. Qaysi uch xonali sondan bir ayrilsa, ikki xonali son hosil bo'ladi?

Qaysi besh xonali songa bir qo'shilsa, olti xonali son hosil bo'ladi?

31. Sonlarni o'qing:

II IV V VII IX X XI XII XV XVII
XIX XXIII XXIV XVI XXX XXXV

Bu sonlar qanday raqamlar bilan yozilgan?

32. Sonlarni rim raqamlari bilan yozing:

3, 1, 2, 5, 4, 6, 8, 10, 11, 15, 14, 17, 19, 22, 24, 25, 30.

33. Oylarni rim raqamlari bilan yozing: mart, oktabr, may, aprel, yanvar, iyun, iyul, avgust. Qaysi oylar kiritilmagan?

34. Xona qo'shiluvchilari yig'indisi bo'yicha sonni yozing:

$$100\ 000 + 50\ 000 + 3\ 000 + 400 = 153\ 400$$

$$30\ 000 + 700 + 40 + 2$$

$$90\ 000 + 900 + 30 + 2$$

$$70\ 000 + 1\ 000 + 500 + 40$$

$$800\ 000 + 50\ 000$$

$$9\ 000 + 600 + 7$$

$$500\ 000 + 3\ 000 + 20$$

35. Taqqoslang: $>$, $=$, $<$

$$7\ 070 \text{ va } 7\ 143$$

$$795\ 999 \text{ va } 760\ 000$$

$$351\ 204 \text{ va } 351\ 420$$

$$250\ 035 \text{ va } 25\ 350$$

$$34\ 007 \text{ va } 3\ 399$$

$$80\ 304 \text{ va } 80\ 304$$

36. O'qing va raqam bilan yozing:

1) O'zbekistonning eng baland Xazrat Sulton tog' cho'qqisi to'rt ming olti yuz qirq uch metr, Chimyon to'g'ining eng baland cho'qqisi esa uch ming o'ttiz to'qqiz metrdan iborat.

2) O'zbekiston Respublikasi hududining g'arbdan sharq-gacha oraliq masofasi bir ming to'rt yuz yigirma besh kilometrni, shimoldan janubgacha esa to'qqiz yuz o'ttiz kilometr uzunlikdan iborat.

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Xona qo'shiluvchilari yig'indisi bo'yicha sonni yozing:

$$20\ 000 + 6\ 000 + 50 + 2 =$$

$$700\ 000 + 20\ 000 + 4\ 000 + 500 + 70 + 8 =$$

$$90\ 000 + 8\ 000 + 600 + 10 + 9 =$$

$$300\ 000 + 40\ 000 + 1 =$$

$$50\ 000 + 2\ 000 + 40 + 9 =$$

2. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
178, 217478, 398124, 2536, 54343, 503763.
3. Berilgan sonlarni rim raqamlari bilan yozing:
17, 8, 19, 31, 15, 13, 2, 1, 11, 30.
4. To'rt xonali, besh xonali, olti xonali sonlardan 3 tadan yozing. Sonlarni sinf xona birligiga ajrating.
5. 9 raqami qatnashgan to'rtta butun son, 4 ta o'lchashda hosil bo'lgan son, 4 ta oddiy kasr, 4 ta o'nli kasr yozing, o'qing.
6. Sonlarni so'z bilan yozing:

556844	297598	3421
864511	779629	1000000
7. Har bir sinfda nechta xona birligi bor? Ixtiyoriy 4 ta sonni xona birliklari jadvaliga yozing.

BUTUN SONLARNI QO'SHISH VA AYIRISH

37. Yig'indi va ayirmaning toping:

$50\,000 + 70\,000$	$18\,000 - 9\,000$
$17\,000 + 4\,000$	$35\,000 - 15\,000$
$24\,000 - 7\,000$	$24\,000 - 17\,000$

Qo'shish va ayirish amalida qatnashgan sonlar nima deb ataladi?

38. Amallarni bajaring:

$47\,632 + 213\,944$	$66\,857 - 24\,445$
$54\,073 + 36\,058$	$59\,827 - 12\,654$
$815\,672 - 635\,240$	$574\,629 + 2\,586$

39. Uy qurilishiga ertalab 284 800 ta, kechqurun undan 10725 ta ortiq g'isht keltirildi. Savolni shunday qo'yingki, masala ikki amal bilan yechiladigan bo'lsin.

40. Issiqxonada 36750 tup pomidor va karam ko'chatlari yetishtirildi. Agar karam ko'chatlari 19800 tup bo'lsa, ular pomidor ko'chatlaridan necha tup ortiq?

41. Misollarni yeching:

$450 + 35000$	$250 + 400 + 350$	$325 + 275 + 250$
$525 + 17500$	$450 + 450 + 550$	$115 + 685 + 160$
$830 + 17000$	$750 + 250 + 125$	$425 + 350 + 150$
$635 + 26500$	$540 + 360 + 100$	$560 + 140 + 273$

42. Ayirmani toping:

$10\ 500 - 3500$	$400\ 820 - 2200$	$777\ 200 - 135$
$20\ 600 - 1200$	$500\ 750 - 1700$	$800\ 800 - 260$
$35\ 700 - 3660$	$600\ 830 - 4400$	$900\ 453 - 403$
$100\ 100 - 27000$	$300\ 610 - 2600$	$200\ 532 - 802$

43. Yig'indini toping:

$332\ 631 + 169\ 076$	$55\ 480 + 39\ 576$	$11\ 375 + 415\ 711$
$289\ 720 + 189\ 112$	$41\ 255 + 34\ 548$	$23\ 672 + 181\ 883$
$592\ 482 + 167\ 004$	$76\ 345 + 54\ 389$	$74\ 276 + 194\ 999$

Qo'shiluvchilar o'rnini almashtirish bilan misollarni to'g'ri yechilganligini tekshiring.

44. Namangan viloyatining yer maydoni 7400 kvadrat kilometr. Bu Buxoro viloyatining yer maydonidan 32900 kvadrat kilometr kam. Buxoro viloyatining yer maydonini toping.

45. Hisoblang:

$221\,500 + 270\,000$	$901\,700 + 5\,300$	$700 + 1\,280$
$434\,800 + 75\,200$	$784\,800 + 10\,200$	$200 + 2\,750$

46. Ayirmani toping:

$121\,400 - 600$	$450\,000 - 1\,600$	$9\,500 - 1\,700$
$231\,200 - 400$	$930\,000 - 1\,400$	$4\,200 - 1\,500$
$341\,300 - 400$	$820\,000 - 2\,700$	$7\,100 - 2\,800$
$451\,500 - 700$	$460\,000 - 1\,800$	$5\,400 - 3\,600$

47. 1) 15 mingdan 7 mingni ayirsa, qancha qoladi?
2) 75 mingdan 16 mingni ayiring.
3) 45 mingdan 18 mingni ayiring.
4) 200 mingni hosil qilish uchun 155 mingga qaysi sonni qo'shish kerak?
5) 15400 soni 16000 dan qancha kam?

48. Hisoblang:

$592\,153 + 398$	$55\,150 - 520$	$77\,457 - 19\,225$
$477\,424 + 490$	$64\,640 - 387$	$56\,283 - 28\,346$
$911\,275 + 27\,111$	$800\,550 - 57\,375$	$55\,354 - 36\,332$
$565\,364 + 39\,703$	$960\,490 - 47\,611$	$47\,784 - 53\,013$

49. Misollarni eng qulay usul bilan yeching:

$180 + 348 + 220$	$741 - 250 - 141$
$459 + 260 + 141$	$627 - 140 - 227$
$370 + 156 + 130$	$519 - 170 - 319$

50. Vagondan 82040 kg kartoshka tushirildi. Yana 9714 kg kartoshkani tushirish kerak. Vagonda jami qancha kilogramm kartoshka keltirilgan?

51. Korxonada 2000 erkak, erkaklardan 485 nafar kam ayol, ayollardan 1225 ta kam o'spirin ishlaydi. Korxonada necha nafar o'spirin ishlaydi?

52. Qurilish maydonchasiga 28600 dona qizil g'isht, undan 17850 ta kam oq g'isht keltirildi. Qurilish maydonchasiga hammasi bo'lib nechta g'isht keltirilgan?

53. Tikuvchilik korxonasida birinchi kuni 8730 m gazlama, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 2078 m ortiq, uchinchi kuni ikkinchi kundagidan 1805 m ortiq gazlama ishlab chiqarildi. Uch kunda korxonada necha metr gazlama ishlab chiqarildi?

54. Hisoblang:

$$36812 + 42368$$

$$801630 - 187927$$

$$3008 + 650721$$

$$345008 - 269871$$

$$82540 + 18462$$

$$126457 - 76895$$

55. Amallarni bajaring:

$$35984 + 7068 - 9408$$

$$98888 + (60100 - 57125)$$

$$480024 + 6703 - 84765$$

56. Ayirishni bajaring, natijani qo'shish bilan tekshiring:

$$\begin{array}{r} \text{Namuna: } - \quad 1000 \\ \quad \quad \quad 175 \\ \hline \quad \quad \quad 825 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \text{Tekshirish: } + \quad 825 \\ \quad \quad \quad 175 \\ \hline \quad \quad \quad 1000 \end{array}$$

$$100 - 7$$

$$400 - 36$$

$$1000 - 125$$

$$600 - 559$$

$$700 - 84$$

$$1000 - 376$$

$$7000 - 3670$$

$$1000 - 189$$

57. Ayirishni bajaring:

$$\begin{array}{r} \text{Namuna: } 20\ 100 \\ - 12\ 708 \\ \hline 7\ 392 \end{array}$$

$40\ 100 - 28\ 098$

$903\ 008 - 450\ 298$

$90\ 000 - 24\ 970$

$701\ 006 - 32\ 057$

$31\ 002 - 20\ 097$

$6\ 008 - 3\ 659$

58. Sonlar yig'indisini toping:

$2\ 376 + 295 + 5\ 017$

$4\ 763 + 394 + 6\ 007$

$1\ 465 + 784 + 1\ 930$

$70\ 358 + 482 + 1\ 365$

$27\ 045 + 830 + 3\ 846$

$28\ 741 + 905 + 3\ 608$

59. Jadvalda mebel ustaxonasining sentabr, oktabr va noyabr oylarida ishlab chiqargan mahsulotlari miqdori ko'rsatilgan:

Mahsulot turlari	Sentabr	Oktabr	Noyabr
	17 568	17 603	17 949
	18 207	18 916	19 999
	24 639	24 710	24 752
JAMI			

1) Ustaxona uch oyda nechta: a) stul, b) stol, d) divan ishlab chiqardi?

2) Ustaxona har oyda nechta mahsulot ishlab chiqardi?

3) Ustaxona uch oyda hammasi bo'lib qancha mahsulot ishlab chiqardi?

60. Ayiring:

486 595 – 329 804

968 015 – 176 819

200 000 – 38 602

567 180 – 37 056

93 100 – 92 906

100 013 – 96 708

742 600 – 58 340

804 300 – 567 805

Ayirish amalida qatnashgan sonlar nima deb ataladi?

61. Ayirmani toping:

765 800 – 45 970

79 100 – 49 510

948 003 – 95 703

150 030 – 126 809

75 100 – 8 609

200 300 – 76 806

863 012 – 720 604

100 000 – 95 470

50 000 – 2 398

35 700 – 4 507

42 073 – 1 754

28 001 – 7 105

62. Orttiring:

42 728 ni 5 485 ga

4 208 ni 31 798 ga

75 075 ni 18 048 ga

697 ni 999 303 ga

127 005 ni 3 739 ga

6 498 ni 645 405 ga

63. Kamaytiring:

52 100 dan 3 408 ni

400 000 dan 89 100 ni

39 205 dan 27 507 ni

703 010 dan 170 060 ni

63 003 dan 15 032 ni

520 003 dan 298 804 ni

64. Fermer xo'jaligi 6456 sr suli, undan 38016 sr ortiq javdar, suli bilan javdar qancha bo'lsa, shuncha bug'doy hosilini yig'ib oldi. Fermer xo'jaligi hammasi bo'lib necha sentner g'alla yig'ib oldi?

65. Hunarmand usta shogirdi bilan birga 2738 ta sopol buyum yasadi. Bulardan choynaklar 235 ta, piyolalar choynaklardan 732 ta ko'p, qolganlari laganlar. Laganlar soni qancha?

66. Fermer xo'jaligi davlatga 937685 kg sabzavot topshirdi. Sabzavotning 187362 kg kartoshka, qolgani sabzi. Davlatga necha kilogramm sabzi topshirildi?

67. Misollarni yeching:

$$25640 + (32436 - 18907)$$

$$97088 - (14846 + 79704)$$

$$120640 + (42402 - 19792)$$

$$(18793 + 7207) - 14967$$

68. Qancha ortiq:

705004 soni 9380 dan;

54021 soni 39908 dan;

200400 soni 196705 dan;

860003 soni 75080 dan;

Qancha kam:

104013 soni 500000 dan;

9308 soni 150010 dan;

109036 soni 600001 dan;

903038 soni 1000000 dan.

Bir son ikkinchi sondan qancha ortiq yoki qancha kamligini bilish uchun qanday amalni bajarish kerak?

69. Misollarni yeching:

$$(70003 - 39867) + (53100 - 49748)$$

$$(820015 - 746809) + (110011 - 96975)$$

$$(134907 + 24796) - (120036 + 9794)$$

$$(784968 + 14100) - (189709 - 9546)$$

70. Sonlar yig'indisini toping:

$$78420 + 312608$$

$$200880 + 28007 + 6700$$

$$780405 + 37076$$

$$7208 + 75040 + 3157$$

71. Sonlar yig'indisini toping:

$$357, 8463 \text{ va } 57490$$

$$2896, 1545 \text{ va } 9006$$

$$18677, 5697 \text{ va } 700688$$

$$15049, 607 \text{ va } 9013, 8041$$

Natijalarning to'g'riligini qo'shiluvchilarning o'rinlarini almashtirish bilan tekshiring.

72. Sonlar yig'indisini toping va ularni ayirish bilan tekshiring:

$$5409 + 19078$$

$$706379 + 10088$$

$$45607 + 124983$$

$$308040 + 28305$$

$$97008 + 323996$$

$$37088 + 20842$$

$$479635 + 72808$$

$$5976 + 520907$$

$$197064 + 7096$$

Qo'shishni ayirish bilan tekshirish qoidasini ayting.

73. 1) Kamayuvchi 180000, ayriluvchi 98804. Ayirmani toping.

2) Kamayuvchi 1000000, ayriluvchi 700980. Ayirmani toping.

3) Kamayuvchi 581000, ayriluvchi 49805. Ayirmani toping.

4) Birinchi qo'shiluvchi 175044, ikkinchi qo'shiluvchi 49591. Yig'indini toping.

5) Uchta qo'shiluvchining yig'indisini toping: 71509, 244671 va 348076.

74. Orttiring:

$$109714 \text{ ni } 95296 \text{ taga;}$$

$$54708 \text{ ni } 123342 \text{ taga;}$$

$$324017 \text{ ni } 98698 \text{ taga;}$$

$$62511 \text{ ni } 236655 \text{ taga.}$$

81. Parrandachilik fermasi davlatga shartnoma bo'yicha 230 000 dona tuxum topshirishi kerak. Birinchi mavsumda 98 650 dona, ikkinchi mavsumda undan 9 675 dona ortiq tuxum topshirildi. Qolgani uchinchi mavsumda topshirildi. Uchinchi mavsumda qancha tuxum topshirilgan? Masala yechimini tekshiring.

82. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

Maktab jihozlarning ta'miri uchun – 24 756 so'm

Binoning ta'miri uchun – 168 964 so'm ortiq

Ustaxonani jihozlash uchun – 897 so'm kam

83. Qaysi son 309 017 dan 7 639 ta ortiq?

Qaysi son 279 235 dan 127 896 ta ortiq?

Qaysi son 109 078 dan 18 013 ta kam?

Qaysi son 500 001 dan 49 504 ta kam?

84. Amallarni bajarilish tartibiga ko'ra misollarni yeching:

$$36\,713 - (2\,609 + 1\,470)$$

$$42\,500 - (13\,803 - 9\,724)$$

$$(72\,563 + 24\,837) - 56\,109$$

$$(4\,260 + 25\,601) - 17\,939$$

$$115\,724 - (7\,819 + 18\,601)$$

$$209\,100 - (143\,501 - 107\,803)$$

$$(370\,568 - 237\,168) - 108\,999$$

$$(16\,792 + 124\,028) - 139\,896$$

$$(12\,700 - 7\,840) + (37\,536 - 9\,709)$$

$$(146\,804 - 29\,716) + (113\,500 - 97\,413)$$

$$(1\,000\,000 - 703\,714) - (138\,700 - 99\,415)$$

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Sabzavot do'koniga 4 500 t kartoshka keltirildi. Birinchi haftada 870 t, ikkinchi haftada esa undan 95 t kam kartoshka sotildi. Sabzavot omborxonasida necha tonna kartoshka qoldi?

2. Do'konda 475 ta albom, unga qaraganda 1598 ta ko'p katak daftar hamda undan 879 ta kam bir chiziqli daftar sotildi. Do'konda hammasi bo'lib nechta daftar sotilgan?
3. Misollarni yeching:
 $35\,189 + (849\,056 - 209\,307) - 93\,086$
 $(50\,001 - 28\,345) + (100\,000 + 68\,907)$
4. 25180 va 6702 sonlari yig'indisini 15603 taga kamaytiring.
5. 17000 va 9506 sonlari ayirmasini 5784 taga orttiring.
6. 145016 soni 58978 dan qancha ortiq?
15032 soni 18000 dan qancha kam?

SONLARNI BUTUN SONLARGA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

85. Ko'paytmani toping:

Namuna:

$$\begin{array}{r} \times 630 \\ 3 \\ \hline 1890 \end{array} \qquad \begin{array}{r} \times 2700 \\ 3 \\ \hline 8100 \end{array}$$

200 · 5	2400 · 3	7600 · 6	3600 · 3
140 · 6	5700 · 5	8000 · 8	1300 · 4
560 · 2	4200 · 7	2900 · 2	2800 · 3
704 · 4	1230 · 3	1600 · 3	1400 · 5
250 · 5	1400 · 5	8000 · 4	1700 · 5

Eslaylik: Ko'payuvchi, ko'paytuvchi va ko'paytma – qaysi sonlar ekan?

86. Bo'linmani toping:

840:4	8 100:9	1 700:1	7 800:3
720:6	4 200:3	6 400:2	2 700:2
560:8	5 400:6	7 200:8	8 100:3
650:5	8 400:3	9 600:3	7 800:6
840:3	9 100:7	5 400:3	6 800:4

87. Esaylik:

Bo'lish amalida ishtirok etgan sonlar nima deb ataladi?

Bo'linuvchi deb nimaga aytiladi?

Bo'luvchi deb nimaga aytiladi?

Bo'linma deb nimaga aytiladi?

88. Sonni nol bilan tugagan songa qanday ko'paytirishni eslang va ko'paytirishni bajaring:

5 400 · 10	760 · 100	8 248 · 10	909 · 1000
475 · 100	2 040 · 10	7 309 · 100	87 039 · 100
24 · 1000	740 · 1000	90 407 · 10	50 010 · 10

89. Sonni nol bilan tugagan songa qanday bo'linishini eslang va bo'lishni bajaring:

740:10	13000:10	3600:10	70000:10
7800:100	75300:100	38700:100	83700:100
35000:1000	10000:1000	750000:1000	28000:1000

90. Sonni yaxlit o'nlarga, yuzlarga va minglarga qanday ko'paytirilishini eslang va ko'paytirishni bajaring:

830 · 20	120 · 80	420 · 200	120 · 60
560 · 30	125 · 50	17 · 500	120 · 300
560 · 60	75 · 30	16 · 300	15 · 5000

91. Sonni yaxlit o'nlarga, yuzlarga va minglarga qanday bo'linishini eslang va bo'lishni bajaring:

$7200:20$

$7800:200$

$94000:2000$

$9600:30$

$9200:200$

$75000:500$

$7600:20$

$4500:500$

$48000:300$

$5100:30$

$8100:300$

$64000:4000$

92. 700 ni 5 marta orttiring.

60 ni 80 marta orttiring.

Birinchi ko'payuvchi 50, ikkinchi ko'paytuvchi 90. Ko'paytmani toping.

Birinchi ko'payuvchi 300, ikkinchi ko'paytuvchi 40. Ko'paytmani toping.

600 ni 20 marta orttiring.

1400 ni 70 marta orttiring.

93. 1) 900 ni 5 marta kamaytiring.

2) 300 ni 60 marta kamaytiring.

3) Bo'linuvchi 8400, bo'luvchi 300. Bo'linmani toping.

4) Bo'linuvchi 72000, bo'luvchi 3000. Bo'linmani toping.

5) 6400 ni 20 marta kamaytiring.

94. Ko'paytirishning o'rin almashtirish qoidasini eslab, misollarni yeching va javoblarini solishtiring:

Namuna:

$430 \cdot 3 = 1290$

$3 \cdot 430 = 1290$

$125 \cdot 20$

$160 \cdot 20$

$200 \cdot 600$

$20 \cdot 180$

$25 \cdot 30$

$450 \cdot 30$

$40 \cdot 400$

$70 \cdot 300$

Ko'paytuvchilarning o'rinlarini almashtirish bilan ko'paytma o'zgaradimi?

95. Misollarni yeching. Kerak joyda ko'paytuvchilar o'rinlarini almashtiring:

$450 \cdot 20$	$7 \cdot 120$	$400 \cdot 1200$	$1700 \cdot 3$
$3 \cdot 290$	$560 \cdot 20$	$3060 \cdot 20$	$30 \cdot 260$
$40 \cdot 210$	$50 \cdot 1500$	$3 \cdot 4200$	$4 \cdot 180$

96. Ikki mashinada 35600 kg kartoshkani omborga tashildi. Birinchi mashina 1500 kg dan kartoshka ortib 9 marta qatnadi. Ikkinchi mashina 3000 kg dan kartoshka ortib 7 marta qatnadi. Qancha kartoshka tashilmay qoldi?

97. Suv qadoqlash sexida mineral suvlar 43200 ta idishga quyildi hamda har bir blokka 6 tadan qilib joylashtirildi. Hammasi bo'lib nechta blok mineral suv bor?

98. Bo'lishni bajaring:

$960 : 10$	$6000 : 100$	$7000 : 1000$
$7840 : 10$	$2800 : 100$	$81000 : 1000$
$9600 : 10$	$30000 : 100$	$69000 : 1000$
$1700 : 10$	$89000 : 100$	$6000 : 1000$

99. Ishchilar 4 kunda 48 ta mashina yig'ishlari kerak edi. Bu ishni ular 3 kunda bajardilar. Ishchilar bir kunda rejadagidan nechta ko'p mashina yig'dilar?

100. Do'konda ertalab 3 yashik, kechqurun 2 yashik uzum sotildi. Hammasi bo'lib 50 kg uzum sotildi. Ertalab necha kilogramm uzum sotildi?

101. Sexda I kuni 1069 ta va II kuni 2405 ta daftar tayyorlandi. III kuni II kundagidan 405 ta kam daftar tayyorlandi. Uch kunda nechta daftar tayyorlandi?

102. Toshkent va Andijon shaharlaridan bir vaqtda bir-biriga qarab 2 poyezd yo'lga chiqdi va 4 soatdan keyin uchrashdi. Birining tezligi 50 km/soat, ikkinchisniki 70 km/soatni tashkil etdi. Ikki shahar orasidagi masofani toping.

103. Yangiobod shahridan Toshkent shahrigacha bo'lgan masofa 122 km ni tashkil etadi. Avtobus Yangioboddan yo'lga chiqib 48 km/soat tezlik bilan ikki soat yurdi. Toshkentgacha yana necha kilometr yo'l qoldi?

104. Maktab tajriba maydonidan 100 kg kartoshka yig'ishtirib olindi. Kartoshkaning beshdan bir qismi urug'lik uchun qoldirildi. Qolgani maktab oshxonasiga topshirildi. Necha kilogramm kartoshka maktab oshxonasiga topshirildi?

105. Misollarni yeching:

$$480 \cdot 20$$

$$1600 \cdot 20$$

$$4500 \cdot 30$$

$$570 : 30$$

$$4900 : 70$$

$$3600 : 20$$

$$320 : 80$$

$$6400 : 80$$

$$9600 : 40$$

$$110 \cdot 90$$

$$8000 \cdot 90$$

$$2100 : 30$$

106. Ikki xonali songa ko'paytirish qanday bajarilganligini eslang:

$$\begin{array}{r} \times 7300 \\ 24 \\ \hline 292 \\ + 146 \\ \hline 175200 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 9006 \\ 48 \\ \hline 72048 \\ + 36024 \\ \hline 432288 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 4080 \\ 37 \\ \hline 2856 \\ + 1224 \\ \hline 150960 \end{array}$$

107. Ko'paytmani toping:

$$2370 \cdot 24$$

$$6031 \cdot 38$$

$$70801 \cdot 34$$

$$8430 \cdot 17$$

$$4069 \cdot 72$$

$$50007 \cdot 69$$

108. $524 \cdot 8$	$1276 \cdot 23$	$7250 \cdot 24$
$209 \cdot 42$	$2034 \cdot 45$	$5408 \cdot 67$
$470 \cdot 91$	$6108 \cdot 54$	$8009 \cdot 16$

- 109.** 1) Birinchi ko'paytuvchi 954, ikkinchi ko'paytuvchi 35. Ko'paytmani toping?
2) 649 ni 48 marta orttiring.

110. Hisoblang:

$7005 - 306 \cdot 7$	$5030 - 4168 + 31 \cdot 8$
$76 \cdot 69 - 656 \cdot 9$	$102 \cdot 56 - (97 + 197)$

111. Hisoblang:

$409 \cdot 68$	$895 \cdot 76$	$2807 \cdot 49$	$96780 : 3$
$860 \cdot 37$	$604 \cdot 97$	$2101 \cdot 33$	$48400 : 4$

112. Hisoblashdagi xatolarni toping va tuzating:

$\begin{array}{r} 628 \\ \times 45 \\ \hline 3140 \\ + 2512 \\ \hline 5652 \end{array}$	$\begin{array}{r} 720 \\ \times 35 \\ \hline 3600 \\ + 2160 \\ \hline 5760 \end{array}$
---	---

113. Hisoblang:

$4527 \cdot 50 - 7108 : 4$	$8213 \cdot 20 - 12240 : 3$
$826 \cdot 400 - 2736 : 6$	$743600 - 454 \cdot 40$

114. Ko'paytmani toping:

$983 \cdot 16$	$7352 \cdot 14$	$1780 \cdot 23$
$594 \cdot 37$	$1185 \cdot 23$	$7820 \cdot 36$
$809 \cdot 57$	$6070 \cdot 25$	$7060 \cdot 34$

115. Ikki operator bir xil vaqt davomida 99 bet matn yozdi. Birinchi operator soatiga 5 bet, ikkinchisi 6 bet matn yoza oldi. Har bir operator necha betdan matn yozgan?

116. Bo'lish qanday bajarilganini tushuntiring va misollarni yeching:

$$\begin{array}{r|l} 23'8 & 78 \\ 21 & \underline{34} \\ \hline 28 & \cdot\cdot \\ \hline 28 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

$$\begin{array}{r|l} 281'4 & 67 \\ 268 & \underline{42} \\ \hline 134 & \cdot\cdot \\ \hline 134 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

$$\begin{array}{r|l} 408'8 & 73 \\ 365 & \underline{56} \\ \hline 438 & \cdot\cdot \\ \hline 438 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

$156:13$

$2924:68$

$3456:54$

$2961:47$

$492:12$

$2628:73$

$3848:74$

$4674:82$

117. Tushuntirib yeching:

$651:93$

$324:81$

$445:89$

$581:83$

$576:72$

$147:21$

$270:45$

$546:91$

$532:76$

$234:78$

$1400:25$

$448:32$

118. Misollar tuzing:

34 marta orttiring

403	260	700	23
-----	-----	-----	----

60 marta kamaytiring

2040	900	1260	1560
------	-----	------	------

119. Bo'lishni bajaring:

$980:35$

$800:2$

$1008:12$

$756:36$

$672:21$

$1512:63$

$832:26$

$540:12$

120. Rejaga ko'ra usta 27 kunda 756 ta mahsulot qismi tayyorlashi kerak edi. Agar usta har kuni 36 tadan mahsulot qismi tayyorlagan bo'lsa, u rejasini muddatida bajarganmi?

121. Do'konga 560 ta televizor keltirildi. Uning yettidan bir qismi sotildi. Do'konda nechta televizor qoldi?

122. Amallarning bajarilish tartibiga ko'ra misollarni yeching:

$$5428:23 + 3753$$

$$6156:19 + 9997 \cdot 15$$

$$(5684:28 + 289)$$

$$(1168:73 + 588)$$

123. Misollarni yeching:

$$(4918 + 782):5$$

$$(7600 - 1852):12$$

$$(7400 + 872):16$$

$$500 - 36 \cdot 13$$

$$3040 + 724 \cdot 15$$

$$61000 - 317 \cdot 18$$

124. Ko'paytmani toping:

$$2746 \cdot 24$$

$$3957 \cdot 38$$

$$6058 \cdot 60$$

$$8562 \cdot 26$$

$$6301 \cdot 30$$

$$7260 \cdot 10$$

$$7056 \cdot 19$$

$$4902 \cdot 47$$

$$3804 \cdot 30$$

$$4560 \cdot 30$$

$$7001 \cdot 80$$

$$1070 \cdot 70$$

125. Amallarni bajaring:

$$809 \cdot 19 + 48273$$

$$1272 \cdot 14 + 400607$$

$$45867 + 3970 \cdot 70$$

$$450074 - 2006 \cdot 53$$

$$4072 \cdot 8 - 197 \cdot 43$$

$$4080 \cdot 17 - 59486$$

$$1496 \cdot 19 + 15678$$

$$50480 + 3843 \cdot 23$$

$$3802 + 1498 \cdot 26$$

$$5506 \cdot 25 - 26996$$

126. Bo'lishni bajaring:

Namuna:

$$\begin{array}{r|l} \underline{\underline{195'48}} & 27 \\ \underline{189} & \underline{724} \\ \underline{\underline{64}} & \dots \\ \underline{54} & \\ \underline{\underline{108}} & \\ \underline{108} & \\ \underline{\underline{0}} & \end{array}$$

3540:15	4004:14	20553:39	21248:83
4953:13	20020:28	30303:37	14640:48
3300:12	48675:75	34408:46	26790:57

127. Fermer xo'jaligi birinchi kuni daladan 3248 kg, ikkinchi kuni 4576 kg pomidor terib oldi. Agar har bir yashikka 16 kg dan pomidor ketsa, terilgan pomidorni shaharga jo'natish uchun nechta yashik kerak bo'ladi?

128. Fermer xo'jaligi 18 ga yerdan 3150 sr, II fermer xo'jaligi 14 ga yerdan 2240 sr kartoshka yig'ib oldi. Birinchi xo'jalik 1 ga yerdan ikkinchi xo'jalikka qaraganda necha sentner ortiq kartoshka yig'ib oldi?

129. Yozuvlarda ba'zi raqamlar yulduzchalar bilan almashtirilgan. Yozuvlarni tiklang:

$$\begin{array}{r}
 ** \quad **** \\
 + \quad - \\
 ** \quad **** \\
 \hline
 197 \quad 1
 \end{array}$$

- 130.** 1) 17135 ni teng 23 bo'lakka bo'ling.
 2) 11968 ni 16 marta kamaytiring.
 3) 7322 soni 14 dan necha marta katta?
 4) 15 soni 5715 dan necha marta kichik?
 5) 2760 da 15 dan necha marta bor?
 6) 4088 ning yigirma sakkizdan birini toping.
 7) 3700 ni hosil qilish uchun 25 ni qaysi songa ko'paytirish kerak?
- 131.** Xo'jalik mart oyining birinchi 11 kunida kuniga 420 t dan, qolgan 20 kunda kuniga 450 t dan qog'oz ishlab chiqardi. Xo'jalik mart oyida necha tonna qog'oz ishlab chiqargan?

132. Do'konga har birida 45 kg dan 125 qop shakar, har birida 50 kg dan 105 qop qand keltirildi. Keltirilgan shirinliklarning umumiy og'irligini toping.

133. Misollarni yeching:

$$71440 : 80 - 14820 : 60 \qquad (900 - 735) \cdot 80 + 2076$$

$$637 \cdot 30 - 4850 : 50 \qquad (60990 + 12240) : 30 - 30$$

134. Fermer xo'jalikning ikki guruhi 120 qop kartoshka terishdi. 1-guruh 2450 kg, 2-guruh 3550 kg kartoshka tergan bo'lsa, har bir guruh necha qopdan kartoshka tergan? 1 qop kartoshkani 50 kg deb oling.

135. Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{r} * \\ 40\ 150 : 50 \quad | \quad 35\ 210 : 70 \\ \hline 2\ 400 : 30 \quad | \quad 3\ 600 : 40 \\ \hline 320 : 80 \quad | \quad 810 : 90 \\ \hline 8\ 130 \cdot 60 \quad | \quad 4\ 800 \cdot 30 \end{array}$$

136. Ilgari ishchi qo'lda ishlab, bir navbatda 78 ta buyum qismini tayyorlar edi. Hozir texnika yordamida bir navbatda 14820 ta shunday buyum qismini tayyorlamogda. Ishchining hozirgi ish unumi ilgarigiga qaraganda necha marta ortiq?

137. Misollarni yeching:

$$706 \cdot 12 - 3150 : 90 \qquad (1307 - 459) \cdot 23$$

$$60200 : 70 + 9 \cdot 325 \qquad (1575 + 973) : 49$$

$$2772 : 21 \qquad 3312 : 46$$

138. Amallarni bajaring:

$4888:52$	$8820:28$	$10000 - 284 \cdot 35$
$91375:43$	$1904:34$	$9999 + 8 \cdot 4356$
$9 \cdot 387$	$954 \cdot 11 - 954$	$667 \cdot 14 - 2638$

139. Hisoblang:

$63971:17$	$740296 - 676325$	$2087 \cdot 37$
$96000:48$	$3736 + 956621$	$3451 \cdot 16$

140. Ko'paytma, bo'linmalarni toping:

$308 \cdot 74$	$8125:65$	$43776:96$
$125 \cdot 17$	$10270:65$	$25038:78$
$374 \cdot 49$	$23247:63$	$14592:32$

141. 1) 859 ni 3 marta orttiring, chiqqan sonni 6 ga ko'paytiring.

2) 21375 ni 5 marta kamaytiring, chiqqan sonni 17 marta orttiring.

3) Ko'payuvchi 370, ko'paytuvchi 63. Ko'paytmani toping va uni 8 marta orttiring.

4) Bo'linuvchi 30660, bo'luvchi 35. Bo'linmani toping va uni 9 marta orttiring.

5) Ko'payuvchi 806, ko'paytuvchi 7. Ko'paytmani toping va uni 5 marta orttiring.

6) Bo'linuvchi 70330, bo'luvchi 26. Bo'linmani toping va uni 7 marta orttiring.

142. 10 kg paxta og'irimi yoki 10 kg temir og'irimi?

143. Amallarni bajaring:

$(708 + 4096) \cdot 37$	$(7803 - 4079) \cdot 53$
$709405 + 1457 \cdot 38$	$1000000 - 9805 \cdot 63$

$$(26709 + 8571):49$$

$$20000 + 55568:23$$

$$(203024 - 107849):25$$

$$100000 - 73545:15$$

144. Ko'paytmani toping:

$$305 \cdot 25 \cdot 8$$

$$675 \cdot 25 \cdot 4$$

$$735 \cdot 20 \cdot 9$$

$$486 \cdot 87 \cdot 7$$

$$806 \cdot 38 \cdot 9$$

$$307 \cdot 26 \cdot 8$$

$$760 \cdot 23 \cdot 6$$

$$408 \cdot 35 \cdot 3$$

$$706 \cdot 34 \cdot 7$$

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Yuk mashinasi 5 soat davomida 175 km masofani, yengil mashina esa 3 soatda 315 km masofani bosib o'tdi. Yengil mashina tezligi yuk mashina tezligidan necha marta ortiq?

2. Hisoblang:

$$145 \cdot 36$$

$$13804:34$$

$$2706 \cdot 64$$

$$531684:27$$

$$50800:16$$

$$4996 \cdot 86$$

3. Ifodaning qiymatini hisoblang:

$$(118200 + 330248):44$$

$$(76453 - 39753) \cdot 49$$

4. 3 ta bir xil kitob javoni 174000 so'm turadi. Maktab kutubxonasi uchun yettita shunday javon olindi. Kitob javonlari uchun necha so'm pul to'landi?

5. Hisoblang:

$$34996:2$$

$$1728 \cdot 76$$

$$35032:58$$

$$1082 \cdot 98$$

$$72048:16$$

$$4007 \cdot 28$$

6. Ifodaning qiymatini hisoblang:

$$(4098 + 15670 + 4232):16$$

$$12000 - 409 \cdot 27$$

O'LCHOV BIRLIKLARI BILAN BERILGAN SONLAR USTIDA AMALLAR

145. O'qing:

5000 so'm, 3 soat 15 daqiqa, 35 kg 800 g, 9 sr 64 kg,
5016 m, 7 t 80 kg, 160900 m, 54 km, 700 m, 60 t,
7 sr, 9060 g, 7 dm 8 sm, 68 mm, 504 km, 4 dm 5 sm.

146. 7 m 18 sm + 10 m 92 sm

414 kg 70 g + 904 g

800 kg - 412 g

934 m 10 sm - 864 m

13 km 650 m + 209 km 865 m

470 km - 800 m

1000 m - 275 m

147. 81 m 54 sm + 1 m 74 sm

60 m 89 sm + 43 m 5 sm

560 km - 24 km 440 m

14 m 6 dm + 7 m

7 t 500 kg + 8 t 950 kg

54 m 25 sm - 6 m 83 sm

145 m 10 sm - 104 m 70 sm

15 m 100 mm + 7 m 850 mm

7 m - 3 m 8 dm

21 t 230 kg - 18 t 750 kg

148. 5 soat + 3 soat 40 min

10 soat - 35 min

8 soat 15 min + 2 soat 45 min

3 soat 15 min - 1 soat 50 min

12 soat 45 min + 11 soat 15 min

3 soat 52 min + 8 soat 48 min

9 soat 30 min - 7 soat 45 min

149. $5 \text{ t } 8 \text{ sr} \cdot 12$ $7 \text{ m } 26 \text{ sm} \cdot 35$
 $7 \text{ kg } 800 \text{ g} \cdot 5$ $90 \text{ m } 6 \text{ dm} \cdot 3$
 $6 \text{ dm } 7 \text{ sm} \cdot 14$ $21 \text{ m } 25 \text{ sm} \cdot 7$
 $1 \text{ km } 750 \text{ m} \cdot 39$ $740 \text{ km} \cdot 9$

150. $12 \text{ soat } 15 \text{ min} - 45 \text{ min}$
 $5 \text{ soat } 26 \text{ min} + 1 \text{ soat } 34 \text{ min}$
 $15 \text{ t } 300 \text{ kg} - 9 \text{ t } 428 \text{ kg}$
 $56 \text{ km } 900 \text{ m} - 2 \text{ km } 760 \text{ m}$
 $8 \text{ so'm} - 6 \text{ so'm}$
 $16 \text{ soat } 52 \text{ min} - 11 \text{ min}$

151. Vertolyot 200 km/soat tezlik bilan 4 soat va 230 km/soat tezlik bilan 2 soat uchdi. Shu vaqt ichida vertolyot necha kilometr masofani uchib o'tgan?

152. Toshkent va Samarqand shaharlari orasidagi masofa 300 km . Agar poyezd 60 km/soat tezlik bilan yursa, u bu masofani qancha vaqtda bosib o'tadi?

153. Ninachi 6 sekunda 60 metr masofani uchib o'tadi. Agar ninachi shunday tezlik bilan uchsa, 80 metr masofani uchib o'tish uchun unga qancha vaqt kerak bo'ladi?

154. Ifodalang:

1) kilometr va metrlarda: 4098 m , 45981 m , 7028 m , 93452 m ;

2) tonna va kilogrammlarda: 28619 kg , 2790 kg , 7408 kg , 92812 kg ;

3) metr va santimetrlarda 728 sm , 4603 sm , 1053 sm .

- 155.** Mashina 6 soatda 300 km, poyezd esa 4 soatda 240 km yo'l yurdi. Poyezdning tezligi mashinaning tezligidan qancha ortiq?
- 156.** Bola 3 kunda 40 betdan va 4-kuni yana 50 bet kitob o'qidi. Agar kitob 200 betli bo'lsa, bola yana necha bet kitob o'qishi kerak?
- 157.** Toshkent va Bekobod shaharlari orasidagi masofa 144 km. Avtobus bu masofani o'zgarmas tezlik bilan 3 soatda bosib o'tdi. Yengil mashina esa bu yo'lni 72 km/soat tezlik bilan bosib o'tadi. Qaysi transportning tezligi katta va qancha katta?
- 158.** Kattaroq birliklarda ifodalang:
- | | |
|------------------------|-------------------------|
| 3400 sm = ... m | 65035 sm = ... m ... sm |
| 72435 m = ... km ... m | 203 sm = ... dm ... sm |
- 159.** Oralaridagi masofa 520 km bo'lgan ikki shahardan bir vaqtda bir-biriga qarab ikkita poyezd yo'lga chiqdi. Va 4 soatdan keyin uchrashdi. Poyezdlardan birining tezligi 60 km/soat. Ikkinchisining tezligi qancha?
- 160.** Bir ustunga uzunlik o'lchov birliklarini va ikkinchi ustunga yuza o'lchov birliklarini yozib chiqing: metr, kvadrat detsimetr, santimetr, millimetr, kvadrat metr.
- 161.** O'ylab ko'ring-chi, quyidagi kattaliklarni o'lchashda qanday birliklardan foydalanilgan? Tushib qolgan o'lchov birliklarini o'rniga qo'yib o'qing: Qalamning uzunligi 18... . Qovoqning massasi 4... . Xonaning yuzi 12... . Filning massasi 4... . Shahardan qishloqqacha 6... .

162. 14 kilometrni metrlarda, 14 soatni minutlarda, 275 kg ni sentner va kilogrammlarda, 3 sutkani soatlarda, 84 oyni yillarda, 12 asrni yillarda va 2000 millimetrni metrlarda ifodalang.

163. Tengsizliklarning to'g'riligini tekshiring:

$$22 \text{ soat} < 1 \text{ sutka}$$

$$230 \text{ sr} > 2 \text{ t } 3 \text{ sr}$$

$$2 \text{ soat} > 20 \text{ minut}$$

$$3 \text{ m } 8 \text{ dm} = 3 \text{ m } 80 \text{ sm}$$

164. Namuna asosida yeching: **1 tonna = 1000 kg**

$$8 \text{ t } 148 \text{ kg} = 8 \text{ t } 148 \text{ kg} = 8148 \text{ kg}$$

$$8148 \text{ kg} : 7 = 57036 \text{ kg} = 57 \text{ t } 36 \text{ kg}$$

165. 15 nafardan iborat 9-sinf o'quvchilari metro bilan «G'afur G'ulom» istirohat bog'iga bordilar. Metro chiptasi **1200** so'm bo'lsa, borib kelish uchun yo'lga necha so'm kerak bo'ladi?

166. 60×60 , 70×70 , 80×80 o'lchovli 3 ta yostiq jildi tikish uchun eni 90 sm bo'lgan chitdan necha metr mato kerak bo'ladi?

167. $5 \text{ m } 2 \text{ mm} \cdot 53$	$5 \text{ t } 118 \text{ kg} \cdot 4$	$4 \text{ km } 196 \text{ m} \cdot 18$
$8 \text{ m } 28 \text{ mm} \cdot 12$	$6 \text{ t } 96 \text{ kg} \cdot 5$	$7 \text{ km } 36 \text{ m} \cdot 27$
$9 \text{ m } 125 \text{ mm} \cdot 8$	$7 \text{ t } 8 \text{ kg} \cdot 83$	$8 \text{ km } 3 \text{ m} \cdot 9$

168. Chizmaga ko'ra masala tuzing va uni yeching:



169. Misollarni namuna asosida yeching:

$$218 \text{ m } 40 \text{ sm} : 14 = 15 \text{ m } 60 \text{ sm}.$$

$$\begin{array}{r|l} \underline{21840 \text{ sm}} & 14 \\ \underline{14} & 1560 \text{ sm} \\ \hline 78 & 15 \text{ m } 60 \text{ sm} \\ \underline{-70} & \\ 84 & \\ \underline{-84} & \\ 0 & \end{array}$$

1) $33 \text{ m } 4 \text{ sm} : 14$

$901 \text{ sm } 80 \text{ sm} : 60$

$78 \text{ m } 28 \text{ sm} : 38$

2) $211 \text{ m } 51 \text{ sm} : 13$

$487 \text{ m } 68 \text{ sm} : 24$

$577 \text{ m } 26 \text{ sm} : 18$

$3463 \text{ sr } 97 \text{ kg} : 17$

$136 \text{ m } 8 \text{ sm} : 27$

$344584 \text{ sr } 60 \text{ kg} : 38$

$37 \text{ kg } 950 \text{ g} : 75$

$782 \text{ km } 540 \text{ m} : 85$

$172 \text{ t } 140 \text{ kg} : 19$

170. $162 \text{ t } 288 \text{ kg} : 18$

$169 \text{ sr } 20 \text{ kg} : 24$

$84 \text{ kg } 480 \text{ g} : 16$

$570 \text{ km } 40 \text{ m} : 5$

$198 \text{ m } 45 \text{ sm} : 49$

$51 \text{ km } 153 \text{ m} : 17$

$239 \text{ m } 12 \text{ sm} : 14$

$75 \text{ kg } 25 \text{ g} : 25$

171. Misollarni yeching, nuqtalar o'rniga $>$, $<$, $=$ belgilaridan mosini qo'ying:

$194 \text{ t } 508 \text{ kg} : 27 \dots$

$96 \text{ km } 432 \text{ m} : 48 \dots$

$757 \text{ t } 428 \text{ kg} : 84 \dots$

$10 \text{ sr } 56 \text{ kg} \cdot 25 \dots$

$5 \text{ m } 18 \text{ sm} \cdot 28 \dots$

$38 \text{ m } 6 \text{ sm} \cdot 18 \dots$

$176 \text{ t } 175 \text{ kg} : 29$

$96 \text{ km } 432 \text{ m} : 24$

$288 \text{ t } 648 \text{ kg} : 72$

$12 \text{ sr } 8 \text{ kg} \cdot 24$

$7 \text{ m } 26 \text{ sm} \cdot 19$

$19 \text{ m } 3 \text{ sm} \cdot 36$

172. Kvadrat shaklidagi gulzorning bir tomoni 34 m 60 sm. Uni o'rash uchun necha metr panjara sotib olish kerak?

173. Misollar yechimini tekshiring:

16 m 32 sm : 3	24 m 60 sm : 15	50 t 80 kg : 16
8092 kg : 40	9 m 12 sm : 24	44030 mm : 35
42 m 10 sm : 5	7 sr 52 kg : 8	8 t 50 kg : 70

174. 18 yosh 7 oy + 9 yosh 6 oy	15 yosh 10 oy - 6 yosh 8 oy
27 yosh 8 oy + 16 yosh 9 oy	16 yosh - 7 yosh 8 oy
38 yosh 5 oy + 18 yosh 8 oy	27 yosh 5 oy - 14 oy
5 yosh 6 oy + 45 yosh 7 oy	18 yosh 6 oy - 8 yosh 8 oy

175. Amallarni bajaring:

1) 5 km 376 m · 35	42 sm 3 mm · 34	17448 sr : 12
8 kg 448 g · 51	170 t 13 g · 45	30405 sr : 15
7 t 14z7 kg · 73	93 m 4 sm · 52	76636 sr : 17
2) 189 kg 79 g · 9	81 kg 200 g · 51	14 kg 790 g : 34
385 m 8 sm · 7	5 km 250 m · 42	1 km 764 m : 49
37 sr 18 kg · 6	7 t 125 kg · 84	15 t 372 m : 36

176. Ayollar ko'ylagini tikish uchun 2 m 75 sm mato, qizchalar ko'ylagi uchun esa undan 1 m 25 sm kam mato sarflanadi. 14 ta qizchalar ko'ylagi uchun necha metr mato kerak bo'ladi?

177. Tikish sexida 294 m kashimir matosidan 98 ta palto tikildi. Sex har kuni 1750 ta shunday paltoni sotuvga chiqaradi. Har kuni necha metr mato kerak bo'ladi?

178. Mos sonlarni qo'yib, masalalarni yeching:

Narxi	Miqdori	Qiymati
...	56 ta 	...
...	35 ta 	...
...	43 ta 	...
...	20 ta 	..

179. $387 \text{ m } 2 \text{ dm} : 4$ $85 \text{ sr } 65 \text{ kg} : 5$ $56 \text{ kg } 300 \text{ g} : 44$
 $701 \text{ sr } 50 \text{ kg} : 35$ $54 \text{ m } 8 \text{ sm} : 32$ $13 \text{ t } 356 \text{ kg} : 2$
 $756 \text{ t } 90 \text{ kg} : 5$ $38 \text{ m } 25 \text{ sm} : 9$ $5 \text{ km } 70 \text{ m} : 5$
 $82 \text{ t } 8 \text{ kg} : 8$ $30 \text{ m } 87 \text{ sm} : 3$ $85 \text{ m } 87 \text{ sm} : 3$

180. Birinchi samolyot to'rt soatda 2800 km, ikkinchi samolyot esa besh soatda 3250 km masofani uchib o'tadi. Qaysi samolyot tezligi ko'p va qanchaga ortiq?

181. $58 \text{ m } 45 \text{ sm} \cdot 48$ $378 \text{ t } 3 \text{ sr} : 13$
 $36 \text{ km } 87 \text{ m} \cdot 37$ $856 \text{ sr } 80 \text{ kg} : 28$
 $84 \text{ t } 7 \text{ kg} \cdot 26$ $463 \text{ t } 2 \text{ sr} : 12$
 $176 \text{ km } 68 \text{ m} : 35$ $2234 \text{ km } 4 \text{ m} : 57$
 $814 \text{ m } 275 \text{ sm} : 45$

182. Maktab-internatda 100 nafar o'quvchi tarbiyalanadi. Har kuni boshqa oziq-ovqatlardan tashqari 25 kg oq non, 35 kg qora non, 20 kg tvorog olib kelinadi. Shu oziq-ovqatlardan har kuni har bir o'quvchiga beriladigan o'rta hisobdagi mahsulotlar og'irligini aniqlang.

183. Birinchi xo'jalikda 45 quti, ikkinchisida esa 52 quti asalari bor. Har bir qutidan 32 kg asal olinsa, hamma qutilardan necha kilogramm asal olinadi?

184. Misollarni yeching:

$$38 \text{ m } 70 \text{ sm} \cdot 22$$

$$2 \text{ t } 250 \text{ kg} \cdot 31$$

$$8 \text{ kg } 435 \text{ g} \cdot 77$$

$$6 \text{ kg } 750 \text{ g} \cdot 24$$

$$8 \text{ t } 904 \text{ kg} \cdot 43$$

$$72 \text{ t } 16 \text{ sr} \cdot 91$$

$$9 \text{ sr } 23 \text{ kg} \cdot 8$$

$$18 \text{ m } 52 \text{ sm} \cdot 6$$

$$14 \text{ km } 13 \text{ m} \cdot 4$$

185. Masala tuzing va uni yeching:



14 000 so'm



9 000 so'm



2 500 so'm

17 ta shim; 22 ta ko'ylak; 15 ta mayka necha so'm bo'ladi?

186. Misollarni yeching:

$$8 \text{ sr } 35 \text{ kg} \cdot 22$$

$$13 \text{ m } 8 \text{ sm} : 6$$

$$4 \text{ t } 85 \text{ kg} \cdot 84$$

$$20 \text{ km } 48 \text{ m} : 16$$

$$26 \text{ kg } 964 \text{ g} : 28$$

$$840 \text{ m } 42 \text{ sm} : 21$$

187. Har bir ko'ylakka 1 m 50 sm gazlama sarflansa, 392 ta ko'ylak tikish uchun qancha gazlama kerak bo'ladi?

188. Misollarni yeching:

57 sr 60 kg : 48

72 t 8 sr : 28

48 km 24 m 24

6 t 50 kg : 50

10 km 200 m : 60

990 m 66 sm : 33

189. 27 nafar o'quvchi 4860 kg makulatura topshirdi. O'rta hisobda har bir o'quvchi necha kilogramm makulatura topshirdi?

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Bir velosipedchi 24 km masofani soatiga 12 km tezlik bilan bosib o'tdi. Shuncha vaqt ichida tezligi soatiga 8 km bo'lgan boshqa velosipedchi bu yo'lni necha soatda bosib o'tadi?

2. Amallarni bajaring:

24 kg – 5 kg 9 g

13 sr + 400 kg

5 m 19 sm 9

76 km – 18 km 45 m

16 km + 9 km 18 m

8 sm 9 mm 14

3. Televizor va antennaning birgalikdagi og'irligi 8 kg. Antenna televizorga qaraganda 800 g yengil. Televizorning og'irligi toping.

4. Amallarni bajaring:

25 m 72 sm – 17 m 69 sm

4 kg 800 g + 51 kg 300 g

27 sr 83 kg : 3

85 t 62 kg : 3

19 t 160 kg + 840 kg

5 t – 3 t 178 kg

4 sutka 15

968 kg : 4

O'NLI KASRLAR



Eslaylik: Maxraji 10, 100, 1000 sonlaridan tashkil topgan kasrlar o'nli kasrlar deb ataladi, $\frac{3}{10} = 0,3$; $\frac{27}{100} = 0,27$.

- 190.** O'nli kasrlarning qanday hosil bo'lishini eslang. Kvadrat chizing va uni 100 ta teng kvadratchalarga bo'ling. Agar kvadratni butun bir birlik o'rniga qo'yib ko'rsak, bu holda har bir katakcha butun kvadratning 0,01 qismini tashkil etadi 10, 20, 30 ta katak-chi?

$$0,10 = 0,1 \quad 0,20 = 0,2 \quad 0,30 = 0,3$$

- 191.** Metr yordamida 1 dm, 10 sm, 100 mm uzunlikdagi kesmalar kattaliklarini ko'rib chiqing. Ular metrning qanday bo'lagini tashkil etadi? 0,1 m; 0,10 m; 0,100 mm kesmalar kattaligida o'zgarish bo'ldimi?

Demak, **$0,1 = 0,10 = 0,100$**



O'nli kasrlarda o'ngdan nol raqamini xohlagan miqdorda qo'shishimiz yoki tushirib qoldirishimiz mumkin. Bundan kasr son miqdori o'zgarmaydi.

- 192.** 0,1; 0,10; 0,100 o'nli kasrlar qanday ulushlarda yozilgan? Eng yirik va eng mayda ulushlarni ayting.
- 193.** Avval butun sonlarni, so'ngra o'nlik, yuzlik va minglik ulushlarni taqqoslang. Bu kasrlar tengmi?

a) 0,6; 0,60; 0,600

b) 1,2; 1,20; 1,200

d) 3,200 kg; 3,20 kg; 3,2 kg.

194. 0,700; 4,350; 60,90; 0,100 kasr sonlarida o'ngda turgan nol sonlarini tushirib qoldiring. Kasr sonlarda o'zgarish hosil bo'ldimi?

Kasr sonlarni yirik ulushlarda ifodalash uchun o'nli ulushlar oxiridagi nollarni tushirib qoldirish kerak.

Masalan: $0,500 = 0,50 = 0,5$.

195. Kasrlarni yirikroq ulushlarda ifodalang:

0,400; 28,70; 3,700; 2,010; 0,60; 0,720; 0,020.

Qisqartirishdan so'ng o'nli kasrlarda o'zgarish hosil bo'ldimi? Kasrlarning maxrajini ayting.

196. Kasrlarni o'nli ulushlarda ifodalang:

5,60; 0,10; 3,2; 8,900; 3,50; 1,700; 10,30; 1,400.

197. Kasrlarni yirikroq ulushlarda ifodalang:

0,20; 10,200; 0,020; 0,0200; 3,020; 35,210.

198. Kasrlarni yirikroq ulushlarda ifodalang:

3,5; 1,3; 16,18; 20,3; 94,53; 23,07; 18,7; 25,07.

199. Har bir ustundagi o'nli kasrlarni bir xil ulushlarda ifodalang:

3,5	502,3	1,20	64,01
25,13	17,003	32,500	0,602
6,08	6,72	17,08	14,030
0,164	0,8	9,4	143,7

200. Kasrlarni o'qing. Ular orasida bir-biriga tenglari bormi?

Ularni ajratib yozing va solishtiring:

7,03; 9,1; 7,003; 6,8; 8,120; 6,800; 7,13; 7,30; 9,100; 6,003; 7,130; 9,01; 8,12; 7,013; 7,3.

- 201.** Kasrlarni o'nli, yuzli, mingli ulushlarda ifodalang:
- a) 6,30; 8,40; 0,300; 9,700; 10,80; 203,700 larni o'nli ulushlarda;
- b) 15,5; 0,6; 12,320; 4,060; 6,070; 7,400 larni yuzli ulushlarda;
- d) 0,9; 3,07; 3,07; 15,16; 9,4; 0,71 larni minglik ulushlarda ifodalang.

KASR SONLARNI TAQQOSLASH

- 202.** Eng katta kasrdan boshlab, kasrlarni ketma-ketlikda ko'chirib yozing:

12,06; 0,22; 0,34; 14,826; 1,395; 10,6; 0,2; 0,01.

- 203.** Eng kichik kasrdan boshlab, kasrlarni ketma-ketlikda ko'chirib yozing:

13,004; 1,896; 1,005; 10,05; 3,7; 4,95; 0,09; 2,386; 0,1.

- 204.** O'nli kasrlar qanday taqqoslanadi, eslang? $>$, $<$, $=$ ishoralaridan mosini qo'ying, taqqoslang:

1) 3,78 ... 4,3	18,736 ... 20,145	2,148 ... 12,148
2) 12,46 ... 12,32	5,106 ... 5,401	8,50 ... 8,05
3) 6,7 ... 6,75	12,32 ... 12,321	0,8 ... 0,715

- 205.** Kasr sonlarni taqqoslang, $>$, $<$, $=$ ishoralaridan mosini qo'ying:

1) 4,015 ... 4,045	15,01 ... 15,001	3,3 ... 3,300
3,50 ... 3,5	7,08 ... 7,080	0,2 ... 0,020
9,87 ... 9,8	11,9 ... 11,09	15,007 ... 15,7
2) 4,018 ... 6,018	32,03 ... 32,003	5,5 ... 5,500
3,40 ... 3,4	6,08 ... 6,080	0,7 ... 0,070
0,176 ... 1,76	17,9 ... 17,09	13,006 ... 13,600

O'LCHASH NATIJASIDA HOSIL BO'LGAN SONLARNI O'NLI KASRLARDA IFODALASH

206. Kattaliklarni o'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarni ayting. Massa, uzunlik, narx o'lchov birliklari o'rtasidagi munosabatni eslang.

1) 1 dm metrning qanday qismini tashkil etishini eslang. (1 dm=0,1 m); 1 sm, 1 mm-chi?

2) 1 kg tonnaning qanday qismini tashkil etishini eslang. (1 kg=0,001 t); 1 sr-chi?



Yodda tuting!

$1 \text{ sm} = 10 \text{ mm}$

$1 \text{ mm} = 0,1 \text{ sm}$

$1 \text{ t} = 10 \text{ sr}$

$1 \text{ sr} = 0,1 \text{ t}$

207. O'lchashda hosil bo'lgan sonlarni o'nli kasrlarda ifodalang:

$3 \text{ mm} =$

$1 \text{ sm} 2 \text{ mm} =$

$6 \text{ sr} =$

$2 \text{ t} 7 \text{ sr} =$

$7 \text{ mm} =$

$3 \text{ sm} 4 \text{ mm} =$

$2 \text{ sr} =$

$15 \text{ m} 3 \text{ sm} =$

$9 \text{ mm} =$

$8 \text{ sm} 5 \text{ mm} =$

$5 \text{ sr} =$

$26 \text{ m} 8 \text{ mm} =$



Yodda tuting!

$1 \text{ m} = 100 \text{ sm}$

$1 \text{ sm} = 0,01 \text{ m}$

$1 \text{ sr} = 100 \text{ kg}$

$1 \text{ kg} = 0,01 \text{ sr}$

208. Kattaliklarni o'nli kasrlarda ifodalang.

$4 \text{ sm} =$

$1 \text{ m} 6 \text{ sm} =$

$1 \text{ s} 52 \text{ kg} =$

$5 \text{ m} 18 \text{ sm} =$

$8 \text{ sr} =$

$3 \text{ sr} 8 \text{ kg} =$

$16 \text{ sr} 7 \text{ kg} =$

$78 \text{ sm} =$

$15 \text{ sm} =$

$4 \text{ m} 25 \text{ sm} =$

$27 \text{ sm} =$

$12 \text{ m} 5 \text{ sm} =$

209. 1 m kilometrning qanday qismini tashkil etadi? 1 gramm kilogrammning qanday qismini tashkil etadi?



Yodda tuting!

$1 \text{ m} = 0,001 \text{ km}$

$1 \text{ kg} = 0,001 \text{ t}$

$1 \text{ mm} = 0,001 \text{ m}$

$1 \text{ g} = 0,001 \text{ kg}$

210. Sonlarni o'nli kasr shaklida yozing:

$3\text{m } 6\text{dm} = \quad 60 \text{ m } 7 \text{ sm} = \quad 6\text{kg } 5\text{g} = \quad 8\text{sm} =$

$15\text{km } 75\text{m} = \quad 12 \text{ t } 123 \text{ kg} = \quad 17\text{m } 123\text{mm} = \quad 9\text{kg} =$

$20\text{m } 17\text{sm} = \quad 17 \text{ t } 3 \text{ sr} = \quad 600\text{g} = \quad 5\text{m} =$

211. O'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarni o'nli kasrlarda ifodalang:

$6 \text{ m} = \dots \text{ km}$	$7 \text{ mm} = \dots \text{ m}$	$128 \text{ g} = \dots \text{ kg}$
$1 \text{ km } 3 \text{ m} = \dots \text{ km}$	$12 \text{ mm} = \dots \text{ m}$	$1 \text{ kg } 7 \text{ g} = \dots \text{ kg}$
$19 \text{ m} = \dots \text{ km}$	$1\text{m } 8 \text{ mm} = \dots \text{ m}$	$15 \text{ kg } 12 \text{ g} = \dots \text{ kg}$
$127 \text{ m} = \dots \text{ km}$	$3\text{m } 127 \text{ mm} = \dots \text{ m}$	$60 \text{ g} = \dots \text{ kg}$
$5 \text{ km } 28 \text{ m} = \dots \text{ km}$	$560 \text{ mm} = \dots \text{ m}$	$9 \text{ kg } 150 \text{ g} = \dots \text{ kg}$

212. Sonlarni yirik o'lchov birligida, o'nli kasr shaklida yozing: namuna: $14 \text{ g} = 0,014 \text{ kg}$.

25 g	5 sm	3 mm	3012 m	127 m
603 g	103 sm	12 mm	5608 kg	62 kg
9 g	27 sm	7 sr	1120 kg	9 sr
2307 g	316 sm	25 sr	5006 m	72 sm

O'NLI KASRLARNI KATTALIKLARNI O'LCHASH NATIJASIDA HOSIL BO'LGAN SONLAR SHAKLIDA YOZISH

213. 1) Metrning o'ndan bir bo'lagi nimaga teng ekanligini yozing. ($0,1 \text{ m} = 1 \text{ dm}$)

Santimetrning o'ndan bir bo'lagi ... **$0,1 \text{ sm} = 1 \text{ mm}$**

Tonnaning o'ndan bir bo'lagi ... **$0,1 \text{ t} = 1 \text{ sr}$**

2) Namuna asosida o'nli kasrlarni butun sonlarga aylantiring:

$$4,7 \text{ m} = 4 \text{ m } 7 \text{ dm}$$

$$0,2 \text{ sm} = 2 \text{ mm}$$

$$\begin{array}{llll} 0,8 \text{ m} = & 1,3 \text{ m} = & 6,8 \text{ sm} = & 20,3 \text{ m} = \\ 0,3 \text{ m} = & 7,8 \text{ m} = & 0,9 \text{ sm} = & 56,7 \text{ sm} = \end{array}$$

214. 1) Sentnerning yuzdan bir bo'lagi ... $0,01 \text{ sr} = 1 \text{ kg}$

So'mning yuzdan bir bo'lagi ... $0,01 \text{ so'm} = 1 \text{ tiyin}$

Metrlning yuzdan bir bo'lagi ... $0,01 \text{ m} = 1 \text{ sm}$

2) Namuna asosida o'nli kasrlarni butun sonlar shaklida yozing.

$$3,04 \text{ m} = 3 \text{ m } 4 \text{ sm}$$

$$0,56 \text{ so'm} = 56 \text{ tiyin}$$

$$\begin{array}{llll} 0,08 \text{ m} = & 0,09 \text{ sr} = & 15,23 \text{ so'm} = & 3,2 \text{ m} = \\ 0,15 \text{ m} = & 3,21 \text{ sr} = & 0,07 \text{ so'm} = & 6,7 \text{ sr} = \\ 13,67 \text{ m} = & 4,07 \text{ sr} = & 9,24 \text{ so'm} = & 0,4 \text{ m} = \end{array}$$

215. 1) Metrlning mingdan bir bo'lagi ... $0,001 \text{ m} = 1 \text{ mm}$

Kilometrning mingdan bir bo'lagi ... $0,001 \text{ km} = 1 \text{ m}$

Kilogrammning mingdan bir bo'lagi ... $0,001 \text{ kg} = 1 \text{ g}$

Tonnaning mingdan bir bo'lagi ... $0,001 \text{ t} = 1 \text{ kg}$

2) Namuna asosida o'nli kasrlarni butun sonlar shaklida yozing:

$$2,156 \text{ kg} = 2 \text{ kg } 156 \text{ g}$$

$$0,043 \text{ m} = 43 \text{ mm}$$

$$\begin{array}{llll} 3,217 \text{ t} & 8,007 \text{ km} & 10,5 \text{ kg} & 6,123 \text{ t} \\ 0,015 \text{ t} & 3,126 \text{ km} & 3,167 \text{ kg} & 7,4 \text{ t} \end{array}$$

2,006 t

0,2 km

14,08 kg

0,53 t

3,4 t

1,031 km

0,006 kg

2,042 t


216. O'nli kasrlarni kattaliklarni o'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlar shaklida yozing:



Yangi tug'ilgan chaqaloqning o'rtacha bo'yi – 0,55 m



Odamning o'rtacha bo'yi – 1,64 m



Jirafaning bo'yi – 5,8 m



Qo'ng'ir ayiqning massasi – 0,75 t

Qo'ng'ir ayiqning bo'yi – 2,5 m

Morjning massasi – 1,8 t



Tuyaqushning massasi – 0,09 t

217. Quyidagi o'lchamlarda 3 ta kesma chizing:
 1) 1,2 dm; 2) 7,6 sm; 3) 0,11 m
 Kesma uzunliklarini butun sonlar bilan yozing.

218. O'nli kasrlarni kattaliklarni o'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlar shaklida yozing: **16,82 m = 16 m 82 sm**

16,82 m	500,3 t	15,306 km	0,3 sr
0,3 m	19,08 t	3,042 km	3,82 sr
7,07 m	0,721 t	0,8 km	16,07 sr
40,8 m	32,6 t	1,72 t	5,4 sr

219. O'nli kasrlar shaklida ifodalang: **5 kg 143 g = 5,143 kg**

5 kg 143 g	7 m 16 sm	80 t 163 kg	5 sm 6 mm
16 kg 2 g	15 m 2 sm	52 t 7 kg	1 t 2 sr
7 kg 52 g	43 m 25 sm	4 t 35 kg	7 sr
11 kg 240 g	78 sm	708 kg	9 mm

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. O'nli kasrlar qatoridan o'zaro teng bo'lgan kasrlarni yozing:

2,65; 0,07; 9,900; 0,070; 7,07; 2,650; 9,09; 0,70; 9,9.

2. Kasr sonlarni taqqoslang, >, <, = belgilaridan mosini qo'ying:

3,6 ... 3,253	7,08 ... 7,8	3,001 ... 3,1
12,82 ... 6,259	0,625 ... 0,7	10,1 ... 10,100

3. Sonlarni o'nli kasrlarda ifodalang:

1 sm 2 mm	232 g	7 t 6 kg	5 m
3 mm	4 g	8 km 750 m	173 mm
6 m 72 sm	5 kg 8 g	5 kg 35 g	2005 kg

4. O'qli kasrlarni kattaliklarda ifodalang:

8,23 m	0,002 kg	0,017 m	16,1 sm
15,4 kg	3,2 sm	4,106 kg	3,2 t
80,2 t	9,14 m	20,405 t	170,12 so'm

BUTUN VA KASR SONLARNI QO'SHISH, AYIRISH

220. Butun va kasr sonlarni qo'shish qoidasini eslang.

Amallarni bajaring:

$370+230+68$	$23\text{ m } 16\text{ sm}+17\text{ m } 84\text{ sm}$
$325+175+150$	$7\text{ kg } 250\text{ g}+14\text{ kg } 550\text{ g}$
$164+236+260$	$34\text{ t } 2\text{ sr}+7\text{ t } 9\text{ sr}$
$240+125+615$	$15\text{ sm } 6\text{ mm}+8\text{ sm } 7\text{ mm}$
$12,5+1,4$	$1,36\text{ m}+3,08\text{ m}$
$7,51+0,49$	$2,4\text{ sm}+1,6\text{ sm}$

Qo'shish amalida hosil bo'lgan sonlar nima deb ataladi?

221. Yig'indini toping:

$681+219$	$3,87+2,13$	$3,08\text{ m}+1,6\text{ m}$
$518+372$	$27,6+32,4$	$5,24\text{ sr}+0,52\text{ sr}$

222. Misollarni og'zaki yeching, javoblarni kalkulatorida tekshiring:

$143+29$	$420+180$	$23,9+4,2$
$247+39$	$634+206$	$54,9+36,1$
$182+18$	$813+107$	$2,79+0,21$

223. 1) Sonlarni ayiring. Misollar yechimini yakuniga yetkazing. Amalni qanday bajarganingizni tushuntiring:

$$\begin{array}{r} \text{a) } 1000 \\ - 572 \\ \hline \bullet\bullet 8 \end{array}$$

$$\text{b) } 80 \text{ m } 3 \text{ sm} - 42 \text{ m } 62 \text{ sm} =$$

$$\begin{array}{r} 8003 \text{ sm} \\ - 4262 \text{ sm} \\ \hline \bullet\bullet\bullet 1 \text{ sm} \end{array}$$

$$\text{d) } \begin{array}{r} 1,00 \\ - 0,75 \\ \hline \bullet\bullet 5 \end{array}$$

2) Misollarni yeching:

700-240	50 m-32 m 63 sm	1-0,32
800-699	18 km 340 m-9 km 165 m	3-0,145
740-350	20 kg 630 g-13 kg 427 g	2,65-1,14
900-109	15 sm 8 mm-6 sm 9 mm	4,08-3,126

Ayirish amalida hosil bo'lgan son nima deb ataladi?

224. Misollarni yeching. Javoblarni kalkulatorida tekshiring:

1) 1600-800	3800-2900	15 m 8 sm-6 m 29 sm
2400-900	7600-5700	3 kg 7 g-2 kg 126 g
3100-600	9400-4800	13 t-9 t 720 kg
5800-700	6500-2300	40 m-20 m 37 sm

2) 8,3-2,6	20-3,7	7,5 t-3,7 t
5,4-0,8	18-0,25	16,3 sm-9,8 sm
9,1-5,7	63-54,183	20,7 t-0,9 t
10,5-7,8	2-0,34	40 m-6,13 m

225. Misollarni yeching, so'ng qo'shiluvchilar o'rnini almashtirib yana qaytadan yig'indini toping. Yig'indida o'zgarish bo'ldimi?

1) 300+3700	7400+1600	5400+3800
600+25200	4800+10200	200+30800

$2) 3,75 + 2,3$

$40 + 3,160$

$11,3 + 9,73$

$7,8 + 3,21$

$18,3 + 45$

$0,65 + 19,7$

226. Sonlarni taqqoslang va $>$, $<$, $=$ belgilaridan mosini qo'ying:

$12,4 \dots 8,67$

$6 \text{ m} \dots 600 \text{ sm}$

$1 \text{ soat } 15 \text{ min} \dots 45 \text{ min}$

$0,32 \dots 1,32$

$3 \text{ kg} \dots 250 \text{ g}$

$60 \text{ s} \dots 1 \text{ min}$

$5,08 \dots 5,008$

$4 \text{ sm } 2 \text{ mm} \dots 30 \text{ mm}$

$25 \text{ soat} \dots 1 \text{ sutka}$

$4,378 \dots 4,8$

$6 \text{ t } 2 \text{ kg} \dots 5000 \text{ kg}$

$30 \text{ min} \dots 3 \text{ soat}$

227. Misollarni ko'rsatilgandek yozing va yeching:

$$\begin{array}{r} + 9,2 \\ 31,8 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 16,74 \\ 0,56 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 8,103 \\ 14,528 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 116,384 \\ 0,63 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 14,78 \\ 6,4 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 8,92 \\ 0,75 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 36,400 \\ 17,243 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 4,25 \\ 0,6 \\ \hline \end{array}$$

228. Misollardagi sonlar bir-biridan qanchaga ortiq yoki kamligini aniqlang:

$24500 > 18000$

$16,3 < 17,4$

$16 \text{ kg } 200 \text{ g} > 9 \text{ kg } 140 \text{ g}$

$32000 < 56000$

$20,1 > 8,6$

$0,8 \text{ mm} < 2,3 \text{ sm}$

$80000 > 54000$

$35,7 < 50$

$10,32 \text{ m} > 3,5 \text{ m}$

229. Bayramga atab gulxonada 4800 tup turli xil gul ko'chatlari ekildi. Undan 4230 tupi sotildi. Gulxonada necha tup gul ko'chati qoldi?

230. Toshkent shahridan Nukus shahrigacha bo'lgan masofa 1255 km. Poyezd 243 km yo'l bosgan bo'lsa, yana qancha yo'l yurishi kerak?

231. Bir o'ramdagi simdan 2,45 m sim qirqib olindi va o'ramda 17,55 m sim qoldi. O'ramda necha metr sim bo'lgan?

232. Amallarni bajaring:

$$7,5 + 49,8$$

$$18,96 + 0,77$$

$$5,609 + 14,701$$

$$84,3 + 115,968$$

$$75,91 + 12,834$$

$$2,095 + 138,67$$

$$84,7 + 13,25$$

$$90,35 + 8,754$$

$$0,264 + 0,08$$

$$136,3 + 14,75$$

$$1,085 + 0,9$$

$$100,3 + 24,74$$

233. Masala tuzing va uni yeching:

a) Bor edi – ? m



I kun – 13,72 m

II kun – 18,28 m

Qoldi – 3,7 m

b)  – 2,75 m

 – 1,25 m ko'p



?

234. Birinchi xo'jalikdan 195,7 t, ikkinchi xo'jalikdan esa 72,8 t ortiq kartoshka yig'ib olindi. Har ikki xo'jalikdan necha tonna kartoshka yig'ib olindi?

235. Yig'indini toping:

$5,2 + 11,4$	$6,07 + 12,81$	$0,694 + 12,06$
$7,4 + 8,05$	$5,391 + 0,02$	$248,6 + 0,187$
$9,49 + 4,7$	$8,35 + 6,125$	$6,76 + 200,89$

236. Ayirmani toping:

$5,91 - 0,11$	$7,48 - 3,84$	$5,04 - 3,3$
$9,73 - 8,35$	$0,98 - 0,89$	$11,07 - 8$
$8,07 - 1,2$	$3,45 - 1,37$	$7,43 - 3,5$
$2,21 - 0,01$	$4,39 - 2,8$	$9 - 5,6$

237. 96,88 ga yer maydoniga makkajo'xori doni ekilishi kerak edi. Shundan 73,5 ga yerga makkajo'xori doni ekildi. Yana necha gektar yerga makkajo'xori doni ekilishi kerak?

238. Misollarni yeching:

$8,376 - 0,456$	$214 - 19,53$	$34,73 - 20,605$
$672,03 - 5,398$	$0,429 - 0,384$	$57,47 - 29,74$
$7,234 - 6,748$	$68,095 - 17,567$	$32 - 8,7$

239. Amallarning bajarish tartibiga ko'ra misollarni yeching:

$73,12 - (5,34 + 13,12)$	$101,3 + (84,7 + 1,11)$
$(47,28 - 34,98) + 5,76$	$(468,3 + 15,77) - 16,93$

240. Misollarni yeching:

$8,62 + 3,25$	$6,34 - 2,29$	$0,78 + 0,33$
$4,61 + 23,8$	$101,7 - 97,68$	$0,64 + 0,36$
$78,8 + 64,9$	$7,91 - 5,619$	$0,72 + 0,28$

241. 7-sinf o'quvchilari 208,9 kg, 8-sinf o'quvchilari esa 75,5 kg ko'p olma terishdi. Ikkala sinf o'quvchilari birgalikda necha kilogramm olma terishgan?

242. Ikki maydondan kartoshka hosili yig'ib olindi. Birinchi maydondan 195,7 t, ikkinchisidan esa unga qaraganda 72,8 t ko'p kartoshka yig'ildi. Ikkala maydondan necha tonna kartoshka yig'ib olingan?

243. Yig'indini toping:

$1,603 + 0,387$	$0,071 + 1,003$	$0,502 + 0,04$
$6,06 + 0,105$	$3,023 + 0,577$	$0,074 + 8,224$
$0,009 + 0,991$	$0,908 + 7,082$	$0,021 + 0,705$
$5,5005 + 1,99$	$1,104 + 0,899$	$9,808 + 2,012$

244.

$5,2 + 11,4$	$6,07 + 12,81$	$0,694 + 12,06$
$7,4 + 8,05$	$5,391 + 0,02$	$248,6 + 0,187$
$9,49 + 4,7$	$8,35 + 6,125$	$6,76 + 200,89$

245. Bir ekin maydonidan 95,37 t, ikkinchisidan unga qaraganda 16,8 tonna ortiq don yig'ib olindi. Ikkala ekin maydonidan necha tonna don yig'ib olingan?

246. Misollarni yeching:

$8,376 - 0,456$	$214 - 19,53$	$34,73 - 20,605$
$672,03 - 5,398$	$0,429 - 0,384$	$57,47 - 29,74$
$7,234 - 6,748$	$68,095 - 17,567$	$32 - 8,7$

247. Bir oshqovoqning massasi 6,4 kg, ikkinchisidiki 5,28 kg. Ikkala oshqovoqning massasi qancha?

248. Sabzavot do'konida 4,75 t kartoshka bor edi. Kun davomida do'kon 3,45 t kartoshka sotdi. Kechga yaqin do'konga yana 2,9 t kartoshka keltirildi. Do'konda necha tonna kartoshka bo'ldi?

249. Bir qop un 49,5 kg, bir qop shakar 47,85 kg. Bir qop un bir qop shakardan necha kilogramm og'ir?

250. Ayirmani toping va tekshiring:

$9,87 - 7,72$	$5,688 - 3,38$	$1 - 0,5$
$88,15 - 16,29$	$19,36 - 5,16$	$1 - 0,29$
$27,38 - 19,23$	$37,232 - 18,132$	$1 - 0,37$
$84,435 - 15,123$	$54,95 - 27,76$	$1 - 0,63$

251. Bir o'ram simdan 47,5 m qirqib olindi. Agar o'ramda avval 60 m sim bo'lgan bo'lsa, qirqib olingandan keyin unda qancha sim qoldi?

252. Misollar tuzing va ularni yeching:

1) 7,8 va 14,86 sonlari yig'indisiga 23,4 va 9,496 sonlari ayirmasini qo'shing.

2) 27,025 va 35,805 sonlari yig'indisidan 15,8 va 0,976 sonlari ayirmasini ayiring.

3) 9,086, 5,9 va 17,85 sonlari yig'indisini 21,929 taga kamaytiring.

4) 152 va 63,78 sonlari ayirmasini 6,59 taga orttiring.

253. Yig'indini toping:

$90,086 + 5,9 + 165,75$	$0,3 + 114,54 + 75,096$
$200,14 + 139,008 + 12,37$	$1408,5 + 705,68 + 0,379$


254. Ayirmani toping:

$204,695 - 179,37$	$307 - 175,8$	$208,75 - 59,4$
$400,87 - 36,57$	$500,38 - 57,69$	$27,43 - 18,3$
$317,3 - 98,35$	$42 - 13,39$	$53,3 - 27,14$
$275,154 - 86,12$	$31,175 - 15$	$41,1 - 25,22$

- 255.** Agar kamayuvchi 1000, ayriluvchilar: 87,2; 23,35; 98,09; 16,44; 235,06; 64,945; 178,037; 326,08; 119,006 bo'lsa, ayirmalarni toping.
- 256.** Sayyohlar uch kun yo'lda bo'lishdi. Birinchi kuni ular piyoda 18,6 km yurishdi. Ikkinchi kuni poyezdda 280,75 km yo'l bosishdi. Uchinchi kuni avtobusda 54,4 km yurishdi. Sayyohlar uch kunda qancha yo'l bosishgan?
- 257.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi dalaning bo'yi 72,6 m, eni undan 39,55 m qisqa. Uning perimetrini hisoblang.
- 258.** Tog'dan 20,4 kg na'matak va 12,75 kg dorivor o'simliklar terilib, dorixonalarga topshirildi. Dorivor o'simliklardan necha kilogramm ortiq na'matak terilgan?
- 259.** Misollarni yeching va ayirmalarni taqqoslang. $>$, $<$, $=$ ishoralaridan mosini qo'ying:
- | | | |
|---------------|----|-----------------|
| 28,78 – 9,61 | va | 125,37 – 92,34 |
| 45,93 – 17,7 | va | 194,275 – 99,17 |
| 69,56 – 26,03 | va | 500,73 – 64,7 |
- 260.** 1) Sonlarning yig'indisini toping:
596,8 va 96,457 6,743 va 0,9
- 2) Sonlarning ayirmasini toping:
632,7 va 59,74 179,8 va 169,9
- 3) 254,87 va 39,056 sonlari yig'indisini 169,75 ta kamaytiring.
- 4) 345,73 va 196,03 sonlar ayirmasini 70,09 ta orttiring.

261. 1) Ikkita o'nli kasr yozing va ular yig'indisini toping.
 2) Ikkita o'nli kasr yozing va ular ayirmasini toping.
 Qo'shishdagi sonlar va ayirishdagi sonlar nima deb ataladi?

262. Juftlikda ko'rsatilgan sonlar yig'indisi va ayirmasini toping. Amallarni misollar shaklida yeching:



263. Yirikroq o'lchov birliklarida ifodalang va o'nli kasr shaklida yozing:

tonnada

1 525 kg

2 403 kg

3 012 kg

8 007 kg

metrda

312 sm

1 560 sm

3 108 sm

620 sm

kilometrda

1 200 m

32 563 m

40 108 m

150 900 m

264. O'lchashda hosil bo'lgan sonlarni o'nli kasrlar bilan ifodalang va misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} + 17 \text{ kg } 900 \text{ g} \\ + 9 \text{ kg } 455 \text{ g} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 23 \text{ km } 80 \text{ m} \\ - 19 \text{ km } 125 \text{ m} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 79 \text{ kg } 50 \text{ g} \\ + 80 \text{ kg } 9 \text{ g} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 84 \text{ t } 70 \text{ kg} \\ - 28 \text{ t } 4 \text{ kg} \\ \hline \end{array}$$

265. Avtomobil ikki kunda 320 km yo'l bosdi. U birinchi kuni 175,25 km, ikkinchi kuni qolgan yo'lni bosib o'tdi. Avtomobil qaysi kuni ko'proq yo'l bosdi va qanchaga ortiq yo'l bosdi?

266. Qisqa shart asosida masala tuzing va uni yeching.

Hammasi bo'lib 100 ga bug'doyzor:

I kun – 27,3 ga
 II kun – 6,7 ga ko'p
 III kun – 15,125 ga kam
 IV kun – ?



267. Misollar tuzing va ularni yeching, natijalarni tekshiring:

Kamayuvchi	11,7	123,2	14,001	100,012
Ayiriluvchi	9,32	91,975	4,023	93,904

268. Misollarni yeching:

$$1\,407,7 - (927,93 - 105,18)$$

$$5\,073,2 - 729,78 - 1\,407,204$$

$$807 - 47,80 - 29,32$$

$$700 - 390,74 - 99,7$$

$$275,08 - (19,75 + 9,05)$$

$$160 - (54,2 + 69,71)$$

$$49,05 + 0,95 + 18,74$$

$$1 - (0,71 + 0,18)$$

269. Hisoblang:

$$\begin{array}{r} 14 \text{ sr } 8 \text{ kg} \\ + 153 \text{ sr } 20 \text{ kg} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 90 \text{ km } 19 \text{ m} \\ - 18 \text{ km } 600 \text{ m} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 19 \text{ sm } 8 \text{ mm} \\ - 8 \text{ sm } 7 \text{ mm} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 84 \text{ t } 2 \text{ sr} \\ - 19 \text{ t } 4 \text{ sr} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 75 \text{ m } 40 \text{ sm} \\ - 52 \text{ m } 60 \text{ sm} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 75 \text{ sm} \\ + 4 \text{ m } 28 \text{ sm} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 100 \text{ kg } 200 \text{ g} \\ - 74 \text{ kg } 50 \text{ g} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 300 \text{ kg } 80 \text{ g} \\ - 60 \text{ kg } 120 \text{ g} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 3 \text{ kg } 85 \text{ g} \\ + 47 \text{ kg } 80 \text{ g} \\ \hline \end{array}$$

270. O'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarni o'nli kasrlarga aylantiring, mos ishoralarni qo'yib, misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} 30 \text{ kg } 180 \text{ g} \\ \underline{2 \text{ kg } 237 \text{ g}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 50 \text{ sr } 75 \text{ kg} \\ \underline{138 \text{ sr } 40 \text{ kg}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 275 \text{ m } 360 \text{ kg} \\ \underline{80 \text{ m } 90 \text{ kg}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 3 \text{ m } 80 \text{ sm} \\ \underline{53 \text{ m } 64 \text{ sm}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 25 \text{ sm} \\ \underline{5 \text{ m } 80 \text{ sm}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 15 \text{ kg } 420 \text{ g} \\ \underline{870 \text{ g}} \end{array}$$

271. O'nli kasrlarni o'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarda ifodalang, mos ishoralarni qo'yib misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} 6,79 \text{ so'm} \\ \underline{57,08 \text{ so'm}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 9,80 \text{ m} \\ \underline{0,08 \text{ m}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 2,358 \text{ kg} \\ \underline{18,603 \text{ kg}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 23,415 \text{ t} \\ \underline{8,07 \text{ t}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 0,01 \text{ sr} \\ \underline{16,8 \text{ sr}} \end{array}$$


$$\begin{array}{r} 23,007 \text{ km} \\ \underline{10,86 \text{ km}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 3,146 \text{ m} \\ \underline{6,008 \text{ m}} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 140,35 \text{ so'm} \\ \underline{90,09 \text{ so'm}} \end{array}$$

272. Maktab yer uchastkasidan sabzavotchilik ishlarini yuritish uchun joy ajratildi. 250,75 kv m yerga kartoshka, undan 50,85 kv m kam yerga karam, qolgan 127,125 kv m yerga esa har xil sabzavotlar ekildi. Sabzavotchilik ekinlari uchun ajratilgan yer maydonini hisoblang.

273. Masala tuzing va uni yeching:



274. O'ni kasrlarga almashtiring va misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} 419 \text{ t } 70 \text{ kg} \\ - 219 \text{ t } 14 \text{ kg} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 3 \text{ kg } 85 \text{ g} \\ + 47 \text{ kg } 80 \text{ g} \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 170 \text{ m } 87 \text{ sm} \\ - 153 \text{ m } 9 \text{ sm} \\ \hline \end{array}$$

275. Amallarni bajaring, javoblarni taqqoslang, $>$, $<$, $=$ ishoralaridan mosini qo'ying:

$$69,74 + 24,04 \quad . . . \quad 37,005 - 8,9$$

$$2,686 + 13,97 \quad . . . \quad 52,64 - 6,305$$

$$23,014 + 127,998 \quad . . . \quad 800,7 - 26,99$$

$$275,6 + 30,78 \quad . . . \quad 400 - 312,8$$

276. Misollarni yeching:

$$1 - 0,975 + 0,4$$

$$2 - 1,375 + 0,7$$

$$360,75 - 276 + 0,4$$

$$290,4 - 163 + 19,76$$

$$1 - (0,428 + 0,39)$$

$$7 - (1,497 + 3,07)$$

$$294 - (146 + 16,6)$$

$$157 - (45,14 + 8,08)$$

277. Amallarni bajaring:

$$37,137 + 4,37$$

$$35,6 + 127,37$$

$$207,09 - 75,63$$

$$400,15 - 28,48$$

$$87,64 + 128,9$$

$$327 - 288,6$$

$$25,6 + 396,705$$

$$1000 - 326,14$$

278. 1) Ikki son yig'indisi 12,4. Qo'shiluvchilardan biri 3,49. Ikkinchi qo'shiluvchi nimaga teng?

2) Ikki son ayirmasi 25,65. Kamayuvchi 80,3. Ayiriluvchi nimaga teng?

Misollar tuzing va ularni yeching:

1)

300, 4 va 127, 527 sonlar ayirmasini
--

 \rightarrow

0,99	15,075	189,14
------	--------	--------

 ga orttiring

2) $27,025$ va $35,805$ sonlar yig'indisini $15,8$ $0,975$ 62 ga kamaytiring.

279. $500,6$; $78,724$; $179,402$ sonlaridan qo'shish va ayirishga doir ikkitadan misol tuzing.

280. O'nli kasrlarda ifodalang va ular ayirmasini toping:

- 109 kg 25 g va 95 kg 240 g
- 400 km 600 m va 347 km 90 m
- 320 t 600 kg va 118 t 60 kg
- 900 m va 500 m 8 sm
- 150 m 70 sm va 95 m 7 sm
- 30 sr 50 kg va 90 kg

281. Zavod 500 t ko'mir olishi kerak edi. U birinchi kun $276,5$ t, ikkinchi kuni esa undan $95,75$ t kam ko'mir oldi. Zavod yana necha tonna ko'mir olishi kerak?

282. Misollarni yeching:

- 1) $60\text{ kg } 270\text{ g} - 8\text{ kg } 315\text{ g} + 12\text{ kg } 27\text{ g}$
- $45\text{ sm } 8\text{ mm} - 6\text{ sm } 3\text{ mm} - 10\text{ sm } 9\text{ mm}$
- $15\text{ m } 25\text{ sm} + 38\text{ m} - 27\text{ m } 63\text{ sm}$

- 2) $410,25\text{ kg} - 209,185\text{ kg}$ $750,15\text{ m} - 186,9\text{ m}$
- $160,4\text{ t} - 84,250\text{ t}$ $300,2\text{ km} - 150,12\text{ km}$
- $16,2\text{ t} - 8,9\text{ t}$ $283,7\text{ sr} - 91,18\text{ sr}$

283. O'nli kasrlarda ifodalab, misollarni yeching:

- $16\text{ t } 518\text{ kg} + 3\text{ t } 482\text{ kg} - 8\text{ t } 428\text{ kg}$
- $28\text{ m } 70\text{ sm} - 16\text{ m } 8\text{ sm} + 11\text{ m } 90\text{ sm}$
- $19\text{ kg } 680\text{ g} - 12\text{ kg } 950\text{ g} + 4\text{ kg } 860\text{ g}$

284. Non zavodi do'konlarga 120, 450 t non tarqatdi. Ertalab 40,850 t, kunduzi undan 21,346 t kam non, kechqurun qolgan nonlar tarqatilgan bo'lsa, kechqurun tarqatilgan nonlar massasini toping.

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Kombaynchi uchta yer uchastkasidan 600,2 t don yig'ishtirib oldi. U birinchi yer uchastkasidan 293,4 t, ikkinchi yer uchastkasidan 95,67 t kam don yig'ishtirib oldi. Kombaynchi uchinchi yer uchastkasidan necha tonna don yig'ishtirib olgan?

2. Hisoblang:

$$49,07 + 8,923$$

$$12,01 - 6,785$$

$$120,65 - 72,008$$

$$1 + 0,987$$

3. Qisqa shart asosida masala tuzing va uni yeching:

Jun gazlama – 52,6 m

Shoyi gazlama – 12,45 m ko'p

Chit gazlama – 24,8 m ko'p



4. $12,31 + 14,9$

$$25,32 + 15,19$$

$$27,096 - 19,75$$

$$1 - 0,65$$

5. O'nli kasrlarda ifodalang va amallarni bajaring:

$$58 \text{ m } 60 \text{ sm} + 42 \text{ m } 70 \text{ sm}$$

$$100 \text{ kg } 90 \text{ g} - 70 \text{ kg } 240 \text{ g}$$

$$6 \text{ kg } 185 \text{ g} + 28 \text{ kg } 75 \text{ g}$$

$$16 \text{ t } 15 \text{ kg} + 89 \text{ t } 95 \text{ kg}$$

6. $75,76 \text{ m} + 29,8 \text{ m}$

$$146,08 \text{ kg} - 52,923 \text{ kg}$$

$$408,6 \text{ t} + 78,95 \text{ t}$$

$$400 \text{ km} - 183,045 \text{ km}$$

$$1000 \text{ m} - 0,546 \text{ m}$$

$$18,253 \text{ km} + 9,8 \text{ km}$$

O'NLI KASRLARNI BUTUN SONLARGA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

285. 1) O'nli kasrlarni bir xonali songa ko'paytirish qanday bajarilishini eslang. Misollarni yechish namunasini ko'rib, misollarni yeching:

Namuna:	$\begin{array}{r} 0,36 \\ \times 4 \\ \hline 1,44 \end{array}$	$\begin{array}{r} 15,36 \\ \times 3 \\ \hline 46,08 \end{array}$	$\begin{array}{r} 8,175 \\ \times 5 \\ \hline 40,875 \end{array}$
----------------	--	--	---

2) $0,8 \cdot 4$	$0,15 \cdot 6$	$6,253 \cdot 3$
$2,5 \cdot 4$	$1,24 \cdot 8$	$0,104 \cdot 5$
$0,8 \cdot 2$	$10,06 \cdot 7$	$2,314 \cdot 6$
$9,4 \cdot 4$	$5,15 \cdot 4$	$14,083 \cdot 7$

286. Sonlarni ko'paytiring:

$7,18 \cdot 6$	$3,08 \text{ sr} \cdot 5$	$0,92 \text{ sr} \cdot 8$
$9,25 \cdot 3$	$7,43 \text{ s} \cdot 4$	$5,28 \text{ m} \cdot 6$
$6,23 \cdot 4$	$8,06 \text{ t} \cdot 6$	$16,415 \text{ kg} \cdot 5$
$24,048 \cdot 2$	$15,45 \text{ m} \cdot 3$	$9,008 \text{ t} \cdot 7$

287. Ko'paytirishni bajaring:

$1,83 \cdot 8$	$14,5 \cdot 6$	$3,25 \cdot 8$
$4,078 \cdot 4$	$1,47 \cdot 7$	$10,64 \cdot 9$
$12,12 \cdot 9$	$0,904 \cdot 8$	$0,85 \cdot 6$
$24,5 \cdot 8$	$0,703 \cdot 7$	$45,61 \cdot 4$

288. Bir kilogramm olma so'm turadi. 0,5 kg, 1,5 kg, 3,25 kg, 4,75 kg olma uchun necha so'm to'langan?

289. Yuk avtomobili va yengil avtomobil ikki shahardan bir vaqtda bir-biriga tomon yo'lga chiqdi. Yengil avtomobilning tezligi soatiga 54,6 km, yuk avtomobilining tezligi soatiga 42,2 km. Agar 3 soatdan keyin ular uchrashsalar, bu ikki shahar orasidagi masofani toping.

290. 1) O'nli kasrlarni butun sonlarga bo'lish qanday bajarilishini eslang. Bo'lish namunalari ko'ring:

$$1,62 : 9 = 0,18$$

$$\begin{array}{r|l} 1,62 & 9 \\ \hline -16 & 0,18 \\ \hline 9 & \\ \hline -72 & \\ \hline 72 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

$$4 : 16 = 0,25$$

$$\begin{array}{r|l} 4 & 16 \\ \hline -40 & 0,25 \\ \hline 32 & \\ \hline -80 & \\ \hline 80 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

2) Bo'lishni bajaring:

$$16,28 : 4$$

$$8,7 : 3$$

$$7,26 : 6$$

$$75,85 : 5$$

$$60,5 : 5$$

$$202,8 : 4$$

$$0,16 : 4$$

$$0,12 : 6$$

$$51,6 : 3$$

$$30,15 : 9$$

$$4,44 : 6$$

$$86,4 : 9$$

291. Amallarni bajaring:

$$2,76 \text{ km} : 2$$

$$9,63 \text{ m} : 3$$

$$65,4 \text{ kg} : 5$$

$$72,84 \text{ t} : 6$$

$$384,3 \text{ km} : 3$$



$$1702,2 \text{ t} : 3$$

$$339,92 \text{ m} : 4$$

$$24,078 \text{ kg} : 6$$

292. Bir dona choyshab tikish uchun 2,15 m mato zarur. 8 ta shunday choyshab tikish uchun qancha mato kerak bo'ladi?

293. O'nli kasrlarni 10, 100, 1000 ga ko'paytirish qoidasini eslang. Quyidagi misollarda vergul o'ng tomonga necha xona birligiga suriladi?



294. Har bir sonni 1000 ga ko'paytiring:

0,275; 16,342; 8,12; 6,3; 18,09; 126,32; 1,2



Yodda tuting! O'nli kasr yozuvidagi vergulning o'rnini nihoyatda muhim. Vergulning o'rnini o'zgartirish kasrning qiymatini o'zgartirib yuboradi.

O'nli kasrni 10 marta, 100 marta, 1000 marta orttirish uchun, ya'ni 10 ga, 100 ga, 1000 ga ko'paytirish uchun o'nli kasrdagi vergulni ko'paytuvchidagi nollar soni nechta bo'lsa, o'ngga shuncha xona birligida surish kerak.

295. Amallarni bajaring. Misollarning o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini ko'rsating:

$37 \cdot 10$	$3,7 \cdot 10$	$3 \text{ m } 70 \text{ sm} \cdot 10$
$78 \cdot 100$	$0,78 \cdot 100$	$7 \text{ kg } 8 \text{ g} \cdot 100$
$275 \cdot 1000$	$2,75 \cdot 1000$	$3 \text{ km } 156 \text{ m} \cdot 1000$

296. Bitta dala sichqoni bir yoz mavsumida 0,99 kg donni yeb ketadi, bitta boyqush esa bir yoz mavsumida 1000 ta sichqonni yeydi. 10 ta boyqush yoz davomida qancha donni saqlab qoladi?

- 297.** 1) Kasrlarning har birini 10 ga ko'paytiring:
 1,7 0,2 7,13 15,08 8 115,4 4,807
- 2) Kasrlarning har birini 10 marta orttiring:
 0,4 7,015 181,3 140,07 0,05 200,45
- 298.** 1) Kasrlarning har birini 100 ga ko'paytiring:
 4,07 18,05 0,04 7,315 15,607 3,5 0,1
- 2) Kasrlarning har birini 100 marta orttiring:
 1,18 203,6 3,27 0,18 196,75 302,706
- 299.** 1) Sonlarning har birini 1000 ga ko'paytiring:
 7,404 1,31 36,648 7,7 14,08 154,3
- 2) Kasrlarning har birini 1000 marta orttiring:
 0,325 4,111 539,1 15,178 200,76 75,55



300. Hisoblang:

$3,5 \cdot 10$	$2,7 \cdot 100$	$4,7 \cdot 1000$
$4,87 \cdot 10$	$14,15 \cdot 100$	$4,28 \cdot 1000$
$8,26 \cdot 10$	$17,218 \cdot 100$	$127 \cdot 1000$

301. Amallarni bajaring:

$79,69 \cdot 100 - 5767$	$2,24 \cdot 10$
$97,284 \cdot 100 - 7982,5$	$6,748 \cdot 100$
$4,5 \cdot 10 + 69,283$	$0,05 \cdot 1000$
$21,03 \cdot 10 + 24,5$	$0,09 \cdot 10$

302. O'nli kasrni 10, 100, 1000 ga bo'lish qoidasini eslang. Quyidagi misollarda vergul chap tomonga necha xona birligiga suriladi?





Yodda tuting! O'nli kasrni 10 ga, 100 ga, 1000 ga bo'lish uchun bu kasrdagi vergulni 1, 2, 3 raqam chapga surish kerak.

303. Har bir sonni 1000 ga bo'ling:

800; 324,1; 40,7; 28; 9.

304. Bo'linmani toping:

456,7 : 10

215,3 : 100

253,4 : 1000

79,65 : 10

90,7 : 100

60,8 : 1000

3,8 : 10

86 : 100

306 : 1000

0,9 : 10

9 : 100

8 : 1000

305. Bo'lishni bajaring:

8,14 : 10

2,5 : 100

56,17 : 1000

9,6 : 10

0,9 : 100

4543 : 1000

56 : 10

6,3 : 100

72,46 : 1000

306. Bo'ling:

496,7 : 10

17,5 : 10

6,7 : 10

0,3 : 10

496,7 : 100

17,5 : 100

6,7 : 100

0,3 : 100

496,7 : 1000

17,5 : 1000

6,7 : 1000

0,3 : 1000

307. 1) Bo'linuvchi 160,4, bo'luvchi 100. Bo'linmani toping.

2) Qaysi son 124 dan 10 marta, 100 marta, 1000 marta kam?

3) Qaysi son 354,6 dan 10 marta, 100 marta kichik?

308. 10 m jun gazlama 64,2 so'm turadi. 1 m shunday gazlama qancha turadi?

- 309.** Qaysi son 40 m 50 sm dan 10 marta katta? Qaysi son 40 m 50 sm dan 10 marta kichik?
- 310.** Daladan bug'doy tashiyotgan mashina 10 marta qatnab 25 t bug'doy tashidi. Har bir qatnovida mashinaga qancha don ortilgan?
- 311.** 1 kg «Lazzat» konfeti 4350 so'm turadi. 100 g shunday konfet necha so'm turadi?
- 312.** 1 kg sariyog' so'm turadi. 100 g sariyog' uchun qancha to'lash kerak? 200 g uchun-chi? 300 g uchun-chi?
- 313.** 1) Sonlarning o'ndan bir bo'lagini toping:
 184,75 80,9 7,65 0,36 0,3
- 2) Sonlarning yuzdan bir bo'lagini toping:
 1950,5 796,44 83,21 75,5 6,9 0,7
- 3) Sonlarning mingdan bir bo'lagini toping:
 798,6 697,5 845,5 497,7 2172,5 63,6
- 314.** Misollarni yeching, nuqtalar o'rniga $>$, $<$, $=$ ishoralaridan mosini qo'ying:
 3,4 10 ... 14,2:100 17,8:100 ... 0,9 10
 9,7 100 ... 0,97 10 0,07 1000 ... 8,9 10
 5,95 100 ... 951,4:10 1,08 10 ... 108:10
- 315.** Har bir sigirga kuniga o'rta hisobda 0,8 sr o't kerak bo'lsa, 10 ta, 100 ta sigirga necha sentner o't kerak bo'ladi?

316. O'lchashda hosil bo'lgan sonlarni o'nli kasrlarda ifodalang va amallarni bajaring:

$30 \text{ m } 60 \text{ sm} : 10$

$50 \text{ sr } 80 \text{ kg} : 10$

$500 \text{ kg } 200 \text{ g} : 100$

$28 \text{ kg } 700 \text{ g} : 100$

$840 \text{ t } 400 \text{ kg} : 10$

$300 \text{ t } 200 \text{ kg} : 100$

317. $496,7 : 10$

$17,5 : 10$

$6,7 : 10$

$496,7 : 100$

$17,5 : 100$


$6,7 : 100$

$4967,7 : 1000$

$17,5 : 1000$

$6,7 : 1000$

318. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

	Narxi	
	1 kg	100 g
	?	?
	?	?

319. 1) Birinchi ko'paytuvchi 14,07, ikkinchi ko'paytuvchi 1000. Ko'paytmani toping.

2) Qaysi son 80,7 dan 10, 100, 1000 marta ortiq?

3) 7,3; 12,07; 4,001; 10,27 sonlaridan 1000 marta ortiq sonni toping.

- 320.** 1) Bo'linuvchi 160,4, bo'luvchi 100. Bo'linmani toping.
 2) 124,5 ni 10 marta, 100 marta, 1000 marta kamaytiring.
 3) 345,6 ni 10 marta, 100 marta kamaytiring.

321. O'nli kasrlarni ikki xonali songa ko'paytirish va bo'lishni eslaylik. Misollarni yechish namunalari ko'rib chiqing.

$$9,175 \times 14 = 128,45$$

$$1,29 : 15 = 0,086$$

$$\begin{array}{r} 9,175 \\ \times 14 \\ \hline + 36700 \\ 9175 \\ \hline 128,450 \end{array}$$

$$\begin{array}{r|l} 1,29 & 15 \\ \hline 12 & \\ \hline - 129 & 0,086 \\ 120 & \\ \hline - 90 & \\ 90 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

322. Bo'linmani toping:

140,4 : 9	124,32 : 24	184,05 : 45
145,95 : 7	201,6 : 5	1729,6 : 47
40,2 : 3	286,02 : 35	9105,2 : 13
75,52 : 4	77,49 : 18	1336,8 : 12

323. Ko'paytiring:

0,12 · 12	0,7 · 12	0,32 · 96
6,28 · 25	14,48 · 23	42,8 · 38
14,07 · 46	35,08 · 32	84,06 · 48
0,175 · 16	1,4 · 35	0,64 · 83

324. Bo'linmani toping:

28,8 : 48	9,36 : 52	8,988 : 42
31,5 : 35	8,64 : 16	25,38 : 36
65,1 : 93	25,84 : 34	34,56 : 96
37,6 : 47	5,49 : 18	45,675 : 75

- 325.** Basketbol maydonchasining bo'yi 23 m, eni 14,5 m. Basketbol maydonchasining perimetrini toping va yuzini hisoblang.
- 326.** Non yopish sexi bir kunda 15,6 t non chiqaradi. Nonning to'rtidan bir qismi bug'doy unidan, qolgan qismi javdar unidan tayyorlanadi. Sex bir haftada javdar unidan qancha non chiqaradi?
- 327.** Yengil mashina 8 soatda 436,8 km, yuk mashinasi shuncha vaqtda 327,2 km yo'l bosdi. Yengil mashinaning yuk mashinasiga qaraganda qancha yo'l bosganini hisoblang.
- 328.** Hisoblang:
- | | |
|-------------------------------|------------------------------------|
| $12 \cdot 0,6 + 11 \cdot 5$ | $(2,62 + 0,7) \cdot 19$ |
| $4,2 \cdot 8 + 43,56 \cdot 3$ | $(3,65 - 2,59) \cdot 20$ |
| $19 - 4,35 \cdot 4$ | $2,32 \cdot 16 - 0,59 \cdot 10$ |
| $2,1 \cdot (9,7 - 4,7)$ | $4,6 \cdot 1000 - 35,35 \cdot 100$ |
- 329.** Murabbo qilish uchun 10,5 kg dan 3 chelak olcha, 9,6 kg dan 4 chelak o'rik, 8,7 kg dan 5 chelak olxo'ri sotib olindi. Hammasi bo'lib necha kilogramm meva xarid qilingan?
- 330.** Sayohatchi 3 soat yo'l yurdi. U birinchi soatda 5,1 km, ikkinchi soatda 5,4 km, uchinchi soatda esa ikkinchi soatdagidan 0,6 km kam yo'l yurdi. Sayohatchi bir soatda o'rtacha necha kilometr yo'l yurgan?
- 331.** Ikki shahar orasidagi masofa 264 km. Poyezd dastlab soatiga 65 km tezlik bilan 2,4 soat yo'l yurdi. Qolgan masofani u 1,5 soatda bosib o'tdi. Poyezd qolgan masofani qanday tezlik bilan bosib o'tgan?

332. Misollarni yeching va natijani bo'lish bilan tekshiring:

$27,4 \cdot 6$	$7,9 \cdot 12$	$300,41 \cdot 14$
$39,8 \cdot 7$	$14,2 \cdot 27$	$74,405 \cdot 8$
$75,08 \cdot 9$	$29,14 \cdot 35$	$19,806 \cdot 28$
$19,05 \cdot 6$	$18,073 \cdot 4$	$75,68 \cdot 18$

333. Uzunligi 40,8 sm bo'lgan simni egib kvadrat yasaldi. Kvadrat tomonining uzunligi necha santimetrغا teng?

334. Bo'linmani toping:

$83 : 2$	$1\,557,6 : 48$	$681,66 : 21$
$78 : 8$	$21\,339 : 35$	$7,84 : 56$
$154 : 25$	$81,72 : 24$	$1,47 : 42$
$687 : 15$	$18\,213 : 26$	$64,80 : 36$

335. Omborxonada 4,375 t kartoshka bor edi. Kartoshka har birining massasi 0,025 tonna qilib 75 ta qopga joylashtirildi. Qolgan kartoshka esa 50 ta qopga bir xil og'irlikda taqsimlandi. Har bir qopga qanchadan kartoshka joylandi?

336. Tikuv sexiga 148,5 m shtapel olib kelindi. Matoning uchdan bir qismidan 18 ta xalat tikildi. Har bir xalatga necha metr mato sarflandi. Qancha mato qoldi?

337. Bo'linmani toping:

$140,4 : 9$	$124,32 : 24$	$3\,567,5 : 10$
$145,95 : 7$	$201,6 : 12$	$184,05 : 45$
$40,3 : 5$	$77,49 : 18$	$1\,336,8 : 12$
$23,42 : 2$	$39,1 : 17$	$9\,105,2 : 100$

338. Sonlarni o'nli kasr ko'rinishida ifodalang va bo'linmani toping.

701 t 50 kg : 35	38 m 25 sm : 90	13 km 356 m : 28
756 t 90 kg : 15	54 m 8 sm : 32	5 km 70 m : 65
82 t 8 kg : 27	30 m 87 sm : 31	58 km 300 m : 44

339. O'nli kasrlarni o'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlar bilan almashtirish amalini eslang va misollarni yeching:

28,8 t : 48	8,640 kg : 16	8,988 km : 42
31,5 t : 35	25,84 kg : 34	25,38 km : 36
34,888 t : 98	45,675 kg : 75	37,6 km : 47

340. Uzunligi 37,8 sm bo'lgan simni egib muntazam (teng tomonli) uchburchak yasalsa, uning tomonining uzunligi necha santimetr bo'ladi?

341. Amallarni bajaring:

$(20,08 \cdot 4) + 8,6$	$(327,5 + 519,14) \cdot 5$
$(7,173 \cdot 15) - 14,07$	$(12,3 - 6,75) \cdot 14$
$(28,036 \cdot 7) + 15,9$	$(72,3 + 29,063) \cdot 7$
$(43,79 \cdot 26) - 123,08$	$(86,8 - 38,125) \cdot 9$

342. $4 \cdot (94,6 - 77,8) : 25$	$25,156 : 38$
$(102,32 - 29,42) : 18$	$681,66 : 21$
$(91,06 + 0,7) : 13$	$1\,191,6 : 60$
$(0,304 + 12,75 + 28,106) : 49$	$740,25 : 45$

- 343.** 1) 73,08 bilan 9,75 ning yig'indisini 36 ga ko'paytiring.
2) 135,4 dan 49,72 ning ayirmasini 15 marta orttiring.
3) 405,006 bilan 109,074 ning yig'indisini 100 marta kamaytiring.
4) 902,75 dan 809,60 ning ayirmasini 10 marta orttiring.

- 344.** 1) 547,2 ni 12 marta kamaytiring. Bo'linmani 10 marta orttiring.
- 2) 256 ni 35 marta kamaytiring. Bo'linmani 10 marta orttiring.
- 3) 1627,2 ni 18 marta kamaytiring. Bo'linmani 7 marta orttiring.
- 4) 81,162 ni 27 marta kamaytiring. Bo'linmani 100 marta orttiring.
- 345.** 1 t paxtadan 5,92 sr urug' olish mumkin. Shuncha miqdordagi urug'dan 1,13 sr yog' siqib olish mumkin. 5 t; 10 t; 27 t paxtadan qancha yog' olish mumkin?
- 346.** Ko'paytiring va natijani bo'lish bilan tekshiring:
- | | | |
|-----------------|------------------|-------------------|
| $27,4 \cdot 6$ | $7,9 \cdot 12$ | $300,41 \cdot 14$ |
| $39,8 \cdot 7$ | $14,2 \cdot 27$ | $74,405 \cdot 8$ |
| $75,08 \cdot 9$ | $29,14 \cdot 35$ | $19,806 \cdot 28$ |
| $19,05 \cdot 6$ | $18,073 \cdot 4$ | $75,68 \cdot 18$ |
- 347.** Hisoblang:
- | | | |
|----------------|---------------|---------------|
| $46,83 : 2$ | $1557,6 : 48$ | $26,156 : 38$ |
| $28,78 : 8$ | $213,39 : 35$ | $7,84 : 56$ |
| $125,154 : 25$ | $81,72 : 24$ | $1,47 : 42$ |
| $90,687 : 15$ | $1821,3 : 26$ | $64,80 : 36$ |
- 348.** 65 ta o'quvchilar kastumini tikish uchun 390 000 so'm to'landi. Ana shunday 35 ta kastumni tikish uchun qancha pul to'lash kerak?

349. 45,8m 75,5sm 16,85m 71,07m 80,068kg ning $\frac{1}{5}$ bo'lagi.

Javoblarni o'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlar shaklida ifodalang.

350. O'nli kasrlarga almashtiring va misollarni yeching:

$$1) \begin{array}{r} \times 7 \text{ kg } 800 \text{ g} \\ \hline 8 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 27 \text{ t } 19 \text{ kg} \\ \hline 7 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 19 \text{ kg } 250 \\ \hline 4 \end{array}$$

$$\times \begin{array}{r} 200 \text{ km } 600 \text{ m} \\ \hline 5 \end{array}$$

$$\times \begin{array}{r} 300 \text{ kg } 8 \text{ g} \\ \hline 6 \end{array}$$

$$\times \begin{array}{r} 45 \text{ kg } 7 \text{ g} \\ \hline 9 \end{array}$$

2) 3 m 75 sm : 5 | 214 m 26 sm : 3 | 7 t 8 kg : 2

351. Maktab tajriba maydonining bo'yi 35,5 m, eni 28 m bo'lsa, uni o'rash uchun necha metr uzunlikdagi panjara kerak bo'ladi?

352. Amallarni bajaring:

$$222 : 15 \cdot 24$$

$$20,05 \cdot 42 : 25$$

$$1027,9 : 38 \cdot 14$$

$$6,975 \cdot 14 : 18$$

$$391,17 : 65 \cdot 15$$

$$800,6 \cdot 35 : 40$$

$$1312 : 38 \cdot 70$$

$$24,3 \cdot 48 : 18$$

353. Hisoblang:

$$0,86 \cdot 28$$

$$15,44 : 16$$

$$18,4 : 100 \cdot 1000$$

$$0,736 \cdot 45$$

$$12,69 : 9$$

$$27,030 : 100 : 10$$

$$184 \cdot 0,9$$

$$266 : 8$$

$$237,1 \cdot 100 : 1000$$

$$0,075 \cdot 8$$

$$334,4 : 16$$

$$324,22 \cdot 100 : 1000$$

354. 4,48 : 4

$$14,56 : 7$$

$$8,496 : 12$$

$$1,248 : 4$$

$$1,296 : 12$$

$$96,64 : 16$$

$$0,856 : 8$$

$$1,648 : 16$$

$$96,64 : 12$$

$$92,4 : 3$$

$$369,6 : 12$$

$$625,125 : 25$$

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. 26,25 m kashimir matosidan 7 ta bir xil palto tikildi. 15 ta shunday palto tikish uchun necha metr kashimir kerak bo'ladi?
2. 1 ta ko'ylak tikish uchun 2,75 m gazlama kerak. 8 ta shunday ko'ylak tikish uchun qancha gazlama kerak? 100 tasi uchun-chi?
3. Hisoblang:
 $26,8 : 10 \cdot 1000$ $24,6 : 10 \cdot 1000$
 $284,1 \cdot 100 : 1000$ $526,2 \cdot 100 : 1000$
4. $6,39 : 3$ $232,8 : 12 \cdot 3$
 $12,52 \cdot 40$ $126,5 : 25 \cdot 14$

O'NLI KASRLAR USTIDA HAMMA AMALLAR

355. Amallarning bajarilish tartibiga ko'ra misollarni yechish:

$$7,05 \cdot 18 - 4,008 \cdot 25$$

$$0,875 \cdot 19 + 275,06 : 34$$

$$3645,27 : 45 + 0,406 \cdot 49$$

$$335,4 : 43 + 0,28 \cdot 17$$

356. Amallarni bajaring:

$$(8,6 + 184,37 + 0,005) : 25$$

$$(2400,6 - 198,78 + 1749,54) : 42$$

$$19,68 - 0,28 \cdot 17$$

- 357.** 1) 5,639 bilan 17,8 ning yig'indisini 17 marta orttiring;
 2) 20,5 bilan 8,228 ning ayirmasini 4 marta kamaytiring.
 3) 4,25 bilan 14 ning ko'paytmasini 12 marta orttiring.
 4) 18,3 ga 24,537 ning 3 ga bo'linmasini qo'shing.

358. Hisoblang:

$$24,8 \cdot 45 + 9,07 \cdot 16 \qquad (0,08 + 135,705) \cdot 5$$

$$19700 - 804,5 \cdot 16 \qquad (17,5 - 9,126) \cdot 28$$

- 359.** Uch bola bog'dan 13,8 kg yong'oq terdi. Birinchi bola yong'oqning $\frac{1}{2}$ qismini, ikkinchisi $\frac{1}{3}$ qismini va uchinchisi $\frac{1}{6}$ qismini terdi. Har qaysi bola necha kilogramm yong'oq tergan?

360. Hisoblang:

$$0,135 \cdot 15 + 7,14 \cdot 12 \qquad 3,671 \cdot 25 - 0,19 \cdot 18$$

$$3,75 \cdot 23 - 2,204 \cdot 9 \qquad 46,73 \cdot 32 + 7,24 \cdot 8$$

$$6,025 \cdot 19 + 0,29 \cdot 18 \qquad 19,129 \cdot 9 - 5,3 \cdot 15$$

$$13,7 \cdot 36 - 5,7 \cdot 9 \qquad 9,576 \cdot 24 + 256 \cdot 50$$

- 361.** Yer uchastkasining maydoni 62 ga. Shu maydonning $\frac{5}{10}$ qismiga turar joylar qurilgan, $\frac{3}{10}$ qismi ko'kalamzorlash-tirilgan, $\frac{2}{10}$ qismini sport va o'yin maydonlari band qilgan. Turar joylar sport va o'yin maydonchalarining har biriga necha gektar yer band qilinadi?

362. Hisoblang:

$$(2572,5 : 10) : 100 \qquad (1 - 0,09) + (150,6 - 48,85)$$

$$(18375 : 5) + (206,5 \cdot 12) \qquad (6048,24 : 12) - (85 - 76,173)$$

363. Amallarni bajaring:

$$4,75 \cdot (0,992 + 0,008) + 180,37 \cdot 8$$

$$(9\,036,72 : 18) - (1\,492 : 25)$$

$$8\,075,25 : 25 \cdot (0,285 + 4,715)$$

$$(85,83 \cdot 15) - 1\,339 : 13$$

364. Qisqa shart asosida masala tuzing va uni yeching:

Hammasi bo'lib – 3780,5 kg olma

I kun – 670,5 kg 

II kun – 4 marta ko'p 

III kun – qolgan olmalar

1 kg olma  so'm bo'lsa, III kunda terilgan olmalar necha so'm?

365. Misollarni yeching:

$$154,38 : 2 + 75,715 \cdot 3$$

$$(1 - 0,009) + (14,35 + 18,067)$$

$$(3,338 + 4,662) - 18,675 : 15$$

366. Xo'jalikda bir haftada 6 506 kg uzum uzildi, undan 500 kg ini qoldirib, qolgani shaharga yashiklarda jo'natildi. Agar har bir yashikda 13 kg dan uzum bo'lsa, shaharga necha yashik uzum jo'natilgan?

367. Misollarni yeching:

$$20,80 : 32$$

$$211,51 : 13$$

$$142,80 : 37$$

$$136 : 16$$

$$487,68 : 24$$

$$4709,964 : 84$$

$$276,5 : 35$$

$$577,26 : 18$$

$$842,352 : 28$$

- 368.** Birinchi kun 127 gektar yer haydaldi. Bu ikkinchi kun haydalganidan 32 gektar kam. Ikki kunda necha gektar yer haydalgan?
- 369.** Korxonaning bir sexiga 6 t 350 kg temir, ikkinchi sexiga 8t 650kg ortiq, uchinchi sexiga ikkinchisiga qaraganda 3marta kam temir keltirildi. Masalaga savol qo'ying va uni yeching.
- 370.** Oq non – 926,7 kg
Qora non – 3 marta kam
Masalani yechish uchun qanday savol qo'yish mumkin?
- 371.** Vagonga 7,48 t tunuka, undan ikki marta kam mix ortildi. Vagonga qancha yuk ortildi?
- 372.** Tegirmondan 2 ta non do'koniga 36,6 t un tarqatildi. 1-do'konga 12 ta, 2-do'konga 8 ta mashinada un yuborildi. Har bir do'konga qanchadan un yuborildi?
- 373.** Misollar tuzing va yeching:
- 1) 0,06 ni 4 marta orttiring, chiqqan ko'paytmaga 127,08 ni qo'shing, yig'indini 6 marta kamaytiring.
 - 2) 109,2 ni 12,3 va 8,3 sonlar ayirmasiga ko'paytiring.
 - 3) 185,4 ni 3,002 va 5,998 sonlar yig'indisiga bo'ling.
 - 4) 1 va 0,875 sonlari ayirmasini 8 marta orttiring.



ODDIY KASRLAR

374. Uzunligi 8 sm li kesma chizing, uni 8 ta teng bo'lakka bo'ling. Uning bir bo'lagi qanday ifodalanadi, uch bo'lagichi? Ushbu kesmada bunday bo'laklardan nechta?
375. $\frac{1}{8}$, $\frac{3}{8}$, $\frac{5}{8}$, $\frac{1}{2}$, $\frac{3}{10}$, $\frac{1}{24}$ sonlari qanday ataladi? Har bir kasr qanday hosil bo'lganini aytib bering. Kasrning surati nimani ko'rsatadi? Kasrning maxraji nimani ko'rsatadi?
376. 1) Metrning $\frac{1}{2}$ bo'lagi necha santimetrga teng? $\frac{1}{4}$ m, $\frac{3}{4}$ m, $\frac{4}{5}$ m-chi?
- 2) $\frac{1}{2}$ kg, $\frac{1}{4}$ kg, $\frac{1}{10}$ kg, $\frac{1}{25}$ kg da necha gramm bor?
- 3) $\frac{1}{2}$ soat, $\frac{1}{4}$ soat, $\frac{2}{4}$ soat, $\frac{3}{4}$ soatda necha minut bor? Qaysi amal bilan aniqladingiz?
377. Kasr son qanday hosil bo'ladi?
- 1) **Kasr son** – bu butun sonni butun songa bo'lishdan hosil bo'ladi.
Namuna: $2:3 = \frac{2}{3}$
- 2) Sonlarni bo'lishdan hosil bo'lgan kasrlarni yozing:
1:2; 4:9; 6:8; 9:10; 3:5; 1:100.
- 3) Kasr son o'lchash natijasida ham hosil qilinadi. Masalan, doska uzunligini o'lchab, 50 sm ni aniqladik, 50sm – bu $\frac{1}{2}$ m. $\frac{1}{2}$ m – kasr son hosil bo'ldi.

378. 1) Quyidagi kasrlar qanday ataladi?

$$\frac{1}{7}, \frac{2}{5}, \frac{3}{6}, \frac{11}{20}, \frac{3}{100} - ?$$

2) Bu kasrlar qanday ataladi?

$$\frac{2}{2}, \frac{3}{3}, \frac{8}{5}, \frac{13}{10}, \frac{207}{1000}, \frac{53}{20} - ?$$

379. 1) Kasrlar qatoridan avval to'g'ri kasrlarni, so'ng noto'g'ri kasrlarni yozing:

$$\frac{1}{2}, \frac{3}{4}, \frac{5}{5}, \frac{5}{8}, \frac{9}{7}, \frac{1}{7}, \frac{7}{10}, \frac{3}{10}, \frac{18}{20}, \frac{6}{6}, \frac{107}{100}, \frac{9}{10}$$

2) Maxrajsiz, o'nli kasr shaklida yozing.

$$\frac{33}{100}, \frac{100}{100}, \frac{1000}{1000}, \frac{110}{1000}$$

380. Sinfning uzunligini, daftarning bo'yi va enini, shkafning uzunligini o'lchang. O'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarni oddiy va o'nli kasr shaklida yozing.

381. 1) Maxraji 4 ga teng bo'lgan to'g'ri kasrlardan uchtasini yozing.


2) Surati 7 ga teng bo'lgan uchta noto'g'ri kasr sonlar yozing.

382. 1) Birdan kichik bo'lgan bir nechta kasr sonlarni yozing. Bu kasr sonlar qanday ataladi?

2) Birga teng bo'lgan va birdan katta bir nechta kasrlarni ayting. Ular qanday ataladi?

383. 1) $1\frac{2}{3}$, $3\frac{1}{2}$, $5\frac{17}{19}$ sonlari qanday ataladi?

2) Rasmda tasvirlangan shakllarni chizing. Ularga mos kasr sonlar yozing.



3) $\frac{2}{3}$, $1\frac{1}{4}$, $\frac{5}{7}$ kasr sonlariga mos shakllar chizing.

KASRLARNI AYLANTIRISH



Yodda tuting: Aralash sonni noto'g'ri kasrga aylantirish uchun maxrajni butun songa ko'paytiriladi. Ko'paytmaga surat qo'shiladi va yig'indidan noto'g'ri kasrning surati hosil bo'ladi. Maxraj o'zgarmaydi, shu holatda qoldiriladi: $2\frac{3}{5} = \frac{5 \cdot 2 + 3}{5} = \frac{13}{5}$

384. Aralash sonlarni noto'g'ri kasr shaklida yozing.

Namuna: $2\frac{3}{5} = \frac{13}{5}$, $10\frac{1}{3} = \frac{31}{3}$.

$3\frac{1}{2} = \frac{?}{?}$, $6\frac{1}{3} = \frac{?}{?}$, $4\frac{1}{5} = \frac{?}{?}$, $10\frac{2}{7} = \frac{?}{?}$.

385. Aralash sonlarni noto'g'ri kasrga aylantiring:

1) $1\frac{3}{6} = \frac{?}{6}$, $8\frac{7}{9} = \frac{?}{9}$, $16\frac{1}{10} = \frac{?}{10}$, $20\frac{3}{4} = \frac{?}{4}$;

2) $3\frac{2}{5}$, $6\frac{3}{4}$, $9\frac{1}{100}$, $13\frac{1}{20}$, $15\frac{4}{6}$, $8\frac{9}{10}$, $10\frac{5}{6}$.

386. Noto'g'ri kasrlarni butun yoki aralash son shaklida yozing:

1) $\frac{3}{3}$, $\frac{5}{5}$, $\frac{6}{2}$, $\frac{10}{5}$, $\frac{12}{6}$,

2) $\frac{4}{3}$, $\frac{7}{5}$, $\frac{7}{2}$, $\frac{13}{5}$, $\frac{17}{6}$.

Noto'g'ri kasr butun yoki aralash songa qanday tartibda aylantirildi?


387. Aralash kasr yoki butun son hosil qiling:

$\frac{53}{2}$, $\frac{81}{5}$, $\frac{103}{10}$, $\frac{125}{5}$, $\frac{132}{4}$, $\frac{100}{50}$, $\frac{400}{100}$, $\frac{256}{25}$, $\frac{246}{3}$.


Rasmda $\frac{1}{8}$, $\frac{5}{8}$, $\frac{8}{8}$ kasr sonlarni ko'rsating. Kasrlarning qaysi biri katta? Nimaga?



a)



b)



d)

388. Bir xil maxrajli kasrlar qatoridan eng katta kasrni va eng kichik kasrni ayting:

$\frac{3}{8}$, $\frac{7}{8}$, $\frac{4}{8}$, $\frac{2}{8}$, $\frac{5}{8}$, $\frac{1}{8}$, $\frac{6}{8}$.

389. Kasrlarni kamayib borish tartibida yozing:

$$\frac{15}{20}, \frac{7}{20}, \frac{11}{20}, \frac{2}{20}, \frac{13}{20}, \frac{6}{20}$$


$$\frac{17}{20}, \frac{4}{20}, \frac{5}{20}, \frac{3}{20}, \frac{8}{20}, \frac{19}{20}$$

390. Kasrlarni ortib borish tartibida yozing:

$$\frac{7}{15}, \frac{13}{15}, \frac{3}{15}, \frac{14}{15}, \frac{1}{15}, \frac{11}{15}$$

$$\frac{4}{15}, \frac{2}{15}, \frac{10}{15}, \frac{6}{15}, \frac{9}{15}$$

391. 1) Stakanlarda qancha sharbat borligini aniqlang. Son bilan yozing. Stakan to'la bo'lishi uchun necha qism sharbat qo'shish kerak?



2) Kasrlarni solishtiring: $\frac{3}{4}$ va $\frac{1}{4}$, 1 va $\frac{4}{4}$, $\frac{3}{4}$ va 1, $\frac{1}{2}$ va 1.

392. Sonlarni taqqoslang, > yoki < ishoralaridan mosini qo'ying:


$$\frac{4}{2}, \frac{4}{6}, \frac{4}{5}, \frac{4}{20}, \frac{4}{25}, \frac{4}{7}, \frac{4}{8}$$




Eslang: Suratları bir xil, maxrajları har xil bo'lgan kasrlardan maxraji kichik bo'lgan kasr son kattadir.

Masalan: $\frac{4}{5}$, $\frac{4}{6}$, $\frac{4}{2}$, $\frac{4}{1}$ da $\frac{4}{1}$ kasr son kattadir.


393. 1) Rasmlarga qarang, mos kasr sonlarda ifodalang. Maydaroq va yirikroq kasrlar qanday hosil bo'ldi?



?



?



?

Hosil bo'lgan kasrlarni solishtiring:

$$\frac{2}{4} \text{ va } \frac{1}{2}, \quad \frac{8}{16} \text{ va } \frac{1}{2}, \quad \frac{8}{16} \text{ va } \frac{2}{4}.$$

2) Eslang, mayda ulushlarni yirikroq ulushlarga qanday aylantirish mumkin? Kasr surati va maxraji qanday o'zgartiriladi?

Kasrlarni qisqartiring: $\frac{3}{6}, \frac{2}{4}, \frac{4}{8}, \frac{5}{10}, \frac{12}{18}, \frac{7}{14}, \frac{8}{40}.$

3) Kasrlarni yirikroq ulushlarda ifodalang:

$$\frac{2}{8}, \frac{6}{8}, \frac{5}{15}, \frac{4}{6}, \frac{9}{12}, \frac{8}{20}, \frac{10}{15}, \frac{12}{20}, \frac{18}{27}, \frac{5}{50}, \frac{4}{100}$$

394. $\frac{1}{2}, \frac{3}{5}, \frac{7}{8}, \frac{9}{10}, \frac{5}{7}$ kasr sonlarni yirikroq ulushlarda ifodalash mumkinmi? Nima uchun? Bular *qisqarmaydigan kasrlardir.*

395. Kasrlarning bir qismini yirik ulushlarda ifodalang:

$$\frac{2}{12}, \frac{5}{10}, \frac{3}{4}, \frac{7}{21}, \frac{6}{9}, \frac{1}{5}, \frac{8}{9}, \frac{16}{20}, \frac{4}{5}, \frac{12}{30}, \frac{5}{35}.$$

Qisqarmaydigan kasrlarni ayting.

396. Kasrlarni qisqartiring, $>$, $<$, $=$ ishoralaridan mosini qo'ying:

$$\frac{1}{2} \text{ m va } \frac{5}{10} \text{ m}$$

$$\frac{400}{1000} \text{ kg va } \frac{4}{10} \text{ kg}$$

$$\frac{1}{10} \text{ km va } \frac{10}{1000} \text{ km}$$

$$\frac{1}{10} \text{ sm va } \frac{2}{10} \text{ sm}$$

$$\frac{6}{10} \text{ m va } \frac{3}{5} \text{ m}$$

$$\frac{50}{100} \text{ kg va } \frac{2}{2} \text{ kg}$$

$$\frac{300}{1000} \text{ m va } \frac{1}{10} \text{ m}$$

$$\frac{1}{2} \text{ m va } \frac{4}{8} \text{ m}$$

397. 1) O'nli kasrlarni taqqoslang:

$$0,75 \text{ va } 0,098$$

$$8,05 \text{ va } 8,50$$

$$4,07 \text{ va } 2,1$$

$$9,12 \text{ va } 9,3$$

2) Qisqarishi mumkin bo'lgan o'nli kasrlarni qisqartiring:

$$1,200; 3,080; 5,7; 16,40; 5,009; 3,07.$$

398. Amallarni bajaring:

$$1) 399\,990 - 32\,688 : 36$$

$$1\,402 - 108 \cdot 12$$

$$33\,276 + 33\,041 : 47$$

$$506 + 248 \cdot 13$$

$$2) 43,12 \cdot 100 - 0,001 \cdot 14 - 0,075 \cdot 26$$

$$793,48 - 0,64 \cdot 84 - 11,08 \cdot 30$$

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Noto'g'ri kasr shaklida yozing:

$$1\frac{3}{4}, 2\frac{1}{2}, 6\frac{2}{7}, 10\frac{2}{5}, 28\frac{3}{10}, 3\frac{1}{4}$$

2. Noto'g'ri kasrlarni butun yoki aralash sonlar ko'rinishida ifodalang:

$$\frac{13}{2}, \frac{15}{4}, \frac{56}{2}, \frac{101}{5}, \frac{47}{12}, \frac{37}{6}, \frac{20}{9}$$

3. Eng kichik va eng katta kasr sonni yozing:

$$\frac{11}{12}, \frac{5}{12}, \frac{13}{12}, \frac{7}{12}, \frac{3}{12}, \frac{1}{12}, \frac{12}{12}$$

4. Kasrlarni solishtiring:

$$\frac{3}{4} \dots \frac{4}{4}, 1\frac{2}{3} \dots 2\frac{1}{3}, 3\frac{7}{8} \dots 4, \frac{3}{3} \dots 1, \frac{3}{8} \dots \frac{5}{8}, \frac{1}{2} \dots \frac{1}{12}$$

5. Kasrlarni qisqartiring:

$$\frac{3}{15}, \frac{4}{8}, \frac{2}{6}, \frac{5}{20}, \frac{8}{12}, \frac{10}{15}$$

ODDIY KASRLARNI QO'SHISH VA AYIRISH

399. Eslang, bir xil maxrajli oddiy kasrlarni qo'shish va ayirish qanday amalga oshiriladi?

$$\begin{array}{cccc} 1) \frac{5}{7} + \frac{1}{7} & \frac{9}{13} + \frac{3}{13} & \frac{12}{19} + \frac{5}{19} & \frac{6}{11} + \frac{2}{11} \\ \frac{8}{11} - \frac{2}{11} & \frac{6}{25} - \frac{4}{25} & \frac{14}{17} - \frac{8}{17} & \frac{18}{49} - \frac{16}{49} \end{array}$$

400. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{cccc} \frac{3}{5} + \frac{2}{5} & \frac{4}{7} + \frac{5}{7} & \frac{7}{10} + \frac{9}{10} & \frac{7}{12} + \frac{7}{12} \\ \frac{8}{9} - \frac{5}{9} & \frac{13}{15} - \frac{8}{15} & \frac{5}{8} + \frac{7}{8} & \frac{16}{21} + \frac{12}{21} \end{array}$$

401. Misollarni yeching. Har bir ustundagi misollarni solishtiring, yechimini ko'rib chiqing:

$$4\frac{6}{11} + 1\frac{2}{11}$$

$$4\frac{6}{11} + 1$$

$$4\frac{6}{11} + \frac{2}{11}$$

$$4 + 1\frac{2}{11}$$

$$4\frac{6}{11} - 1\frac{2}{11}$$

$$4\frac{6}{11} - 14$$

$$4\frac{6}{11} - \frac{2}{11}$$

$$4 + \frac{2}{11}$$

402. Duradgorlik ustaxonasida o'quvchi taxtaning $1\frac{3}{10}$ metrini, so'ngra $2\frac{1}{10}$ metrini arralab bo'laklarga ajratdi. Arralangan ikki bo'lak taxta uzunligini toping.

403. Ko'ylakni bezatish uchun $2\frac{3}{5}$ metrlik tesmadan $\frac{2}{5}$ m bo'lagi qirqib olindi. Necha metr tesma qoldi?

404. Misollarni yeching:

$$2\frac{5}{13} + 8\frac{7}{13}$$

$$4\frac{7}{10} + 5$$

$$7\frac{13}{21} - 2$$

$$3\frac{4}{11} - \frac{3}{11}$$

$$\frac{8}{15} + 7\frac{1}{15}$$

$$7\frac{5}{12} - 2\frac{3}{12}$$

$$10 + 4\frac{3}{7}$$

$$3 + \frac{6}{17}$$

$$\frac{3}{4} + 5$$

$$5\frac{8}{9} - 3$$

$$9 + \frac{2}{3}$$

$$\frac{5}{13} + \frac{7}{13}$$

$$7\frac{10}{11} - 7$$

405. Amallarni bajaring:

$$\frac{1}{7} + \frac{6}{7} + \frac{5}{7}$$

$$6 + \frac{5}{9} - 4\frac{2}{9}$$

$$4\frac{13}{20} + \left(5 + \frac{7}{20}\right)$$

$$\frac{5}{11} + 1\frac{9}{11} + \frac{8}{11}$$

$$8\frac{11}{15} - 3\frac{4}{15} + \frac{13}{15}$$

$$12\frac{17}{24} - \left(\frac{11}{24} + 8\right)$$

$$\frac{7}{12} + 4\frac{5}{12} + 3\frac{1}{12}$$

$$9 + 3\frac{17}{18} - 12\frac{5}{18}$$

406. Sayyoh 10 km yo'l yurishi kerak. U $1\frac{1}{2}$ km yo'l yurgan bo'lsa, yana qancha yo'l yurishi kerak?

407. 1) Ayirish qanday bajarilishini eslang va misollarni yechilishini tushuntiring:

$$1 - \frac{3}{5} = \frac{5}{5} - \frac{3}{5} = \quad \quad \quad 7 - 1\frac{3}{8} = 6\frac{8}{8} - 1\frac{3}{8} =$$

2) Misollarni yeching:

$1 - \frac{4}{9}$	$2 - \frac{5}{7}$	$5 - 2\frac{1}{7}$	$18 - \frac{12}{25}$
$1 - \frac{6}{11}$	$4 - \frac{8}{15}$	$8 - 6\frac{5}{9}$	$20 - 9\frac{17}{20}$
$1 - \frac{2}{23}$	$9 - \frac{7}{10}$	$10 - 9\frac{1}{3}$	$32 - 25\frac{1}{43}$

408. Og'irligi to'la qopdagi donning $\frac{1}{3}$ qismi ajratib olindi. Qopda donning necha qismi qolganligini tushuntiring.

409. Misolni yechish namunasini ko'ring. Ayirish qanday bajarilganligini tushuntiring:

Namuna: $3\frac{1}{5} - \frac{4}{5} = 2\frac{6}{5} - \frac{4}{5} = 2\frac{2}{5} \quad \quad \quad 7\frac{3}{11} - 2\frac{6}{11} = 6\frac{14}{11} - 2\frac{6}{11} = 4\frac{8}{11}$

$$5\frac{1}{3} - 1\frac{2}{3}$$

$$6\frac{2}{7} - 3\frac{4}{7}$$

$$7\frac{5}{12} - 6\frac{7}{12}$$

$$10\frac{3}{9} - \frac{8}{9}$$

$$8\frac{1}{4} - 5\frac{3}{4}$$

$$4\frac{9}{11} - \frac{10}{11}$$

$$2\frac{4}{15} - \frac{7}{15}$$

$$6\frac{2}{21} - 1\frac{4}{21}$$

$$3\frac{4}{9} - \frac{5}{9}$$

$$2\frac{3}{10} - \frac{7}{10}$$

$$11\frac{7}{20} - 4\frac{13}{20}$$

$$25\frac{6}{27} - 16\frac{8}{27}$$

410. Chap va o'ng ustunlardagi misollarni solishtiring. Nima uchun chap ustundagi misollarni yechishda ularni noto'g'ri kasrga aylantirishga zaruriyat yo'q?

$$18\frac{2}{25} - 17\frac{1}{25}$$

$$20\frac{18}{25} - 13\frac{23}{25}$$

$$84\frac{7}{30} - 14\frac{1}{30}$$

$$62\frac{19}{40} - 61\frac{39}{40}$$

$$32\frac{9}{10} - \frac{7}{10}$$

$$15\frac{17}{32} - \frac{25}{32}$$

411. Misollarni yeching. Noto'g'ri kasrga aylantirish zaruriyati bo'lgan kamayuvchilar tagiga chizing:

$$6\frac{4}{11} - 3\frac{2}{11}$$

$$4\frac{5}{9} - 3\frac{7}{9}$$

$$10\frac{8}{15} - \frac{7}{15}$$

$$4\frac{1}{7} - 2\frac{5}{7}$$

$$8\frac{7}{9} - 4\frac{3}{9}$$

$$15\frac{6}{16} - \frac{14}{16}$$

$$12\frac{20}{31} - \frac{12}{31}$$

412. Bidonda $9\frac{1}{4}$ l sut bor edi. $5\frac{1}{4}$ l sut idishga quyib qo'yildi. Necha litr sut bidonda qoldi?

413. Do'konga $100\frac{1}{2}$ l paxta yog'i keltirildi. Birinchi kuni $18\frac{1}{2}$ l, ikkinchi kuni $40\frac{1}{2}$ l, uchinchi kuni esa $14\frac{1}{2}$ l yog' sotildi. Sotilmay qolgan paxta yog'i miqdorini hisoblang.

414. Toshkent – Buxoro poyezdining yo'lovchilarni tashish vagoni uzunligi $19\frac{1}{5}$ m, yuk tashish vagoni uzunligi esa $7\frac{1}{5}$ m bo'lsa, yuk tashish vagoni uzunligi aholini tashish vagoni uzunligidan necha metr qisqa?

415. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{cccc} 7\frac{5}{21} + 8\frac{11}{21}; & 9 - \frac{7}{12}; & 32\frac{7}{20} - 19\frac{13}{20}; & \frac{6}{17} + 16; \\ \frac{34}{57} + 1\frac{23}{57} & 9 + \frac{3}{8} & 12\frac{9}{23} - \frac{6}{23} & 7\frac{16}{19} - 7\frac{9}{19} \\ 7\frac{9}{14} + 2\frac{7}{14} & 13\frac{7}{9} - 5 & 4\frac{8}{15} - \frac{18}{15} & 1\frac{5}{16} - \frac{7}{16} \end{array}$$

416. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{ccc|ccc} 4\frac{1}{10} \text{ m} + 2\frac{7}{10} \text{ m} & \left| \right. & \frac{3}{100} \text{ km} + 7 \text{ km} & \left| \right. & 3\frac{7}{20} \text{ m} - \frac{9}{20} \text{ m} \\ 1 \text{ sr} - \frac{1}{2} \text{ sr} & \left| \right. & 6\frac{1}{8} \text{ t} - 2\frac{3}{8} \text{ t} & \left| \right. & 12 \text{ kg} - \frac{4}{25} \text{ kg} \\ 8 \text{ dm} + \frac{1}{2} \text{ dm} & \left| \right. & 27\frac{3}{5} \text{ sm} - 19\frac{2}{5} \text{ sm} & \left| \right. & 4\frac{9}{10} \text{ dm} + 3\frac{7}{10} \text{ dm} \end{array}$$

417. 1) Yarim soat $\left(\frac{1}{2}\right)$ nechaga teng? 1 soatning $\frac{1}{4}$ qismi-chi?

2) Darsning $\frac{1}{3}, \frac{1}{5}, \frac{1}{9}, \frac{1}{45}$ qismida necha minut bor?

3) Metrning $\frac{1}{4}, \frac{1}{5}, \frac{1}{2}, \frac{1}{10}, \frac{1}{25}$ qismida necha santimetr bor?

418. Yig'indini toping:

$$\begin{array}{cccc} \frac{1}{4} + \frac{1}{4}, & \left| \right. & \frac{3}{4} + \frac{1}{4}, & \left| \right. & \frac{5}{9} + \frac{5}{9}, & \left| \right. & 8\frac{7}{10} + 2\frac{3}{10} \\ \frac{3}{4} + \frac{1}{4} + \frac{5}{4}, & & 18\frac{2}{9} + 25\frac{5}{9} + 38\frac{2}{9}, & & \frac{15}{20} + \frac{7}{20} + \frac{8}{20} \\ 16\frac{2}{25} + 44\frac{7}{25} + 19\frac{6}{25} \end{array}$$

419. Misollarni yeching:

$$\left(9\frac{15}{16} + \frac{7}{16}\right) - 4\frac{1}{8}$$

$$\left(21\frac{9}{10} + 7\frac{3}{10}\right) - 8\frac{2}{5}$$

$$\left(16\frac{2}{25} + 19\right) - \frac{7}{25}$$

$$\left(3\frac{7}{8} + 15\frac{7}{8}\right) - 9\frac{1}{4}$$

$$\left(\frac{17}{35} + 10\frac{19}{35}\right) - 3\frac{2}{35}$$

$$\left(\frac{1}{12} + 8\frac{11}{12}\right) - 6\frac{9}{40}$$

420. Uyni ta'mirlash vaqtida elektr simlar yangilandi. Birinchi xona uchun $20\frac{4}{5}$ m sim, ikkinchi xona uchun $12\frac{3}{5}$ m sim, uchinchi xona uchun esa birinchi va ikkinchi xonalar uchun ketgan simdan $11\frac{1}{5}$ m kam sim ishlatildi. Uchta xona uchun necha metr sim kerak bo'ldi?

421. Amallarni bajaring:

$$10\frac{3}{8} - 5 + 6\frac{7}{8}$$

$$1 - \frac{16}{18} + 6\frac{5}{18}$$

$$18 - \frac{9}{10} - 13\frac{3}{10} + 4\frac{4}{4}$$

$$25\frac{11}{15} - 25 + 16\frac{14}{15}$$

422. Oshxonaning bir xonasini bo'yash uchun $12\frac{1}{8}$ kg bo'yoq, ikkinchi xonasiga $13\frac{5}{8}$ kg bo'yoq, uchinchi xonasiga $11\frac{5}{8}$ kg bo'yoq, to'rtinchi xonasiga esa uchinchi xonadagidan $1\frac{3}{8}$ kg ortiq bo'yoq sarflandi. Oshxonani ta'mirlash uchun qancha bo'yoq sarflandi?

423. Misollarni yeching:

$$1) 40\frac{5}{8} + \left(18 - 11\frac{7}{8}\right)$$

$$28\frac{31}{32} - \left(54 - 29\frac{17}{32}\right)$$

$$2) 61\frac{1}{10} - \left(16\frac{9}{10} + 14\frac{7}{10}\right)$$

$$36\frac{1}{5} - \left(1 - \frac{1}{5}\right)$$

$$3) 3\frac{7}{20} - \left(\frac{9}{20} + 1\frac{9}{20}\right)$$

$$50 - \left(12\frac{23}{24} + 8\frac{5}{24}\right)$$

424. Masala tuzing va uni yeching:

I - $1\frac{7}{100}$ kg

II - $\frac{33}{100}$ kg ortiq

III - $\frac{3}{5}$ kg kam

? kg

425. 1) $17\frac{5}{8}$ soni $12\frac{7}{8}$ dan qancha ortiq?

2) $10\frac{3}{5}$ soni $23\frac{1}{5}$ dan qancha kam?

3) $24\frac{5}{8}$ va $15\frac{7}{8}$ sonlari ayirmasini toping.

4) $18\frac{1}{10}$ va $9\frac{2}{10}$ sonlari yig'indisini $7\frac{7}{10}$ ga kamaytiring.

426. Yig'indini toping:

$$\frac{1}{4} + \frac{1}{4}$$

$$\frac{3}{4} + \frac{1}{4}$$

$$\frac{5}{9} + \frac{5}{9}$$

$$8\frac{7}{10} + 2\frac{3}{10}$$

$$\frac{3}{4} + \frac{1}{4} + \frac{3}{3}$$

$$18\frac{2}{9} + 25\frac{5}{9} + 38\frac{2}{9}$$

$$\frac{15}{20} + \frac{7}{20} + \frac{8}{20}$$

$$16\frac{2}{25} + 44\frac{7}{25} + 9\frac{6}{25}$$

427. Misollarni yechmasdan taqqoslang, $>$, $<$, $=$ belgilaridan mosini qo'ying:

a) $\frac{3}{7} + \frac{2}{7} \dots \frac{2}{7} + \frac{3}{7}$

$5 + \frac{2}{5} \dots 5 - \frac{2}{5}$

b) $\frac{3}{7} + \frac{2}{7} \dots \frac{3}{7} + \frac{4}{7}$

$6\frac{3}{5} - 6 \dots 6\frac{3}{5} - \frac{3}{5}$

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Misollarni yeching:

$9 + \frac{2}{15}$

$1\frac{2}{9} + 6\frac{4}{9}$

$\frac{9}{11} + \frac{7}{11}$

$7\frac{13}{14} - \frac{11}{14}$

$10\frac{7}{9} - 8\frac{3}{9}$

$24\frac{5}{12} - 17$

2. Nonvoyxonaga 370 kg un keltirildi. Uning $\frac{1}{5}$ qismi ishlatildi. Qancha un qoldi?

3. Ayirmani hisoblang:

$1 - \frac{1}{3}$

$3\frac{1}{7} - \frac{4}{7}$

$4 - \frac{2}{5}$

$5\frac{1}{9} - 1\frac{5}{9}$

O'NLI KASRNI ODDIY KASRGA AYLANTIRISH

428. Har qanday o'nli kasrni oddiy kasr ko'rinishiga keltirish mumkin.

Masalan: $0,03$ – o'nli kasr,

$$\frac{3}{100} \text{ – oddiy kasr.}$$

Bu kasrlar orasidagi farq ularning yozilishidadir. Shuning uchun istalgan kasrni oddiy kasrga aylantirish mumkin. Agar chiqqan oddiy kasrni qisqartirish mumkin bo'lsa, u qisqartiriladi.

$$\text{Masalan: } 0,2 = \frac{2}{10} = \frac{1}{5}$$

$$0,16 = \frac{16}{100} = \frac{4}{25}$$

429. O'nli kasrlarni oddiy kasrlarga aylantiring va mumkin bo'lgan joyda qisqartiring:

$$\begin{array}{c|c|c|c|c} 0,2 & 0,7 & 0,4 & 0,05 & 0,25 \\ \hline 0,004 & 0,08 & 0,16 & 0,075 & 0,155 \end{array}$$

430. O'nli kasrlarni aralash son ko'rinishida yozing:

$$\text{Namuna: } 4,5 = 4\frac{5}{10} = 4\frac{1}{2} \quad 2,3 = 2\frac{3}{10}$$

$$\begin{array}{c|c|c|c|c|c} 4,8 & 1,9 & 6,8 & 15,75 & 4,64 & 7,08 \\ \hline 19,15 & 10,012 & 6,025 & 14,84 & 9,32 & 8,325 \end{array}$$

431. O'nli kasrni oddiy kasr ko'rinishda yozing:

$$\begin{array}{c|c|c|c|c|c} 0,6 & 4,08 & 0,075 & 0,525 & 9,62 & 6,125 \\ \hline 12,55 & 30,004 & 8,76 & 3,475 & 45,4 & 3,36 \end{array}$$

432. Sonlarni oddiy kasr shaklida yozing:

$$\begin{array}{c|c|c|c|c} 0,45 & 13,5 & 3,97 & 0,004 & 9,6 \\ \hline 0,903 & 2,1 & 0,219 & 0,03 & 3,9 \end{array}$$

433. O'nli kasrni o'qing:

0,1 0,01 0,001 3,7 4,85 19,045

Har bir kasrning maxrajini va suratini ayting:

434. Oddiy kasr ko'rinishida yozing:

0,1 0,01 0,001 3,7 4,85

19,084 5,3 8,34 25,55



Yodingizda tuting!

O'nli kasrni oddiy kasrga aylantirish uchun uni maxraj bilan yozish va mumkin bo'lsa, qisqartirish kerak.

435. O'nli kasrni oddiy kasr shaklida yozing:

0,6 | 0,18 | 0,154 | 4,5 | 16,89 | 148,604

12,6 | 7,04 | 18,009 | 15,3 | 14,06 | 12,365

436. O'nli kasrni oddiy kasrga aylantiring va mumkin bo'lgan joyda qisqartiring:

0,08 0,125 0,5 24,175

8,9 7,004 0,75 18,64

24,002 0,70 14,1 13,3

437. Taqqoslang:

6,777 va 9,7

672,583 va 78,5

58,24 va 58,42

111,49 va 111,49

2,5 va 2,33

1009,12 va 1009,012

438. O'nli kasrlarni oddiy kasr ko'rinishida yozing, mumkin bo'lsa, qisqartiring:

1) 1,708 | 0,98 | 4,708 | 13,2 | 7,613 | 0,99

2) 0,02 | 3,02 | 0,302 | 0,302 | 0,022 | 20,3

ODDIY KASRNI O'NLI KASR KO'RINISHIDA IFODALASH

439. Agar oddiy kasrning maxrajida bir bilan nollardan iborat son tursa, uni o'nli kasr ko'rinishida yozish mumkin:

$$\frac{3}{10} = 0,3$$

$$\frac{63}{100} = 0,63$$

$$\frac{175}{1000} = 0,175$$

$$\frac{2}{10}$$

$$\frac{15}{100}$$

$$\frac{23}{1000}$$

$$\frac{189}{1000}$$

440. Oddiy kasrlarni o'nli kasrga aylantiring:

$$\frac{1}{10}$$

$$\frac{4}{10}$$

$$\frac{19}{100}$$

$$\frac{27}{100}$$

$$\frac{193}{1000}$$

$$\frac{227}{1000}$$

$$\frac{2}{10}$$

$$\frac{8}{10}$$

$$\frac{17}{100}$$

$$\frac{25}{100}$$

$$\frac{225}{1000}$$

$$\frac{35}{100}$$

$$\frac{6}{100}$$

$$\frac{4}{100}$$

$$\frac{65}{1000}$$

$$\frac{83}{1000}$$

$$\frac{17}{1000}$$

$$\frac{39}{100}$$

441. Sonlarni o'nli kasrga aylantiring:

a) $1\frac{3}{10}$, $4\frac{8}{10}$, $3\frac{41}{100}$, $6\frac{37}{1000}$, $17\frac{48}{100}$, $28\frac{55}{1000}$;

b) $\frac{31}{10}$, $\frac{53}{100}$, $\frac{27}{10}$, $\frac{405}{100}$, $\frac{618}{100}$, $\frac{246}{1000}$.



Yodda tuting:

Agar oddiy kasr maxrajida bir va nol bilan tugagan son emas, balki boshqa son turgan bo'lsa, o'nli kasr hosil qilish uchun kasr sonning surati maxrajga bo'linadi.

442. 1) $\frac{3}{4}$ ni o'nli kasrga aylantiramiz:

$$\begin{array}{r|l} 3,00 & 4 \\ -28 & 0,75 \\ \hline -20 & \\ -20 & \\ \hline 0 & \end{array} \quad \frac{3}{4} = 0,75$$

2) $\frac{7}{8}$ ni o'nli kasrga aylantiramiz:

$$\begin{array}{r|l} 7,000 & 8 \\ -64 & 0,875 \\ \hline -60 & \\ -56 & \\ \hline -40 & \\ -40 & \\ \hline 0 & \end{array} \quad \frac{7}{8} = 0,875$$

443. O'nli kasrga aylantiring:

$$\frac{2}{5}, \quad \frac{9}{10}, \quad \frac{4}{5}, \quad \frac{5}{8}, \quad \frac{7}{10}, \quad \frac{3}{20}, \quad \frac{8}{25}, \quad \frac{57}{100}$$

444. O'nli kasr bilan ifodalang:

$$\frac{1}{5}, \quad \frac{7}{8}, \quad \frac{9}{10}, \quad \frac{15}{20}, \quad \frac{9}{50}, \quad \frac{10}{25}, \quad \frac{25}{100}$$

445. Oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantiring:

$$\frac{1}{2}, \quad \frac{3}{5}, \quad \frac{3}{8}, \quad \frac{6}{5}, \quad \frac{1}{7}, \quad \frac{6}{15}, \quad \frac{1}{125}, \quad \frac{5}{12}$$

446. $>$, $<$, $=$ ishoralaridan mosini qo'ying:

$$\frac{3}{4} \text{ va } 0,8$$

$$0,75 \text{ va } \frac{7}{50}$$

$$\frac{3}{10} \text{ va } 0,3$$

$$0,6 \text{ va } \frac{31}{50}$$

$$\frac{5}{8} \text{ va } 0,625$$

$$10,25 \text{ va } \frac{7}{8}$$

447. Aralash kasrlarni o'qli kasrlarga aylantiring:

$$3\frac{1}{2}$$

$$1\frac{1}{5}$$

$$6\frac{2}{5}$$

$$8\frac{5}{8}$$

$$12\frac{3}{25}$$

$$19\frac{4}{5}$$

$$3\frac{24}{25}$$

$$5\frac{1}{2}$$

448. O'qli kasrga aylantirib, taqqoslang:

$$\frac{1}{2} \text{ va } \frac{4}{5}$$

$$\frac{4}{8} \text{ va } \frac{3}{4}$$

$$\frac{3}{8} \text{ va } \frac{8}{25}$$

$$\frac{3}{12} \text{ va } \frac{2}{5}$$

449. Yo'lovchi 5 km yo'lning $1\frac{1}{2}$ km ini bosib o'tdi. Yo'lovchi yana qancha yo'l bosib o'tishi kerak. Aralash kasrni o'qli kasr ko'rinishida ifodalab, masalani yeching.

450. Misollarni yeching:

$$12,3 \cdot 10$$

$$4,17 \cdot 100$$

$$9,7 : 10$$

$$48,9 : 100$$

$$0,29 \cdot 10$$

$$0,83 \cdot 100$$

$$0,3 : 10$$

$$132 : 1000$$

451. Kasrlarni o'qli kasrga aylantirib, ortib borish tartibida joylashtiring:

$$\frac{7}{6},$$

$$\frac{2}{5},$$

$$\frac{1}{2},$$

$$\frac{4}{3},$$

$$\frac{125}{1000},$$

$$\frac{8}{25},$$

$$\frac{1}{16},$$

$$\frac{3}{5},$$

$$\frac{8}{10}.$$

452. Kasrlarni taqqoslang va $>$, $<$, $=$ ishoralaridan mosini qo'ying:

1) $0,75$ va $\frac{1}{5}$ $\frac{3}{4}$ va $0,25$ $\frac{5}{8}$ va $0,08$

$\frac{6}{25}$ va $0,375$ $\frac{3}{5}$ va $0,96$

2) $2,14$ va $2\frac{1}{8}$ $2,35$ va $7\frac{3}{6}$

$0,125$ va $\frac{1}{8}$ $20,065$ va $20\frac{3}{12}$

453. Oddiy kasrlarni o'nli kasrga aylantiring:

1) $\frac{9}{10}$ $\frac{5}{7}$ $\frac{3}{15}$ $\frac{8}{15}$ $\frac{9}{30}$ $\frac{9}{17}$ $\frac{14}{15}$

2) $\frac{1}{8}$ $\frac{7}{10}$ $\frac{5}{6}$ $\frac{9}{15}$ $\frac{8}{15}$ $\frac{13}{20}$ $\frac{6}{25}$ $\frac{1}{100}$ $\frac{1}{1000}$

454. Namuna: $\frac{5}{8} = 0,625$. $\frac{2}{3} = 0,666\dots$

$$\begin{array}{r} \underline{5,000} \quad | \quad 8 \\ \underline{48} \quad | \quad 0,625 \\ \underline{-20} \\ \underline{-16} \\ \underline{-40} \\ \underline{-40} \\ \underline{0} \end{array}$$

chekli o'nli kasr.

$$\begin{array}{r} \underline{2,000} \quad | \quad 3 \\ \underline{18} \quad | \quad 0,666\dots \\ \underline{-20} \\ \underline{-18} \\ \underline{-20} \\ \underline{-18} \\ \underline{2} \end{array}$$

cheksiz o'nli kasr



Yodda tuting! Oddiy kasr suratini maxrajga bo'lganda bo'lish tugamasa, ya'ni bo'lishda hosil bo'lgan bir xil son takrorlanaversa, unday kasr **cheksiz** o'nli kasr deb ataladi. $0,666\dots$; $0,333\dots$ – cheksiz o'nli kasrlar.

455. O'nli kasrga aylantiring:

$$\frac{7}{8} \quad \frac{5}{9} \quad \frac{8}{15} \quad \frac{17}{20} \quad \frac{3}{40} \quad \frac{9}{14} \quad \frac{1}{12} \quad \frac{1}{25}$$

O'nli kasrlarni ortib borish tartibida joylashtiring.

456. Oddiy kasrlarni o'nli kasr shaklida yozing (0,001 gacha bo'ling):

$$1) \quad \frac{1}{25} \quad \frac{5}{6} \quad \frac{8}{15} \quad \frac{10}{11} \quad \frac{8}{3} \quad \frac{5}{7} \quad \frac{4}{10}$$

$$2) \quad \frac{1}{3} \quad \frac{1}{1000} \quad \frac{3}{7} \quad \frac{7}{8} \quad \frac{5}{5} \quad \frac{8}{13}$$

Ulardan cheksiz o'nli kasrlar hosil bo'ladigan oddiy kasrlarni ajratib yozing.

457. Kasrlarni qisqartiring:

$$\begin{array}{cccccccc} \frac{2}{8} & \frac{4}{14} & \frac{6}{9} & \frac{15}{25} & \frac{16}{32} & \frac{42}{48} & \frac{48}{54} & \frac{27}{72} \\ \frac{15}{45} & \frac{9}{27} & \frac{7}{35} & \frac{10}{100} & \frac{24}{48} & \frac{72}{36} & \frac{84}{20} & \frac{100}{5} \end{array}$$

458. Misollarni yeching:

$$40\,180 - 32\,098 + 163\,459$$

$$82\,500 - (19\,702 - 9\,843)$$

$$6\,450 - 8\,096 - 7\,849$$

$$121\,643 - (8\,914 + 1\,586)$$

$$208\,100 - (145\,402 - 109\,793)$$

$$16\,792 + 124\,058 - 139\,896$$

459. Aralash sonlarni o'nli kasrlarga aylantiring.

$$7\frac{1}{9}; \quad 3\frac{2}{11}; \quad 4\frac{1}{3}; \quad 6\frac{3}{4}; \quad 11\frac{3}{7}; \quad 1\frac{3}{8}$$

ODDIY VA O'NLI KASRLAR USTIDA AMALLAR

460. Oddiy kasrlardan o'nli kasr hosil qilib, sonning bo'lagini toping.



Yodda tuting:

$$0,2 = \frac{1}{5}, \quad 0,5 = \frac{1}{2}, \quad 0,02 = \frac{1}{50}, \quad 0,05 = \frac{1}{20},$$

$$0,25 = \frac{1}{4}, \quad 0,75 = \frac{3}{4}, \quad 0,125 = \frac{1}{8}.$$

50; 450; 100; 25 ning 0,2 bo'lagi,
20; 400; 100; 80 ning 0,5 bo'lagi,
80; 12; 100; 360 ning 0,25 bo'lagi.

461. Bolalar ko'ylagiga $1\frac{1}{5}$ m, ayollar xalatiga esa 4,25 m gazlama sarflandi. Ko'ylak va xalatga necha metr gazlama ishlatildi? **Yechish:** $1\frac{1}{5}$ m + 4,25 m = 5,45 m.

$1\frac{1}{5}$ kasr o'nli kasr shaklida shunday yozildi: $1\frac{1}{5} = 1,2$.

O'nli kasrlarni qo'shamiz:

$$1,2 \text{ m} + 4,25 \text{ m} = 5,45 \text{ m} = 5 \text{ m } 45 \text{ sm}.$$

Javob: Ko'ylak va xalatga 5 m 45 sm gazlama sarflandi.



Oddiy va o'nli kasrlar ustidagi amallarni ikki usul bilan bajarish mumkin:

- 1) Oddiy kasrlarning hammasini o'nli kasrlarga aylantirish va o'nli kasrlar bilan amallarni bajarish kerak.
- 2) O'nli kasrlarning hammasini oddiy kasrlarga aylantirish va oddiy kasrlar bilan amallarni bajarish kerak.

462. Oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirib, amallarni bajarib:

$$0,7 + \frac{1}{2}$$

$$0,8 + \frac{2}{5}$$

$$2\frac{17}{20} + 4,87$$

$$0,75 + \frac{3}{4}$$

$$1,2 - \frac{7}{20}$$

$$6,1 - 2\frac{1}{4}$$

$$\frac{5}{8} + 0,6$$

$$2,07 - \frac{15}{100}$$

$$8\frac{3}{4} - 3,96$$


463. Yer uchastkasi yashil butalar bilan o'ralgan bo'lib, uchastkaning bo'yi 8,15 m, eni esa $3\frac{3}{4}$ m ga qisqa. Yashil butalar uzunligini toping.

464. Masala tuzing va yeching:

I kun – 11,5 m

II kun – $19\frac{7}{10}$ km

III kun shuncha



465. Oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirib, misollarni yeching:

$$4\frac{2}{5} - 2,95 + 3,8$$

$$4,2 - 1\frac{9}{10} + 7,496$$

$$15\frac{1}{2} + 9\frac{4}{5} + 6,15$$

$$9,31 - 1\frac{3}{5} - 0,45$$

$$28\frac{9}{20} - 12,436 + 5\frac{5}{8}$$

$$7\frac{3}{8} + 8,6 - 9\frac{2}{5}$$

466. $2\frac{3}{4}$ m uzunlikdagi taxtadan ikki bo'lak arralab olindi. Birinchi bo'lagining uzunligi 0,75 m, ikkinchisi undan $\frac{1}{2}$ m ortiq. Ikkinchi bo'lak taxtaning uzunligini toping.

467. Oddiy kasrni o'nli kasrga aylantirib, amallarni yeching:

$$0,5 + 16\frac{5}{6} - 9\frac{1}{12}$$

$$14\frac{8}{15} - 5\frac{7}{30} + 3,9$$

$$7,25 - 5\frac{3}{4} + 7\frac{5}{8}$$

$$8,3 + 4\frac{2}{9} - 9\frac{2}{3}$$

$$100 - 27\frac{5}{6} - 19,7$$

$$29\frac{1}{9} - 0,06 + 7\frac{2}{3}$$

468. 948 ning 0,25 ini va 948 ning $\frac{1}{4}$ ni toping. Nima uchun bir xil javob chiqdi? Sonning 0,25 ini topishning oson usuli qaysi?

469. Oddiy kasrlarni 0,001 aniqlikgacha o'nli kasrlarda ifodalab, amallarni bajaring:

$$\frac{3}{8} + 0,75$$

$$\frac{7}{9} - 0,217$$

$$\frac{2}{9} + 17,88$$

$$5,087 + \frac{4}{11}$$

$$\frac{11}{15} - 0,283$$

$$\frac{5}{6} + 12,075$$

$$\frac{10}{13} - 0,297$$

$$5,188 + \frac{13}{16}$$

$$1,8 - \frac{1}{3}$$

470. 2 ta yuk mashinasi terilgan kartoshkalarini daladan sabzavot omboriga tashidilar. Birinchi mashinaga $1\frac{1}{2}$ t, ikkinchisiga 2,5 t dan kartoshka ortildi. Agar birinchi mashina 6 marta, ikkinchisi 4 marta qatnagan bo'lsa, necha tonna kartoshka tashildi?

471. 5 m simdan 2 bo'lak sim qirqib olindi. I bo'lak $1\frac{3}{20}$ m, II bo'lak $1\frac{7}{20}$ m. Necha metr sim qoldi?

472. Oddiy kasrlarni o'qli kasrlarga aylantirib, amallarni bajaring:

$$0,8 \cdot 15 - \frac{3}{4} \cdot 12$$

$$\frac{7}{8} \cdot 29 - 0,35 \cdot 37$$

$$5,6 \cdot 15 + \frac{3}{4} \cdot 18$$

$$9,31 : 49 - \frac{1}{8} : 25$$

$$\frac{4}{5} : 25 + 0,85 : 17$$

$$17 \frac{5}{8} \cdot 38 - 3,56 \cdot 40$$

$$\frac{7}{20} : 70 + 0,918 : 18$$

$$\left(80 \frac{2}{5} - 18,9\right) : 75$$

473. Atelyeda 92,8 m jun gazlamadan 29 ta erkaklar paltosi, $49 \frac{1}{2}$ metridan 18 ta ayollar paltosi tikildi. 1 ta ayollar paltosiga qaraganda 1 ta erkaklar paltosi uchun qancha ko'p gazlama sarflandi?

474. Amallarni bajaring:

$$(2 - 0,545) : 5 + \left(\frac{4}{5} - 0,375\right) \cdot 8$$

$$\left(4 \frac{4}{5} - 3,432 : 3\right) + \left(8 \frac{3}{5} + 0,75 \cdot 4\right)$$

475. 1) Musobaqada 80 o'quvchi qatnashdi. O'quvchilarning $\frac{1}{4}$ qismini qizlar tashkil etdi. Musobaqaga nechta qiz qatnashdi?

2) Tuman olimpiadasida 90 nafar o'g'il bolalar va 70 nafar qiz bolalar qatnashdi. Birinchi kuni barcha bolalarning chorak qismi ishtirok etdi. Musobaqaning I kuni necha nafar o'quvchi ishtirok etdi?

476. 1) Uy bekasi 5200 so'm sarfladi. Bu bor pulning $\frac{1}{3}$ qismini tashkil etdi. Uy bekasida hammasi bo'lib qancha pul bor edi?

2) Uy bekasida 12000 so'm pul bor edi. U pulning $\frac{1}{3}$ qismiga xarid qildi. Uy bekasi qancha pul sarfladi?

Masalalar farqini toping.

477. 1) Sutkaning $\frac{1}{6}$ ini; yilning $\frac{3}{4}$ ini; soatning $\frac{5}{12}$ ini toping.

2) 4 minutning $\frac{1}{5}$ ini; 6 oyning $\frac{1}{2}$ ini; 2 soatning $\frac{1}{12}$ ini;

4 soatning $\frac{1}{15}$ ini tashkil etuvchi sonlarni toping.

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Yuk tashish poyezdi 1-soatda 38,9 km, ikkinchi soatda $39\frac{1}{5}$ km, 3-soatda $39\frac{1}{2}$ km va 4-soatda 40 km yo'l bosdi. Poyezd 4 soatda hammasi bo'lib necha kilometr yo'l bosdi?

2. Qulupnay terishda I egatdan 16,7 kg qulupnay, II egatdan unga qaraganda $4\frac{3}{4}$ kg ko'p, III egatdan I egatga qaraganda 1,45 kg kam qulupnay terildi. Qulupnaydan yig'ilgan hosilni aniqlang.

3. Misollarni yeching:

$$\left(7,318 - 2\frac{1}{5}\right) : 10;$$

$$\left(14\frac{7}{8} - 2,8\right) \cdot 2;$$

4. $\left(9\frac{1}{8} + 16,5\right) \cdot 12;$

$$9\frac{1}{4} \cdot 16 - 32,88 : 12;$$

$$7,05 : 15 + 1\frac{1}{4} \cdot 5;$$

$$\frac{3}{10} + 0,7;$$

$$2 - \frac{11}{100}.$$

PROTSENTLAR



PROTSENT HAQIDA TUSHUNCHA


Protsent so'zi lotincha «protsentum» so'zidan olingan bo'lib, sonning yuzdan bir ulushi ma'nosini bildiradi.



Har qanday sonning yuzdan bir qismi shu sonning bir protsenti deb ataladi.

Son ketidan «protsent» so'zi ishlatilsa, uning o'rniga % belgisi qo'yiladi. Protsent xo'jalik, moliya, statistik hisoblashlarda ishlatiladi. Masalan: «Yer uchastkasining 20%i ekin maydoni uchun ajratildi» gapi shunday o'qiladi: «Yer uchastkasining 20 protsenti ekin maydoni uchun ajratildi».

478. Daftaringizga kvadrat chizing va uni 100 ta teng qismlarga bo'ling. 1 ta katak kvadratning $\frac{1}{100}$ qismini tashkil etadi.



Protsent shunday ifodalanadi: %

$$\frac{1}{100} = 1\% \quad 1\% = \frac{1}{100} = 0,01$$

479. $1 \text{ sm} = 0,01 \text{ m} = 1\%$ $1 \text{ ar} = 0,01 \text{ ga} = \dots\%$
 $1 \text{ t} = 0,01 \text{ sr} = \dots\%$ $1 \text{ kg} = \dots \text{ sr} = \dots\%$

480. 1 sm metrning qanday qismi?
1 tiyin so'mning qanday qismi?
1 ar gektarning qanday qismi?

Metrning yuzdan bir qismi **santimetr** deb ataladi.
So'mning yuzdan bir qismi **tiyin** deb ataladi.
Gektarning yuzdan bir qismi **ar** deb ataladi.

481. 1) Butun sonlarni 100 ga bo'lish qoidasini eslang:
Har bir sonni 100 ga bo'ling:
200, 600, 1000, 2300, 82 000, 40 000.

2) Sonning qanday qismi hosil bo'ldi? Sonning $\frac{1}{100}$ qismi nima deb ataladi? Demak, siz sonning 1% ini hosil qildingiz.

482. Har bir sonning $\frac{1}{100}$ qismini toping:

200, 600, 1800, 4000, 7000, 58 000, 90 000, 197 500,
20000, 630 000.

Sonning $\frac{1}{100}$ qismi nima deb ataladi? Demak siz ... hosil qildingiz.

483. Kitob 300 betlik. O'quvchi uning $\frac{1}{100}$ qismini o'qidi. O'quvchi kitobning necha betini o'qidi? Bu necha protsentni tashkil etadi?

484. Sonlarni o'nli kasr shaklida yozing. O'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarni yiriklash qanday amal bilan bajariladi, eslang.

$$275 \text{ sm} = \dots \text{ m}$$

$$67 \text{ sm} = \dots \text{ m}$$

$$8 \text{ sm} = \dots \text{ m}$$

$$1250 \text{ sm} = \dots \text{ m}$$

$$800 \text{ kg} = \dots \text{ sr}$$

$$915 \text{ kg} = \dots \text{ sr}$$

$$47 \text{ kg} = \dots \text{ sr}$$


$$9 \text{ kg} = \dots \text{ sr}$$

485. 1200 ta katak daftar olib kelindi. Uning $\frac{1}{100}$ qismi bir chizikli daftarlar bo'lib chiqdi. Bir chizikli daftarlar soni nechta va ular necha protsentni tashkil etadi?

486. Fabrikada 18 200 m mato to'qildi. Ish sifati tekshirilganda, matoning 0,01 qismi yaroqsiz bo'lib chiqdi. Bu necha protsentni tashkil etadi? Necha metr mato sifatli deb topildi?

O'NLI KASRLARNI PROTSENT BILAN ALMASHTIRISH

487. Rasmni qarang.



Kvadratning $\frac{1}{100}$ qismi 1% ni tashkil etadi;

$\frac{3}{100}$ qismi 3% ni tashkil etadi;

$\frac{15}{100}$ qismi 15% ni tashkil etadi;

Kvadratning 7%; 21%; 50%; 67%; 99% ini ko'rsating va ularni bo'yab chiqing.

488. Do'konga 850 kg bodring keltirildi. Hamma bodringning $\frac{1}{100}$ qismi sotildi. Qancha bodring sotilgan? U necha protsentni tashkil etadi? Yana necha kilogramm bodring sotilishi kerak?

489. 1) Jadvalni ko'rib chiqing, uni daftaringizga yozib oling va eslab qoling:

Oddiy kasrlar	O'nli kasrlar	Protsentlar
$\frac{1}{100}$	0,01	1%
$\frac{3}{100}$	0,03	3%
$\frac{15}{100}$	0,15	15%
$\frac{99}{100}$	0,99	99%
1	1,0	100%



Kasr sonni protsentga aylantirish uchun bu son 100 ga ko'paytiriladi. Kasrlarni protsent bilan almashtirish, son-da yuzdan bir ulush nechta borligini bilish demakdir.

2) Kasr sonlarni protsent bilan almashtiring. Sonni 100 ga ko'paytirish qoidasini eslang.

$$0,04 = 4\% \quad 0,99 = 99\% \quad 1,5 = 150\% \quad \frac{7}{100} = 7\%$$

$$0,07 = \quad 1 = \quad 3,04 = \quad \frac{17}{100} =$$

$$0,9 = \quad 2 = \quad 8,09 = \quad 1\frac{9}{100} =$$

$$0,36 = \quad 3 = \quad 17,62 = \quad 3\frac{21}{100} =$$

$$0,75 = \quad 7 = \quad 14,1 =$$

$$0,96 = \quad 12 = \quad 15 = \quad 2 =$$

490. Quyidagi kasrlarni protsentlarda ifodalang:

0,15; 0,24; 0,38; 0,97; 0,99; 1,2; 1,8; 1,65; 2,04; 0,02.

Son protsentga qanday qilib almashtiriladi?

491. Sonlarni jadvalga o'qli kasr va protsent shaklida yozing.

Oddiy kasrlar	O'qli kasrlar	Protsentlar
$\frac{1}{100}$	0,01	1%
$\frac{16}{100}$		
$5\frac{13}{100}$		
$\frac{75}{100}$		
$1\frac{9}{100}$		
3		
$\frac{8}{100}$		

492. Protsentlarga almashtiring:

0,02; 0,04; 0,09; 0,12; 0,97; 1; 5; 1,06; 1,99; 2,8; 7.

PROTSENTNI O'QLI KASR BILAN ALMASHTIRISH

493. Protsentlarni o'qli kasr ko'rinishida yozing:

4%	12%	25%	48%	74%
80%	96%	90%	99%	94%

494. Tomoni 10 sm bo'lgan kvadrat chizing. Uni teng 100 bo'lakka bo'ling. Kvadratning 1% ini bo'yang. Nechta katakni bo'yash kerak? 1% kvadratning qanday bo'lagini tashkil etadi?

Kvadratning 15% ini bo'yang. Nechta katakni bo'yash kerak? 15% kvadratning qanday bo'lagini tashkil qiladi?

495. Protsentlarni o'nli kasrlarga almashtiring:

Namuna: $1\% = 0,01$.

3%	2%	4%	35%	9%	89%
7%	5%	6%	49%	15%	
4%	8%	13%	50%	27%	

496. Sonning qanday bo'lagini tashkil qiladi:

3%	7%	18%	22%	39%
75%	88%	90%	74%?	



Protsentlar sonini o'nli kasrga almashtirish uchun sonni 100 ga bo'lish kerak.

497. O'nli kasr ko'rinishda yozing:

2%	12%	40%	14,8%	100%
6%	32%	60%	27,1%	105%
9%	49%	80%	9,6%	260%
10%	56%	90%	9,3%	385%

498. Uzunligi 10 sm bo'lgan kesma chizing. Uzunligi shu kesmaning 5%, 10%, 20%, 40%, 50%, 75% iga teng bo'lgan kesmalarni chizib ko'rsating.

499. Protsentlar sonini oddiy kasr ko'rinishida ifodalang:

Namuna: $2\% = \frac{2}{100} = \frac{1}{50}$

4% 76% 25% 54% 10% 80% 50% 100%

500. O'quvchi maktabdan uygacha 1 km yurishi kerak. O'quvchi bu masofaning $\frac{1}{10}$ bo'lagini bosib o'tdi. U yo'lning necha protsentini bosib o'tgan?

501. Sinfimizda 40 ta o'quvchi bor. O'g'il bolalar sinfdagi hamma o'quvchilarning $\frac{1}{10}$ qismini tashkil etadi. Sinfimizda nechta o'g'il bola o'qiydi?

502. 6-sinf o'quvchilari 300 kg temir-tersak yig'ish majburiyatini olishdi. Ular o'z majburiyatlarini 100% qilib bajarishdi. O'quvchilar qancha temir-tersak yig'ishgan?

503. Quyidagi protsentlarni oddiy kasr shaklida ifodalang:

Namuna:

$$2\% = \frac{2}{100} = \frac{1}{50}$$

$$10\% = \frac{10}{100} = \frac{1}{10}$$

$$20\% = \quad 75\% =$$

$$50\% = \quad 25\% =$$

504. Uzunligi 10 sm li hoshiya chizing. Uning $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{5}$, $\frac{1}{10}$ qismini bo'yang. Bu necha protsentni tashkil etadi?

505. Sinfda o'quvchilar soni 15 ta bo'lib, hafta davomida davomat 100% ni tashkil etdi. Har kuni nechta o'quvchi darsga qatnashgan?

506. Yuzi 80 ga bo'lgan bog'ning $\frac{1}{10}$ bo'lagiga qulupnay ekilgan. Qulupnay ekilgan yerning yuzi qancha?
507. 1 m simdan 75 sm qirqib olindi. Ushbu sonni o'nli kasr va protsent shaklida ifodalang.
508. 1 m gazlamaning 25 sm bo'lagi yoqa uchun qirqib olindi. Bu sonni o'nli kasr va protsentlarda ifodalang.
509. Ko'paytuvchini o'nli kasr shaklida yozing:
- | | |
|-----------------|-----------------|
| 6 m 8 sm · 40 | 15 m 20 sm · 35 |
| 5 sr 32 kg · 90 | 90 m 8 sm · 46 |
| 10 m 15 sm · 27 | 24 sr 6 kg · 18 |
510. Sonning yarmi uning necha protsentini tashkil qiladi? To'rt-dan biri-chi? Sonning 20% i uning qanday qismini tashkil qiladi?
511. 7500, 3600, 50, 25, 80, 75 ning 0,01 bo'lagini toping.
512. Kitob 400 betli. O'quvchi kitobning $\frac{1}{100}$ qismini o'qidi. O'quvchi necha bet kitob o'qigan? Bu necha protsentini tashkil etadi?

SONNING 1% INI TOPISH

513. 1) Toping:



Har bir sonning necha protsentini topdingiz? Qanday amaldan foydalandingiz?

2) Toping:

200	800	5900	70 000	125 000	→	ning 0,01 qismi ?%
-----	-----	------	--------	---------	---	--------------------

Har bir sonning necha protsentini topdingiz? Qanday amaldan foydalandingiz?

1% ham kasr son hisoblanadi, faqat yozish shakli alohidaligi bilan farq qiladi. $1\% = \frac{1}{100} = 0,01$



Yodda tuting: 1% – sonning yuzdan bir bo‘lagi. Sonning 1% ini topish shu sonning yuzdan bir bo‘lagini topish demakdir.

514. 1) 500 so‘mning 1% ini topamiz.

$$500 \text{ so‘m} : 100 = 5 \text{ so‘m}$$

2) 250 kg ning 1% ini topamiz.

$$250 : 100 = 2,5 \text{ kg yoki } 2 \text{ kg } 500 \text{ g.}$$

515. Sonlarning 1% ini toping:

400	350	75	9	312,6
700	640	98	6	75,8
908	1250	80	7	10,3

516. Sonlarning 1% ini toping:



290 kg	274 m	1700 km	11240 so‘m
175 m	360 km	2800 so‘m	22500 so‘m
660 m	280 t	8900 so‘m	42700 so‘m

517. Chorva mollarini sug‘oradigan joyga 220 ta ot va toychoqlar haydab kelindi. Toychoqlar otlarning 1% ini tashkil qiladi. Toychoqlar nechta bo‘lgan?

518. Kutubxonada 35 000 dona kitob bor. Ularning 1% ini badiiy kitoblar tashkil qiladi. Kutubxonada nechta badiiy kitob bor?

519. Poyabzal fabrikasi 12 600 juft oyoq kiyim ishlab chiqardi. Uning 1% ikkinchi navga qabul qilindi. Fabrikada chiqarilgan necha protsent oyoq kiyim birinchi navni tashkil qiladi?

520. Masala tuzing va uni yeching.



521. G'alla omborxonada saqlanib, umumiy massaning 1% og'irligi kamaydi. 40 t g'alladan necha tonna qoldi? Javobni kilogrammda ifodalang.



523. Har bir xodim har oyda maoshining 1 protsentini nafaqa jamg'armasiga to'laydi. 60 000 so'm, 55 000 so'm, 35 170 so'm, 190 300 so'm maoshdan necha so'mi jamg'armaga to'lanadi?

524. Usta bilan shogirdi 120 ta kerakli qism tayyorladi. Shogird hamma kerakli qismning 1%ni tayyorladi. Shogirdi nechta jihoz tayyorlagan?


525. Ishchi yetmish besh ming so'm maosh oladi. Har oyda maoshining 1%ini kasaba uyushma qo'mitasiga to'laydi. Ishchi bir yilda kasaba uyushma qo'mitasiga qancha pul to'laydi?

526. Do'konga 1500 kg olma sotildi. Agar olmaning 1% i ikkinchi navli bo'lsa, birinchi navli olma necha kilogramm bo'lgan?

SONNING BIR NECHA PROTSENTINI TOPISH

527. Sonning bir necha qismini topishni eslang:

1) 6 m uzunlikdagi tasmaning $\frac{2}{3}$ qismi qirqib olindi. Necha metr tasma qirqib olindi?



2) 40 ning $\frac{4}{5}$; 16 ning $\frac{5}{8}$; 350 ning $\frac{2}{7}$ qismini toping.

3)

160	840	72,5	40,8	35
-----	-----	------	------	----

 ning $\frac{3}{100}$ qismini toping

40	55	100	21,5	7,1
----	----	-----	------	-----

 ning 0,02 qismini toping

528. Maktab-internatda 300 o'quvchi bor. Ularning 45% ini qizlar tashkil qiladi. Maktab-internatda necha nafar qiz bola o'qiydi? Bu masalani yechish uchun 300 ning 45% ini topish kerak.

1) 300 ning 1% ini topamiz.

300 kishi : 100 = 3 kishi.

2) 45% 1% dan 45 marta katta demakdir.

3 kishi · 45 = 135 kishi (qiz bola).

Javob: maktab-internatda 135 nafar qiz bola o'qiydi.

529. 250 so'mning 80% ini toping.

$250 : 100 = 2,5$ so'm

$\begin{array}{r} \times 2,5 \\ 80 \\ \hline 200,0 \end{array}$ so'm

7200 so'm, 4550 so'm, 8100 so'mning 90% ini toping.



Sonning bir necha protsentini topish uchun bu sonni 100 ga bo'lish va chiqqan bo'linmani protsentlar soniga ko'paytirish kerak.

530. 2400 ning 6% ini, 360 kg ning 15% ini, 80 t ning 27% ini, 6 km ning 30% ini toping.

531. Do'konda uch kunda 1280 kg olma sotildi. Birinchi kuni hamma olmaning 25%i, ikkinchi kuni 45%i sotildi. Uchinchi kuni necha kilogramm olma sotildi?

532. Shahar ko'chalarini ko'kalamzorlashtirish uchun yo'l bo'ylab 64 tup daraxt ko'chati o'tqazildi. Ulardan $\frac{5}{8}$ qismi tol, qolganlari terak. Necha tup tol va necha tup terak o'tqazilgan?

533.

5600	740	90	16	8	12,5
------	-----	----	----	---	------

 $\xrightarrow{\text{ning}}$

24% ni toping

534. Toping:

40,8 kg ning 1%

3485 km ning 40%

4195 km ning 23%

1370 kg ning 8%

48,7 t ning 1%

501 m ning 72%

535. Rasmga qarab masalalar tuzing va ularni yeching:

a) 3 m  - ? m b) 2,5 m



 - 47%



\rightarrow 70%

\rightarrow ? m

536. Amallarni bajaring:

1) $40230 - 380 \cdot 40 + 26970$

$600\ 000 - 976 \cdot 30$

$16210 + 12\ 000 : 100 - 8706$

$2916 + 185\ 000 : 1\ 000 + 61\ 290$

$(60\ 990 + 12\ 240) - 53\ 295$

2) $560 : 20$

$5400 : 90$

$9100 : 100$

$780 : 20$

$6370 : 70$

$543\ 300 : 1000$

3) $4\ 900 : 700$

$900\ 000 : 1000$

$720\ 000 : 800$

537. Xaridorda 500 so'm pul bor edi. U pulining $\frac{4}{5}$ qismiga guruch oldi. Xaridor necha so'mga guruch sotib oldi? Xaridorning yana qancha puli qolgan?

538. Misollarni yeching:

$$(49 \text{ m } 18 \text{ sm} + 7 \text{ m } 82 \text{ sm}) : 5$$

$$76 \text{ sr} - 18,52 \text{ sr} : 12$$

$$500 \text{ m} - 36 \text{ m } 6 \text{ sm} \cdot 13$$

$$124 \text{ m } 32 \text{ sm} : 24$$

$$30 \text{ ga } 40 \text{ ar} + 7 \text{ ga } 24 \text{ ar} \cdot 15$$

$$201,6 \text{ kg} : 12$$

$$9 \text{ kg } 800 \text{ g} \cdot 26$$

$$37 \text{ t } 19 \text{ kg} \cdot 17$$

539. Qishloqda 2400 uy bor. Hamma uyning 35% i yog'och uy, qolganlari g'ishtin uy. Qishloqda nechta gishtin uy bor?

540. 1 tonna neftni qayta ishlaganda 30% kerosin olinadi. 12 t; 28 t; 36 t neftdan qancha kerosin olish mumkin?

541. Sinfimizda 30 nafar o'quvchi bor. O'g'il bolalar sinfdagi hamma o'quvchining 55% ini tashkil qiladi. Qizlar necha protsentini tashkil qiladi. Sinfda nechta nafar qiz bola o'qiydi?

542. Go'sht qaynatilgandan so'ng o'zining 40% og'irligini yo'qotadi. 500 g, 1 kg, 1,5 kg, 2 kg go'shtning pishgandan so'nggi massasini toping.

543. Baliqchilar 2400 kg baliq tutishdi. Hamma baliqning 60%i sazan, qolgani laqqa baliqlardir. Baliqchilar necha kilogramm laqqa balig'idan tutishgan?

544. Bo'yoqchi olingan bo'yoqning $\frac{4}{5}$ qismini ishlatdi. Agar 100 kg bo'yoq sotib olingan bo'lsa, qancha bo'yoq qolgan?

545. Fermer xo'jaligining 250 ga haydaladigan yeri bor. Hamma yerning 70% iga bug'doy, 18% iga yem-xashak ekinlari, qolgan yerga sabzavot ekinlari ekilgan. Necha gektar yerga sabzavot ekinlari ekilgan? Masalani ikki usul bilan yechish mumkin.

1-usul

1) Bug'doy necha gektar yerga ekilgan?

250 ga ning 70%i

$$\begin{array}{r} 250 \text{ ga} : 100 = 2,5 \text{ ga} \\ \times 70 \\ \hline 175,0 \text{ ga} \end{array}$$

2) Yem-xashak necha gektar yerga ekilgan?

250 gektarning 18%i

$$\begin{array}{r} 250 \text{ ga} : 100 = 2,5 \text{ ga} \\ \times 18 \\ \hline 45,0 \text{ ga} \end{array}$$

3) Necha gektar yerga bug'doy va yem-xashak ekilgan?

175 ga + 45 ga = 220 ga.

4) Necha gektar yerga sabzavot ekilgan?

250 ga - 220 ga = 30 ga.

Javob: 30 gektar yerga sabzavot ekilgan.

2-usul

1) Yerning necha protsentiga bug'doy va yem-xashak ekilgan?

70% + 18% = 88%.

2) Fermer xo'jaligining haydalgan hamma yeri 100% ni tashkil qiladi.

Yerning necha protsentiga sabzavot ekilgan?

100% - 88% = 12%.

3) Necha gektar yerga sabzavot ekilgan?

250 ga ning 12%i ga

$250 : 100 = 2,5$ ga

$$\begin{array}{r} \times 2,5 \text{ ga} \\ 12 \\ \hline 50 \\ + 25 \\ \hline 30,0 \text{ ga} \end{array}$$

Javob: 30 gektar yerga sabzavot ekilgan?

546. Fermer xo'jaligi 140 gektar yerni bog' qilgan. Bog'ning 56%i olmazor, 19%i nokzor, qolgani o'rikzor. Fermer xo'jaligining necha gektar yeri o'rikzor?

547. Amallarni bajaring:

$$700 \cdot 10 + 69785$$

$$1920 \cdot 100 - 18121$$

$$29706 \cdot 10 + 61735$$

$$229700 : 100 + 6312$$

$$397000 : 1000 + 67131$$

$$720000 : 100 - 3546$$

548. Tajriba uchastkasining bo'yi 200 m, eni 150 m. Uning 40%iga sholi, 24% iga qand lavlagi, 18%iga bug'doy, 22%iga makkajo'xori, qolganiga kungaboqar ekildi. Kungaboqar qancha yerga ekilgan?

549. Chizmaga ko'ra masala tuzing va uni yeching:

$$S = 250 \text{ ga}$$

Bug'doy	Arpa	Sabzavot
70%	18%	?

550. $84 \text{ km } 300 \text{ m} - 3 \text{ km } 150 \text{ m} \cdot 16$ | $6 \text{ t} - 92 \text{ t } 952 \text{ kg} : 18$
 $90 \text{ km } - 3 \text{ km } 58 \text{ m} \cdot 14$ | $4 \text{ t} - 75 \text{ t } 96 \text{ kg} : 24$
 $3 \text{ km } 965 \text{ m} + 2 \text{ km } 45 \text{ m} \cdot 23$ | $12 \text{ kg} + 65 \text{ kg } 142 \text{ g} : 21$
 $7 \text{ km } 843 \text{ m} + 4 \text{ km } 89 \text{ m} \cdot 13$ | $948 \text{ g} + 288 \text{ kg } 512 \text{ g} : 32$

551. Amallarning bajarilish tartibiga ko'ra misollarni yeching:

$$56,7 \cdot 20 - (5684 : 28 - 0,289) + 0,675 \cdot 0$$

$$(1168 : 73 + 58,8) - (0,3 \cdot 75 - 19,385) + (430,07 - 289,006) \cdot 10$$

552. Usta reja bo'yicha 300 ta kerakli jihoz ishlashi kerak. U rejani 15% oshirib bajardi. Usta nechta jihoz ishlagan? Masalani ikki usul bilan yechish mumkin:

1-usul

1) Usta rejadan tashqari nechta jihoz ishlagan?

300 ta jihozning 15% i

$$300 \text{ jihoz} : 100 = 3 \text{ jihoz}$$

$$3 \text{ jihoz} \cdot 15 = 45 \text{ jihoz}$$

2) Usta nechta jihoz ishlagan?

$$300 \text{ jihoz} + 45 \text{ jihoz} = 345 \text{ jihoz.}$$

J a v o b: 345 ta jihoz ishlagan.

2-usul

300 ta jihoz 100% bo'ladi. Usta rejani 100% va yana 15% oshirib bajargan.

1) Usta rejani nechta protsent bajarganini bilish kerak:

$$100\% + 15\% = 115\%.$$

2) Usta nechta jihoz ishlagan? 300 jihozning 15%-i-chi?

$$300 \text{ jihoz} : 100 = 3 \text{ jihoz}$$

$$3 \text{ jihoz} \cdot 115 = 345 \text{ jihoz}$$

J a v o b: 345 ta jihoz ishlagan.

553. O'smir va yoshlar uyushmasi 2500 kg temir-tersak yig'ish topshirig'ini oldi. Ular topshiriqni 18% oshirib bajarishdi. O'quvchilar necha kilogramm temir-tersak yiqqan?

554. Fermer xo'jaligi 1400 ga yerdan paxta hosili yig'ishtirib olishi kerak. Fermer xo'jaligi 70% yerdan paxta hosilini yig'ishtirib oldi. Yana necha gektar yerdan paxta hosilini yig'ishtirib olinishi kerak?

555. 20 soni avval 30% ga orttirilib, so'ngra orttirilgani 30% kamaytiriladi. Hosil bo'lgan son kattami yoki 20 mi?

556. Quyidagilarni toping:

45 kg ning 7% ini	100 sr ning 6% ini
2 t ning 14% ini	1 kg ning 18% ini
16 m ning 25% ini	300 g ning 40% ini
1000 km ning 70% ini	12 t ning 75% ini
250 kg ning 40% ini	60 kg ning 150% ini

557. Toping:

20 ning 5% ini	60 ning 30% ini
50 ning 42% ini	1800 ning 49% ini
125 ning 76% ini	650 ning 54% ini
4500 ning 105% ini	
16 ning 200% ini	
4800 ning 224% ini	

558. Toping:

16,5 ning 2% ini
14,6 ning 3% ini
81 ning 15% ini

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Zavod har kuni 140 tadan tikuv mashinasi ishlab chiqarishi kerak. Lekin u kunlik rejasini 50% oshig'i bilan bajardi. Zavod har kuni nechtadan tikuv mashinasini ishlab chiqargan?
2. Dam olish uyidagi 450 nafar kishining 40% i erkaklar, qolganlari ayollardan iborat. Dam oluvchi ayollar necha nafarni tashkil etadi?
3. Hisoblang:
400 kg ning 1% ini | 600 ning 2% ini | 375 ning 20% ini
312,6 t ning 1% ini | 9000 ning 5% ini | 13,5 ning 10% ini
1500 ning 1% ini | 1370 ning 7% ini | 1000 ning 80% ini
4. 300 tup aturgul ko'chati o'tkazildi. Ularning 1% ini oq aturgul-lar tashkil etdi. Necha tup oq aturgul ko'chati o'tqazilgan?
5. Misollarni yeching:
720000 : 100 – 3546 229700 : 100+6312

SONNING PROTSENTINI TOPISHNI UNING BO'LAGINI TOPISH BILAN ALMASHTIRISH

559. 500 so'mning 10% ini toping.

$$10\% = \frac{10}{100} = \frac{1}{10} \quad 500 \text{ so'm} : 10 = 50 \text{ so'm.}$$



Sonning 10% ini topish uchun shu sonning $\frac{1}{10}$ qismini topish, ya'ni ushbu sonni 10 ga bo'lish kerak.

560. Sonlarning 10% ini toping:

3800 so'm	360 kg	290 m	3 so'm
760 so'm	3780 kg	2600 so'm	9 kg
4530 so'm	4000 kg	740 kg	90 so'm

561. Maktab yer uchastkasiga 120 tup ko'chat o'tqazildi. Bu ko'chatlarning 10% i o'rik, qolganlari olma ko'chati. Qancha olma ko'chati o'tqazilgan?

562. 5300 so'mning 20% ini toping.

$$20\% = \frac{20}{100} = \frac{1}{5}. \quad 5300 : 5 = 106 \text{ so'm}$$



Sonning 20% ini topish uchun uning $\frac{1}{5}$ bo'lagini topish, ya'ni ushbu sonni 5 ga bo'lish kerak.


563. Sonlarning 20% ini toping:

1500 m	600 m	75 m	1 m	30 m
450 t	190 t	60 t	2 t	45 t
2000 so'm	485 so'm	70 t	1 so'm	10 m

564. «O'zbekiston» mahallasida 1400 ta uy bor. Hamma uyning 20% ini betonli uylar, qolganlarini g'ishtin uylar tashkil qiladi. Mahalladagi betonli uylar g'ishtin uylardan qancha kam?

565. Zavodda 2500 nafar ishchi ishlaydi. Hamma ishchilarning 10%i navbatdagi mehnat ta'tili vaqtida sanatoriylarga, qolganlari dam olish uylariga yo'llanmalar oldilar. Sanatoriya va dam olish uylarida qancha ishchi dam oladi va davolanadi?

566. Misollar tuzing va ularni yeching.



567. Ikki bo'linmaning yig'indisini toping:

$$\begin{array}{l|l} 13\ 452 : 19 + 65\ 160 : 72 & 90\ 108 : 18 + 168\ 504 : 56 \\ 33\ 522 : 37 + 77\ 088 : 96 & 245\ 315 : 35 + 567\ 504 : 63 \end{array}$$

568. 416 so'mning 25% ini topamiz:

$$25\% = \frac{25}{100} = \frac{1}{4}. \quad 416 : 4 = 104 \text{ so'm.}$$



Sonning 25% ini topish uchun shu sonning $\frac{1}{4}$ bo'lagini topish kifoya.

569. Sonlarning 25% ini toping:

1600 km	860 m	300 km	72 km	1 km
800 sr	480 sr	64 sr	56 sr	1 sr

570. Yangi uyda 120 ta xonadon bor. Hamma xonadonlarning 25% i bir xonali, 20% i uch xonali, qolganlari ikki xonali. Bu uyda ikki xonali xonadon uch xonali xonadonlardan qancha ortiq?

571. Fermer bir gektar yerdan 27 sr g'alla o'rib olishni rejalashtirib, o'z rejasini 25% ortig'i bilan bajardi. Fermer 28 ga yerdan qancha g'alla yig'ib oldi?

572. Yosh oila kredit uchun bankdan 5 000 000 so'm pul oldi. U kreditning 10% ini I oyda, 20% ini II oyda, 25% ini III oyda to'lashga erishdi. Oila bankka yana qancha pul to'lashi kerak?

573. Sonlar qatoridan 1000 ga qoldiqsiz bo'linadigan sonlarni ko'chirib yozing.

924, 513 000, 642 000, 780, 132 000, 437 600, 751 300, 732 000.

574. Kvadrat chizing, uni 100 ta teng kataklarga bo'ling. Kvadratning 50% ini bo'yang. Kvadratning qancha qismi bo'yaldi?

575. 46 metrning 50% ini topamiz:

$$50\% = \frac{50}{100} = \frac{1}{2}. \quad 46 \text{ m} : 2 = 23 \text{ m}.$$



Sonning 50% ni topish uchun shu sonning $\frac{1}{2}$ bo'lagini topishimiz kifoya.

576. Sonlarning 50% ini toping:

7600 m	184 m	60 m	90,4 m	3 m
4500 g	750 g	186 g	70,2 g	16 g
1650 so'm	908 so'm	450 so'm	94 so'm	65,4 so'm

577.

6850	784	7840	9762	320	4500
------	-----	------	------	-----	------

 →

50% ini toping

578. Xo'jalik yeridan 3 t kartoshka qazib olindi. Uning 50% i bozorga, 10% i urug'likka, topshirildi. Necha tonna kartoshka qoldi.

579. Masalalarni og'zaki yeching:

1) Maktabdan uygacha bo'lgan masofa 1 km ni tashkil etadi. O'quvchi masofaning 50% ini bosib o'tdi. U yana qancha yo'l yurishi kerak?

2) Fermer xo'jaligidan 50 kg tvorog va smetana sotish uchun keltirildi? Smetana 50 % ni tashkil etsa, tvorogning massasini toping.

3) Uy tomi uchun 8000 ta qizil va yashil rangli temir cherepitsa sotib olindi. Qizil temir cherepitsa 50 % ni tashkil etsa, yashil temir cherepitsa miqdorini toping.

580. 1) **250 ning 2% ini topamiz.**

$$2\% = 0,02 = \frac{2}{100} = \frac{1}{50}; \quad 250 : 50 = 5.$$



Sonning 2% ini topish uchun, sonning $\frac{1}{50}$ qismini topish kifoya.

2) 480 so'm, 100 kg, 1000 m ning 2% ini toping.

1) **400 ning 5% ini topamiz.**

$$5\% = 0,05 = \frac{5}{100} = \frac{1}{20}; \quad 400 : 20 = 20$$



Sonning 5% ini topish uchun, sonning $\frac{1}{20}$ qismini topish kifoya.

2) 120, 860, 7600, 44 200, 18 460 ning 5% ini toping.

581. Sihatgohda dam olish uchun ishchiga imtiyozli yo'llanma berildi. Uning 20%i kasaba uyushma tomonidan to'landi. Yo'llanmaning to'liq bahosi 80 000 so'm bo'lsa, ishchi yo'llanma uchun necha so'm to'lashi kerak?

582. Kvadrat chizing, uni 100 ta teng bo'lakka bo'ling. Kvadratning 75% ini bo'yang. Kvadratning nechta bo'lagini bo'yadingiz?

583. 1) 32 ning 75% ini topamiz:

$$75\% = \frac{75}{100} = \frac{3}{4}. \quad 1) \quad 32 : 4 = 8 \text{ -- sonning } \frac{1}{4} \text{ bo'lagi topildi.}$$

$$2) \quad 8 \cdot 3 = 24 \text{ -- sonning } \frac{3}{4} \text{ bo'lagi topildi.}$$



Sonning 75% ini topish uchun shu sonning $\frac{3}{4}$ bo'lagini topish kerak.

2) 80 kg, 360 g, 100 m, 570 t, 6400 so'm, 976 km ning 75% ini toping.

584. Sinfda 16 nafar o'quvchi bor. Hamma o'quvchining 75% i besh va to'rt baholarda o'qiydi. Sinfda nechta o'quvchi besh va to'rt baholar bilan o'qiydi?

585. Qishloqdan shahargacha 12 km. Yo'lovchi bu masofaning $\frac{1}{4}$ qismini bosib o'tdi. Yo'lovchi yana necha kilometr yo'l yurishi kerak?

586. Maktab kutubxonasiga 540 ta turli darslik va qo'llanmalar keltirildi. Qo'llanmalar hamma kitobning $\frac{4}{9}$ qismini tashkil qiladi. Maktab kutubxonasiga nechta darslik keltirilgan?

587. Chizmaga qarab masala tuzing va uni yeching:

Olma 75 %	O'rik ?
416 ga	

588. Bog' 48 ga maydonga ega. Bog'ning 75% i olmazor, 10%i olchazor, nokzor esa bog'ning qolgan qismini egallagan. Bog'ning qancha qismi nokzor?


589. Omborda 204 t bug'doy bor edi. Bug'doyning 75% i ekishga olindi. Omborda necha tonna bug'doy qoldi?

590. 160 ga yerga paxta, makkajo'xori, qolgan maydonga beda ekildi. Paxta butun maydonning 75% ini, makkajo'xori 20% ini, beda esa 5% ini tashkil etadi. Paxta, makkajo'xori, beda necha gektar yer maydoniga ekilgan?

591. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{|l|l|l|} \hline 70 \cdot 100 - 7 \cdot 85 & 4850 : 5 + 769 \cdot 3 & 1679 + 1723 \\ \hline 43306 - 157 \cdot 92 & 28152 - 17465 & 4678 - 3498 \\ \hline \end{array}$$

592. Chizmaga qarab masala tuzing:



593. Baliqchilik fermer xo'jaligida 3850 sr baliq tutildi. Tutilgan baliqlarning 50% i sazan baliq, $\frac{1}{10}$ qismi cho'rtan, qolganlari laqqa baliq. Fermer xo'jaligida necha sentner laqqa baliq tutilgan?

594. Sonlarning 75% ini toping:

124, 964, 788, 400, 4008, 2156, 624, 3000.

595. Sonlarning 25% ini toping:

1200, 500, 876, 832, 200, 484, 700, 10000.

596. Chinni fabrikasiga 950 t loy, qum va gips keltirildi. Uning yarmini loy va qum tashkil etdi. Fabrikaga necha tonna gips keltirildi?

597. Jadvalni daftaringizga chizing va sonning protsentini topishni uning bo'lagini topish bilan qay tarzda almashtirilishini eslab qoling.

Sonning protsentini topishda bu usulni qo'llash hamma vaqt ham qulaymi?

10%	20%	2%	25%	50%	5%	75%
$\frac{1}{10}$	$\frac{1}{5}$	$\frac{1}{50}$	$\frac{1}{4}$	$\frac{1}{2}$	$\frac{1}{20}$	$\frac{3}{4}$

598. Misollarni yeching:

$$100 \cdot 800 - 211 \cdot 824 : 72$$

$$7 \cdot 096 \cdot 76 - 9 \cdot 746$$

$$70 \cdot 104 : 23 + 809 \cdot 746$$

$$29 \cdot 107 \cdot 25 - 14 \cdot 097$$

$$4 \cdot 850 : 5 + 769 \cdot 3$$

$$43 \cdot 306 - 157 \cdot 92$$

$$70 \cdot 100 + 170 \cdot 85$$

$$815 \cdot 36 + 12 \cdot 763$$

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Yugurish musobaqasida 450 nafar kishi qatnashdi. Uning 25% ini ayollar va qolgan qismini erkaklar tashkil etdi. Musobaqada nechta erkak ishtirok etdi?

2. Protsentlarni qulay usul bilan toping:

$$2700 \text{ ning } 10\% \quad \left| \quad 32\,490 \text{ ning } 50\% \quad \left| \quad 300 \text{ km ning } 25\%$$

$$15,6 \text{ ning } 10\% \quad \left| \quad 2,34 \text{ ning } 50\% \quad \left| \quad 1 \text{ s ning } 25\%$$

$$485 \text{ ning } 3\% \quad \left| \quad 360 \text{ ning } 75\% \quad \left| \quad 60 \text{ m ning } 5\%$$

3. Amallarni bajaring:

$$(12,3 - 6,75) \cdot 12$$

$$7,173 \cdot 15 - 12,9$$

$$(23,96 + 37,276) : 6$$

$$18464 : 9 + 32,8$$

4. O'quvchi 400 betli kitobning 50% ini o'qib chiqdi. O'quvchi necha betni o'qib chiqqan?

BIR FOIZ BO'YICHA SONNI TOPISH

599. 1) Sonni uning bir bo'lagi bo'yicha topishni eslang:

$$\frac{1}{2}x = 3 \quad \frac{1}{4}x = 5.$$


- 2) Kostumni bezash uchun 3 m tasma qirqib olindi. Bu butun tasmaning $\frac{1}{4}$ bo'lagini tashkil etdi. Necha metr tasma bor edi?

Tasmaning umumiy uzunligi – x

$$\frac{1}{4}x = 3 \text{ m}$$

$$x = 3 \text{ m} \cdot 4$$

$$x = 12 \text{ m}$$



600. 1) $\frac{1}{5}$ qismi 35, 124, 305, 820, 1136, 7100 bo'lgan sonni toping.

- 2) $\frac{1}{15}$ qismi 12 sm; 216 g; 307 m; 820 s; 500 km; 0,23 sm; 5,12 m; 12,9 kg; 21,7 sm bo'lgan sonni toping.

601. Do'konga olmalı yashiklar keltirildi. Har bir yashikning massasi 20 kg dan iborat bo'lib, u keltirilgan jami olmaning $\frac{1}{40}$ qismini tashkil etdi. Do'konga necha kilogramm olma keltirildi?

602. Bir o'ram daftar ichidan 2 ta daftar olindi. Bu hamma daftarning 1% ini tashkil etdi. O'ramdagi daftarlar sonini aniqlang.

Yechish:

Hamma daftarlar – x $\frac{1}{100}x = 2$ ta daftar

1% $x = 2$ ta daftar

$x = 100\%$

$x = 2$ ta daftar $\cdot 100$

$x = 200$ ta daftar.

Javob: o'ramda 200 ta daftar bor.



Bir foiz bo'yicha sonni aniqlash ko'paytirish yo'li bilan bajariladi.



Sonni topish uchun: 1 foizni tashkil etgan son 100 ga ko'paytiriladi.

603. 1% i quyidagilarga teng bo'lgan sonlarni toping:


5	5,63	5,7	26
12	0,12	0,1	240,5
134	13,47	13,4	2,318

604. Fermer 5 ga yerga issiqxona qurdi. Bu sabzavot ekiladigan yerning 1%ini tashkil qiladi. Fermer necha gektar yerga sabzavot ekkan?


605. O'quvchi kitobning 3 betini o'qidi. Bu butun kitobning 1%ini tashkil qiladi. Kitob necha betli?

- 606.** 1% i quyidagilarga teng bo'lgan sonlarni toping:
15; 28; 6,35; 0,12; 49; 7; 7,153; 0,28; 604.
- 607.** Poyezd birinchi stansiyagacha 20,7 km yo'l bosdi. Bu yo'ning 1% ini tashkil etdi. Poyezd yana necha kilometr yo'l yurishi kerak?
- 608.** 1% i quyidagi sonlarga teng bo'lgan sonlarni toping:
15,42; 35; 400,2; 123,5; 72,04; 8,007; 25,3; 0,047.
- 609.** Mototsiklchi 700 m yo'l bosdi. Bu butun yo'ning 1% ni tashkil etdi. Mototsiklchi yana qancha yo'l bosib o'tishi kerak?
- 610.** O'quvchi kitobning 20 betini o'qib chiqdi. Bu kitobning $\frac{1}{8}$ qismini tashkil etdi. Kitob necha betni tashkil qiladi?
- 611.** Qisqa shartlar asosida masalalar tuzing va ularni yeching:

1)



2)



612. O'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarni o'nli kasrlar bilan ifodalang va misollarni yeching:

1) $89 \text{ kg } 79 \text{ g} \cdot 6$	$3 \text{ km } 284 \text{ m} \cdot 32$	$234 \text{ t } 6 \text{ sr} \cdot 7$
$125 \text{ m } 6 \text{ sm} \cdot 7$	$7 \text{ t } 506 \text{ kg} \cdot 64$	$34 \text{ m } 6 \text{ mm} \cdot 45$
$5 \text{ t } 132 \text{ kg} \cdot 9$	$3 \text{ kg } 120 \text{ g} \cdot 73$	$124 \text{ t } 15 \text{ kg} \cdot 14$

2) $1744 \text{ t } 8 \text{ sr} : 12$	$87 \text{ kg } 904 \text{ g} : 82$	$108 \text{ kg } 816 \text{ g} : 24$
$3040 \text{ t } 5 \text{ sr} : 15$	$57 \text{ t } 885 \text{ kg} : 17$	$315 \text{ km } 360 \text{ m} : 45$
$7663 \text{ t } 5 \text{ sr} : 17$	$20 \text{ km } 790 \text{ m} : 15$	$581 \text{ t } 332 \text{ kg} : 83$

613. 1200 kg kartoshkani qayta ishlab 20% kraxmal olindi. Necha kilogramm kraxmal olindi?

614. Sonning foizi qanday topilishini eslang. Protsentlarni oddiy kasrlarga aylantirib, sonlarning foizini toping:

280; 346; 590; 6,04; 4; 5,8 ning

400; 240; 35,4; 70,25; 3; 64 ning

360; 8,425; 12490; 20,85; 0,65 ning

615. Misollarni yeching, ko'paytmada hosil bo'lgan o'nli kasrlarni o'lchash natijasida hosil bo'lgan butun sonlar bilan ifodalang:

$12,5 \text{ km} \cdot 35$	$30,7 \text{ sm} \cdot 73$	$2036 \text{ m} \cdot 83$
$0,63 \text{ m} \cdot 57$	$21,134 \text{ t} \cdot 27$	$0,502 \text{ kg} \cdot 60$
$28,05 \text{ sr} \cdot 18$	$9,206 \text{ kg} \cdot 46$	$3,4 \text{ sm} \cdot 47$

616. Xotira maydoni xiyoboniga 2000 tup har xil gul ekildi. Atirgul hamma gulning 15% ini, piyongul 35% ini tashkil qiladi. Lolalar esa 50%. Xiyobonga qancha atirgul, piyongul va lola ekilgan?

617. Taqqoslang:

74 · 23 va 34 · 74

72 · 81 va 90 · 50

62 · 95 va 45 · 65

61 · 17 va 35 · 33

17 · 30 va 16 · 15

35 · 19 va 19 · 35

618. Ifodani yozing va qiymatini toping.

57 bilan 43 ning yig'indisini 456 va 399 ning ayirmasiga ko'paytiring.

619. Ikki son berilgan:

1) Birinchi sonning 5% i 15 ga, ikkinchi sonning 8% i 16 ga teng.

2) Birinchi sonning 8% i 72 ga, ikkinchi sonning 15% i 60 ga teng. Bu sonlar bir-biridan qanchaga ortiq?

620. Tadbirkor bankdan 100 000 so'm kredit oldi. U 1 oy ichida kreditning 12% ini to'ladi. Tadbirkor 1 oy ichida necha so'm to'ladi?

621. Protsentlarni toping:

300 t ning 10%

10 t ning 25%

60 kg ning 3%

15 kg ning 20%

120 sm ning 75%

256 m ning 7%

2 km ning 50%

80 kg ning 5%

55 m ning 10%

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. O'quvchi-shogird reja asosida tikishi kerak bo'lgan yostiq jildidan 4 tasini tikdi. Bu rejaning 1% ini tashkil etdi. O'quvchi-shogird nechta yostiq jildi tikishi kerak?
2. 1% i quyidagi sonlarni tashkil etgan butun sonlarni toping:
 - a) 60; 8; 145; 109; 200; 1345;
 - b) 17,30; 40,06; 21,3; 386; 12; 30,09; 91,32;
 - d) 3,72 m; 8,7 kg; 16,092 t; 3,408 kg; 0,63 m.
3. Toping:

5 000 so'mning 20%	15,8 m ning 10%
1 270 so'mning 50%	3200 t ning 5%
4,504 kg ning 25%	3600 km ning 6%
4. Misollarni yeching:

$17,008 \cdot 29 + 32,96$	$5,206 \text{ kg} + 29,87 \text{ kg}$
$52,403 : 13 - 1968$	$15,32 \text{ t} - 8, 206 \text{ t}$
5. Yosh oila bankdan 500000 so'm kredit oldi. Bir oy ichida 25% ini to'ladi. Yosh oila necha so'm to'ladi? Yana qancha foiz to'lashi qo'ldi?



TAKRORLASH

BUTUN VA KASR SONLAR BILAN ARIFMETIK AMALLAR

- 622.** 1) Uchta ko'p xonali son yozing.
Har bir sonning sinf va xona birliklarini ayting.
- 2) Sonlarni raqamlar bilan yozing:
a) 30 ming; b) 511 ming; d) 1 mln.
- 3) Sonlarni sinflarga ajrating va o'qing:
625438; 34617; 2537; 15302; 103973; 60075;
13008; 39200; 400004; 100240; 1000000.
- 623.** O'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarga uchtadan misol keltiring:
a) uzunlik o'lchov birliklari; b) massa o'lchov birliklari;
d) yuz o'lchov birliklari; e) vaqt o'lchov birliklari.
- 624.** 3 ta o'nli kasr va uchta oddiy kasr sonlar yozing. Har bir kasr maxrajini ayting. Bu kasr sonlar qanday hosil bo'lganligini tushuntiring.
- 625.** 1) Qaysi sonlar kattaroq:
a) 97 mi yoki 79 mi; | 47609 mi yoki 47069 mi;
b) 43,05 mi yoki 43,12 mi; | 21,83 mi yoki 20,83 mi?
- 2) Qaysi sonlar kichikroq:
a) 314 mi yoki 299 mi; | 626262 mi yoki 625959mi;
b) 7,415 mi yoki 7,514 mi; | 8,666 mi yoki 8,7 mi?

626. Sonlarni taqqoslang, $>$, $<$, $=$ ishoralaridan mosini qo'ying:

1) $66\,100 \dots 100\,006$

$540\,010 \dots 539\,899$

$302\,050 \dots 301\,999$

$601\,100 \dots 610\,000$

2) $18\text{ m } 96\text{ sm} \dots 800\text{ m}$

$6\text{ soat } 2\text{ minut} \dots 62\text{ minut}$

$8\text{ t } 4\text{ kg} \dots 8004\text{ kg}$

$5\text{ kg } 200\text{ g} \dots 4200\text{ g}$

3) $\frac{1}{3} \dots \frac{1}{6}$

$\frac{4}{4} \dots 1$

$\frac{1}{9} \dots \frac{8}{9}$

$2\frac{4}{7} \dots 1\frac{4}{7}$

$3\frac{1}{2} \dots 4$

$\frac{10}{10} \dots \frac{11}{12}$

627. 1) Misollarni og'zaki yeching:

$5000 + 1300$

$640 - 160$

$280 + 270$

$4700 + 2300$

$800 - 250$

$540 + 160$

$3500 + 3500$

$460 - 360$

$290 + 180$

2) $519 - 99$

$99 - 18$

$190 - 54$

$756 - 98$

$98 - 49$

$198 - 75$

$951 - 97$

$97 - 28$

$200 - 88$

3) $780 + 40$

$357 + 9$

$193 - 9$

$60 + 140$

$278 + 8$

$214 - 5$

$290 + 110$

$269 + 7$

$326 - 8$

628. 1) Oddiy masalalarni og'zaki yeching:

Yozgi ta'til kunlarida tog'dagi oromgohda birinchi mavsumda 300 nafar bola, ikkinchi mavsumda 450 nafar bola dam oldi. Oromgohda ikki mavsum davomida necha nafar bola dam oldi?

2) Ekilgan lola piyozidan bahor mavsumida 40 donasi gulladi, 27 tasi esa gullamadi. Qancha lola piyozi ekilgan?

3) Ona qo'lidagi 10000 so'mdan 6400 so'mini xarajat qildi. Uning necha so'mi qoldi?

4) Anvar 52 kg, Sodiq esa undan 5 kg yengil. Sodiq necha kilogramm?

5) Sardorning bo'yi 1,7 m, Guliniki esa 1 m 64 sm. Bolalarning qaysi biri baland va qanchaga baland?

629. Misollarni yeching. Qo'shish amalini bajarishda qatnashgan sonlar nima deb ataladi? Misol yechimi to'g'riligini qaysi arifmetik amal bilan tekshirish mumkin?

$$46809 + 53908$$

$$405017 + 396009$$

$$600205 + 257317$$

$$426 \text{ kg } 534 \text{ g} + 59 \text{ kg } 267 \text{ g}$$

$$800 \text{ m } 79 \text{ sm} + 145 \text{ m } 21 \text{ sm}$$

$$120 \text{ t } 825 \text{ kg} + 68 \text{ t } 105 \text{ kg}$$

630. Misollarni yeching. Javoblar to'g'riligini kalkulyatorida tekshiring:

$$1) 7848 + 359639 + 40518$$

$$834532 + 27449 + 5787$$

$$246549 + 547809$$

$$68478 + 987430$$

$$2) 50 \text{ m } 6 \text{ sm} + 138 \text{ m } 94 \text{ sm} + 45 \text{ sm}$$

$$90 \text{ t } 300 \text{ kg} + 9 \text{ t } 72 \text{ kg} + 984 \text{ kg}$$

$$15 \text{ kg } 203 \text{ g} + 8 \text{ kg } 97 \text{ g}$$

$$3) 0,987 + 12,63 + 124,8$$

$$80,76 + 0,987 + 113,4$$

$$40,5 + 367,54$$

$$0,198 + 46,94$$

631. Ushbu misollarni yechishda qaysi arifmetik amallardan foydalanildi?

$$1) 302020 - 49143$$

$$600100 - 540079$$

$$203412 - 192307$$

$$1000000 - 409780$$

$$891010 - 805640$$

$$309200 - 106037$$

$$2) 40 \text{ km} - 7 \text{ km } 52 \text{ m}$$

$$39 \text{ sr } 2 \text{ kg} - 18 \text{ sr } 6 \text{ kg}$$

$$30 \text{ m } 4 \text{ sm} - 36 \text{ sm}$$

$$100 \text{ m} - 15 \text{ m } 40 \text{ sm}$$

$$90 \text{ sm} - 9 \text{ mm}$$

$$3 \text{ kg} - 3 \text{ g}$$

3) 40,7–32,06	4,3–0,106	30,11–15,296
102,32–82,4	900,2–86,132	3–2,215

Ayirish amalini bajarishda ishtirok etgan sonlar nima deb ataladi? Yechimning to'g'riligini qaysi amal bilan tekshirish mumkin?

632. 1) Besh xonali va uch xonali son o'ylab toping. Qaysi son katta?

2) Qaysi son katta – minglarmi yoki o'n minglarmi, yuzlarmi yoki yuz minglarmi?

3) Qaysi son katta va qanchaga katta? Sonlarni taqqoslashda qaysi amaldan foydalanildi?

42500...40200	0,003...0,013
120356...120656	12,54...10,54
15 kg 200 g...40 kg 200 g	1 km 256 m...1 km 56 m

4) Qaysi son katta va necha marta katta?

5000...100	8 m...10 sm	3 sm...1 mm
60000...1000	50 kg...5 t	10 sm...1 m

Sonlarni taqqoslashda qaysi amaldan foydalanildi?

633. Quyidagi sonlar yordamida taqqoslashga doir sodda arifmetik masalalar tuzing va yeching: 60 m va 5 m; 100 kg va 10 kg; 600 ta kitob va 60 ta kitob.

634. Tarkibida 9 ta o'nlik, 7 ta birlik, 6 ta yuz ming, 5 ta o'n ming bo'lgan sonni ayting.

635. Quyidagi sonlardan oldin va keyin keladigan sonlarni yozing:

... , 25690,, 230654, , 999999, ...
... , 50000,, 123499, , 12011, ...

636. O'zbekistonning quruqlik maydoni 425400 kv km, suv yuzasi 22000 kv km ga teng. Savol qo'ying va masalani yeching.

637. O'zbekistonning quruqlikdagi chegaralariga doir jadval ma'lumotlari asosida masalalar tuzing va ularni yeching:

T/r	Mamlakatlar	Chegara uzunligi
1	Afg'oniston	127 km
2	Qozog'iston	2203 km
3	Qirg'iziston	1099 km
4	Tojikiston	1161 km
5	Turkmaniston	1621 km

638. Zarafshon daryosining uzunligi 781 km, Sirdaryoning uzunligi esa undan 1356 km uzunroq. Sirdaryoning uzunligini toping.

639. Misollar tuzing va ularni yeching:

- 1) 17280 va 8703 sonlari yig'indisini 19507 ta kamaytiring;
- 2) 40000 va 32006 sonlari ayirmasini 1526 ta orttiring;
- 3) 78011 va 12400 sonlari ayirmasini 976 ta kamaytiring.

640. Misollarni yeching:

$$62274 + (32841 - 9804) - 21917$$

$$80000 - (65239 + 7804) - 0$$

$$178640 + (905169 - 483208) - 73654$$

$$(26000 - 18132) + (100101 - 39498)$$

Yechimlar to'g'riligini kalkulatorida tekshiring.

641. Qisqa shart asosida masala tuzing va yeching:

Chit – 1235 m

Shoyi – 239 m kam

Satin – 1536 m kam



642. Amallarni bajaring:

$$(32\,407 + 186\,537) - (68\,132 - 1\,008)$$

$$(15\,912 - 8\,697) + (1\,000\,000 - 143\,608) + 7\,890$$

$$(288\,517 + 54\,503) - (312\,714 - 306\,506) - 12$$

$$(29\,991 + 187\,109) - (80\,100 - 37\,501) + 0$$

643. 1) Nuqtalar o'rniga o'lchov birliklaridan mosini qo'ying:

$$1 \dots = 10 \dots \quad 100 \dots = 1 \dots \quad 1 \dots = 1\,000 \dots$$

2) Misollarni yeching:

a) $12 \text{ kg } 250 \text{ g} + 8 \text{ kg } 763 \text{ g} - 940 \text{ g}$

$52 \text{ m } 36 \text{ sm} + 7 \text{ m } 45 \text{ sm} + 12 \text{ m } 53 \text{ sm}$

$60 \text{ t } - 14 \text{ t } 5 \text{ sr} + 9 \text{ sr}$

b) $34 \text{ km } 280 \text{ m} - 15 \text{ km} + 960 \text{ m}$

$6 \text{ t } 572 \text{ kg} + 2 \text{ kg } 428 \text{ g} - 3 \text{ t } 700 \text{ kg}$

$27 \text{ sm} - 8 \text{ mm} + 32 \text{ sm } 9 \text{ mm}$

d) $9 \text{ sr } 75 \text{ kg} + 14 \text{ sr } 68 \text{ kg} - 3 \text{ sr } 15 \text{ kg}$

$50 \text{ t } 204 \text{ kg} - 32 \text{ t } 72 \text{ kg} + 934 \text{ kg}$

$20 \text{ m } 6 \text{ sm} - 3 \text{ m } 87 \text{ sm} + 14 \text{ m } 45 \text{ sm}$

644. Oshxonada taom pishirish uchun 1 kg 700 g kartoshka olinib, yelim xaltada 1 kg 800 g kartoshka ishlatilmay qoldi. Taom tayyorlashdan oldin yelim xaltada necha kilogramm kartoshka bo'lgan?

645. Birinchi sinflar uchun devonxona buyumlarini sotib olishga 100 000 so'm ajratildi. Bu pulga daftar, qalam, ruchka sotib olinib, yana 34 200 so'm pul sarflanmay qoldi. Sotib olingan buyumlarga necha so'm to'landi?

646. Qisqa shart asosida masala tuzing va uni yeching:

Hammasi – 26 000 t

Oktabrda – 8 760 t

Noyabr – 795 t 250 kg kam

Necha tonna kartoshka qolgan?

647. Sonlarni o'qing:

$\frac{1}{2}$; 0,2; $\frac{3}{4}$; $1\frac{7}{8}$; 3,17; 0,903; $12\frac{8}{9}$; 2,007.

Sonlar turini ayting.

648. 1) Oddiy kasrlarning qanday turlarini bilasiz? Har bir turdagi oddiy kasrlarga bir nechtdan son yozing.

2) O'nli kasrlarni yozing. Surati va maxrajini ayting.

3) Aralash kasrlarni yozing. Ular qanday hosil bo'lgan?

649. Taqqoslang:

$3\frac{7}{10}$ va 3,7; $\frac{3}{100}$ va 0,03; $2\frac{13}{1000}$ va 2,013; $1\frac{5}{7}$ va 1,5.

Bu sonlarning o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini ko'rsating.

650. Yig'indini toping:

$20,035 + 7,97$	$300,12 + 76,008$	$39,07 + 0,397$
$165,37 + 83,5$	$15,49 + 314,073$	$834,3 + 67,83$
$36,4 + 174$	$6,154 + 45,9$	$107,2 + 56,053$
$0,163 + 29,84$	$19,6 + 9,43$	$0,82 + 12,9$

651. Ayirmani toping:

$106,273 - 97,16$	$400,036 - 38,336$	$60,75 - 59,4$
$300,25 - 9,524$	$54 - 15,143$	$37,62 - 16,008$
$117,4 - 10,46$	$21,265 - 14$	$25,3 - 5,14$
$200 - 95,3$	$35,4 - 24,18$	$3 - 0,125$

652. Amallarni bajaring:

$10 - 9,207$	$302,4 + 79,684$	$1 - 0,306$
$8 - 0,804$	$530,07 - 4,963$	$780 - 14,07$
$52,4 + 106,32$	$204,72 + 72$	$320,6 + 84,6$
$108,7 - 59,613$	$3,163 - 0,72$	$1 - 0,004$

653. Po'lat quyuvchilar birinchi jamoasi 10 t 650 kg po'latni, ikkinchi jamoa esa undan 2,98 t kam po'latni eritdi. Necha tonna po'lat eritildi? Javoblarni o'nli kasrlarda ifodalang.

654. Masalalarni to'ldiring va yeching:

1) Sut sog'uvchi ertalab 56,7 l sut, kechqurun esa 64,3 l sut sog'di. Hammasi bo'lib ... ?

2) Omborxonaga 148 t 600 kg sabzavot olib kelingach, sabzavotlar umumiy massasi 500,7 tonnaga yetdi. Omborxonada qancha sabzavot bo'lgan?

3) Tikuvchi 12,5 m to'r ishlatgach, o'ramda 7,75 m qoldi. Qancha ... ? Hammasi qancha?

655. O'nli kasrlarga aylantiring va misollarni yeching:

$51 \text{ t } 270 \text{ kg} + 13 \text{ t } 36 \text{ kg}$	$37 \text{ m } 80 \text{ sm} + 125 \text{ m } 5 \text{ sm}$
$108 \text{ km } 256 \text{ m} + 39 \text{ km } 4 \text{ m}$	$38 \text{ kg } 530 \text{ g} - 9 \text{ kg } 36 \text{ g}$
$70 \text{ t } 6 \text{ sr} + 9 \text{ sr}$	$75 \text{ t } 340 \text{ kg} - 36 \text{ t } 7 \text{ kg}$

$$160 \text{ kg } 200 \text{ g} - 84 \text{ kg } 70 \text{ g} + 597 \text{ g}$$

$$200 \text{ km } 4 \text{ m} + 68 \text{ km } 348 \text{ m} - 197 \text{ km}$$

$$50 \text{ t } 65 \text{ kg} - (8 \text{ t } 273 \text{ kg} + 727 \text{ kg})$$

656. Masala tuzing va uni yeching:

$$\begin{array}{l} \text{I} - 300,5 \text{ sr} \\ \text{II} - 25,65 \text{ sr kam} \\ \text{III} - 50,35 \text{ sr kam} \end{array} \left. \begin{array}{l} \leftarrow \\ \leftarrow \\ \leftarrow \end{array} \right\} ?$$

657. Oddiy kasrlarni solishtiring:

$$\frac{1}{2} \dots \frac{1}{8}, \quad \frac{3}{5} \dots 1, \quad \frac{4}{7} \dots \frac{1}{7}, \quad \frac{7}{12} \dots \frac{7}{7}, \quad 2 \dots 1\frac{3}{5}, \quad 1 \dots \frac{4}{4}.$$

658. Misollarni yeching. Yig'indini toping:

$$\begin{array}{lll} \frac{1}{2} + \frac{1}{2} + \frac{1}{2} & \frac{3}{10} + \frac{5}{10} + \frac{2}{10} & 2\frac{3}{4} + \frac{1}{4} + \frac{3}{4} \\ 1\frac{1}{8} + \frac{5}{8} + \frac{7}{8} & 2\frac{1}{2} + 3\frac{1}{2} & 7\frac{3}{4} + 2\frac{1}{4} \end{array}$$

659. Ayirmani toping:

$$\begin{array}{llll} 1 - \frac{1}{4}, & 7 - \frac{9}{10}, & 4 - 3\frac{1}{5}, & 7\frac{9}{10} - 2\frac{3}{10}, & 12\frac{3}{5} - 6\frac{3}{5}, \\ 1 - \frac{8}{9}, & 2\frac{1}{9} - \frac{8}{9}, & 19\frac{2}{7} - \frac{5}{7}, & 6\frac{3}{10} - 5\frac{4}{10}, & 35\frac{1}{4} - 15\frac{3}{4}. \end{array}$$

660. Bidondan $4\frac{4}{5}$ / sut nonushta uchun va $5\frac{1}{5}$ / sut tushlik uchun quyib olindi. Shundan so'ng bidonda sut qolmadi. Bidonda necha litr sut bor edi?

661. O'ramdagi gazlamadan $2\frac{3}{4}$ m kesib olindi va shundan so'ng o'ramda 16 m gazlama qoldi. O'ramda necha metr gazlama bo'lgan?

662. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{llll} 5\frac{7}{10} + 1\frac{3}{10} + \frac{3}{10} & 8\frac{1}{5} + \frac{3}{5} + 2\frac{4}{5} & 20 - 8\frac{1}{3} \\ 18\frac{1}{6} - 3 & 8 + \frac{11}{12} + \frac{1}{12} & 16\frac{1}{3} - 15\frac{2}{3} & 20 - 3\frac{2}{7} \end{array}$$

663. 1) Ushbu sonlar qanday hosil bo'lgan? 15 sutka, 12 soat 8 minut, 15 minut 25 sek, 17 yosh, XXI asr.

2) Taqqoslang:

23 soat...1 sut	2 min...2 s	65 min...1 soat 5 min
3 soat...180 min	1 min 1 s...60 s	10 y...1 yosh
70 s...1 min	1 sut 2 soat... 24 soat	1 yosh...300 sut

3) Nechaga teng? $\frac{1}{2}$ soat, $\frac{1}{2}$ sut, $\frac{1}{4}$ yosh, $\frac{1}{5}$ min, $\frac{1}{6}$ soat.

664. Amallarni bajaring:

6 soat+3 soat 15 min	7 soat 36 min-18 min
8 soat 23 min+7soat 47 min	9 soat-9 min
10soat 36 min+64 min	12 sut-8soat
3 min 45 s+2 min 7 s	21 yosh 6 oy-15 yosh 7 oy

665. 1) Birinchi kosmonavt Yuriy Gagarin 1961-yil 12-aprelda kosmosga uchdi. Shundan beri necha yil o'tdi?

2) Yu. Gagarin yer atrofini 108 minutda 1 marta aylanib chiqdi. Yu. Gagarin kosmosda necha soat va necha minut bo'lgan?

3) Kosmonavt Valeriy Polyakov kosmosda eng ko'p yashaganligi bilan dunyoga mashhur bo'ldi. U kosmosda 1 yil-u 3 oy yashab izlanish olib bordi. V. Polyakov kosmosda necha sutka yashagan?

666. 1) Maktabdagi bayram tadbiri 1 soat 25 minut davom etib, soat 15 u 05 minutda tugadi. Bayram tadbiri qachon boshlangan?

2) Bayram tadbiriga zalni tayyorlash soat 9 u 26 minutda boshlandi, tayyorgarlik 2 soat 50 minut davomida olib borildi. Zalni bayramga tayyorlash ishlari qachon tugadi?

667. Og'zaki yeching:

$$\begin{array}{r} 175 \\ 209 \\ 76 \end{array} \rightarrow \times \boxed{10} \quad \left| \quad \begin{array}{r} 32 \\ 107 \\ 520 \end{array} \rightarrow \times \boxed{100} \quad \left| \quad \begin{array}{r} 470 \\ 200 \\ 1600 \end{array} \rightarrow : \boxed{10}$$

668. 1) Qanday yo'l bilan sonning bir qismi topiladi, eslang:

$$27 \text{ kg ning } \frac{1}{3} \text{ qismi} - ? \quad 27 \text{ kg} : 3 = 9 \text{ kg.}$$

$$\begin{array}{l} 3000 \text{ so'mning} \\ 480 \text{ kilometrning} \\ 7505 \text{ tonnaning} \\ 942 \text{ metrning} \end{array} \rightarrow \frac{1}{5} = ?$$

2) Qanday yo'l bilan sonning bir necha qismi topiladi, eslang:

$$27 \text{ kg ning } \frac{2}{3} \text{ qismi} - ? \quad 27 \text{ kg} : 3 \times 2 = 18 \text{ kg}$$

240 m, 328 kg, 6400 so'm, 880 s, 650 metrning $\frac{7}{8}$ qismini toping.

3) Yarmi 20 metrga teng bo'lgan son qanday topilishini eslang.

Agar sonning yarmi 20 metrga teng bo'lsa, butun son ikkita yarimdan iborat bo'lganligi uchun, butun son yarim sondan ikki marta ko'p bo'ladi.

$\frac{1}{3}$ qismi 100 kg, $\frac{1}{8}$ qismi 1000 so'm, $\frac{1}{5}$ qismi 350 metr bo'lgan sonlarni toping.

669. 485000; 340; 750,45; 848,5, 100000 ning $\frac{1}{5}$ qismini toping.

670. Quyidagi misollar qanday amallar bilan yechilmoqda? Misollar yechimining to'g'riligi qaysi amal bilan tekshiriladi?

- | | | |
|---|---|---------------------------------------|
| 1) $16728 \cdot 34$ | $35248 \cdot 10$ | $1000 \cdot 38$ |
| $8420 \cdot 70$ | $4860 \cdot 100$ | $100 \cdot 1400$ |
| 2) $6 \text{ km } 2 \text{ m} \cdot 19$ | $13 \text{ m } 8 \text{ sm} \cdot 1000$ | $10 \cdot 4 \text{ t } 69 \text{ kg}$ |
| $52 \text{ sm } 8 \text{ mm} \cdot 23$ | $100 \cdot 3 \text{ sr } 12 \text{ kg}$ | $25 \text{ kg } 6 \text{ g} \cdot 35$ |
| 3) $0,923 \cdot 70$ | $121,4 \cdot 400$ | $0,29 \cdot 700$ |
| $14,82 \cdot 60$ | $26,32 \cdot 45$ | $321,1 \cdot 10$ |

671. 1) Bitta temiryo'l vagoni massasi 75 t bo'lgan yukni olib o'ta oladi. Shunday vagonlardan 30 tasi qancha yukni olib o'tishi mumkin?

2) Rom tokchasi uzunligining $\frac{1}{4}$ qismi 50 sm ga teng. Tokcha uzunligini toping.

3) Sayyoh butun yo'lning $\frac{1}{3}$ qismini bosib o'tib 4 km yo'l yurdi. Sayyoh yana qancha yo'l yurishi kerak?

4) Sayyoh 15 km yo'l yurishi kerak. U yo'lning $\frac{1}{5}$ qismini bosib o'tgan bo'lsa, yana qancha yo'l bosib o'tadi?

672. Quyidagi misollar qanday amallar bilan yechilmoqda? Misollar yechimining to'g'riligi qaysi amal bilan tekshiriladi?

- | | | |
|--|------------------------------------|---------------|
| 1) $253440 : 36$ | $216860 : 70$ | $249650 : 25$ |
| $291308 : 47$ | $977424 : 14$ | $529770 : 30$ |
| 2) $597 \text{ t } 90 \text{ kg} : 30$ | $945 \text{ m} : 60$ | |
| $295 \text{ kg } 596 \text{ g} : 42$ | $16 \text{ m } 80 \text{ mm} : 20$ | |

3) 7,982:26	1475,6:70	91:26	5,766:62
404,16:48	252,2:97	442,2:55	358,8:46

673. 1) Ruchka 500 so'm turadi. 5000 so'mga qancha ruchka sotib olish mumkin? Qancha pul qoladi?

2) Bir to'p matoda 37 m, ikkinchisida esa 25 m jun gazlama bor. Bir dona kastum tikish uchun 3 m gazlama ketsa, har ikki to'p matodan nechta kastum tikish mumkin?

674. Misollarni qoldiq bilan yeching:

173625:7	304805:6	713442:4
148321:4	123758:8	105683:2
336423:6	269121:4	350504:3
604106:7	171253:5	433627:4

675. Amallarni bajaring:

1) 3840 · 92	0,359 · 100	7296 · 24
0,996 · 7	613,7 · 8	649 · 100
35824 · 3	5448 · 40	10,89 · 7
13,695 · 6	0,704 · 10	13,2 · 1000
2) 120008:28	241440:48	5448:100
120,6:9	102,8:8	10,1:10
12,3:100	672350:25	1843,2:5
17400:1000	9,1:10	13,71:3

676. 4000 g; 75 m; 178 km; 6300 so'm; 508 kg ning $\frac{1}{100}$ ini toping.

677. Non sexi 1 sutkada 250 t non mahsulotlarini yopib tarqatadi. Uning 1% ini shirin kulchalar tashkil etadi. Non sexi qancha shirin kulcha yopadi?

- 678.** Protsent nima, eslang. Sonning 1% i qanday topiladi?
 1) 100; 1000; 800; 900; 900,6; 453,7; 203,3 ning 1% ini toping.
 2) 2400 kg; 680 m; 80 t; 50 m; 32600 so'mning 1% ini toping.
- 679.** Poyezd 6500 km masofani bosib o'tishi kerak. U 1% yo'lni bosib o'tgan bo'lsa, yana qancha yo'l yurishi kerak?
- 680.** 500 m; 1000 so'm; 64,5 kg; 800 g; 132,5 t ning 2% ini toping. Sonning bir necha protsenti qanday topiladi?
- 681.** 1200 kg non yopildi. Sovigan non o'z og'irligining 30% ini yo'qotadi. Sovigan nonning og'irligini toping.
- 682.** Qishga saqlangan 3,6 t uzumning 15% i yaroqsiz bo'lib chiqdi. Necha tonna uzum yaroqsiz holga keldi?
- 683.** Sariyog' eritilganda, 76% idan dog'langan yog' hosil bo'ladi. 10 kg sariyog'dan qancha dog'langan yog' olish mumkin?
- 684.** Hisoblang:
- | | |
|-------------------|----------------------|
| 840 kg ning 10% i | 1340 kg ning 5% i |
| 650 m ning 20% i | 32605 so'mning 12% i |
| 240 t ning 25% i | 306 m ning 65% i |
| 720 g ning 50% i | 4000 kg ning 25% i |
- 685.** Ishchining omonat kassada 100000 so'm puli bor edi. U bu puldan 15% ini qaytarib oldi. Ishchining omonat kassada qolgan puli qancha?

686. Muzlatkich sotib olish uchun oila bankdan kreditga 1000000 so'm pul oldi. Bir oyda shu pulning 25% i bankka qaytarildi. Oila yana qancha pul qaytarishi kerak?

687. Misollarni yeching:

$$(183221 : 53 - 409) \qquad 1097,5 : 50 \cdot 7$$

$$(173246 : 58 + 530 \cdot 9) \qquad 311,7 : 4 \cdot 8$$

$$(72450 : 63) + 2610 \qquad 5,376 : 7 \cdot 5$$

$$(4724 \cdot 36) - 3892 \qquad 13,629 : 7 \cdot 4$$

688. Masala tuzing va uni yeching:

<p>1) 25 yashik – 225 kg 40 yashik – ? kg</p>		<p>2) 25 yashik – 225 kg ? – 450 kg</p>
---	--	---

<p>3) 15 yashik 48 kg dan 24 yashik 56 kg dan</p>		<p>? kg</p>
---	--	-------------

<p>4) 15 yashik 48 kg dan 24 yashik 56 kg dan Qancha ... ?</p>		<p>Olmaning $\frac{1}{3}$ sotildi.</p>
--	--	---

689. Misollarni yeching:

$$1645 : 47 \cdot 96 + 4097 \qquad 4556,61 : 9 \cdot 10$$

$$3528 : 63 \cdot 24 - 1309 \qquad 631,748 : 4 \cdot 5$$

$$3120 : 48 \cdot 36 + 2983 \cdot 17 \qquad 27834,3 : 9 \cdot 2$$

$$2430 : 54 \cdot 13 \qquad 146,356 : 7 \cdot 6$$

690. Bo'linma va qoldiqni toping:

$$675283 : 100 \qquad 136576 : 64 \qquad 120018 : 28$$

$$346038 : 1000 \qquad 105311 : 15 \qquad 186482 : 37$$

$$152002 : 10 \qquad 177024 : 30 \qquad 226820 : 21$$

691. 1) O'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarni o'nli kasrlarda ifodalang va misollarni yeching:

14 km 200 m:5	39 kg 600 g:80	28 sm 8 mm:96
5 m 80 sm:4	9 m 300 mm:60	15 kg 390 g:38
19 t 600 kg:8	8 m 88 sm:24	53 sr 90 kg:14
7 sr 50 kg:50	24 sr 40 kg:5	29 t 750 kg:85

692. Misollarni yeching:

$21\,800 \cdot 40 - 15\,204$	$42\,030 \cdot 30 - 29\,120 : 20$
$100\,000 - 31\,290 : 30$	$300\,000 - 12\,044 \cdot 24 + 203\,485$
$2046 \cdot 26 + 53\,098$	$341\,286 : 33 - 9\,504 + 250\,84$
$41\,260 - 38\,016 : 11$	$400\,101 - 38\,173 + 11\,002 \cdot 47$

693. Masala tuzing va uni yeching:

Uzunligi	Eni	S (yuzi)	P (perimetri)
50 sm	2 marta kam	?	?
3 marta ko'p	20 m	?	?
70 mm	shuncha	?	?
15 m ko'p	3 m	?	?

694. Yer maydonining uzunligi 3,08 km, eni 2 km 56 m. Yer maydonining to'g'ri burchak shaklidagi perimetrini hisoblang.

695. Quruvchilar eni 26 m 30 sm, uzunligi 45,05 m, chuqurligi 5 metrlik kotlovan qazidilar. Kotlovan hajmini hisoblang.

696. 15 kv metrli xona polini bo'yash uchun 4,5 kg bo'yoq sarflangan bo'lsa, uzunligi 7 m, eni 5 metrli xona polini bo'yash uchun qancha bo'yoq kerak bo'ladi?

697. Bo'linmani butun son shaklida yozing:

75,6 km:70	17,864 km:58	0,3 m:2
57,3 m:6	21 t:75	0,42 kg:4
47,4 t:25	7,74 s:86	0,105 km:15
298 sm:4	23,12 m:68	0,144 kg:16

698. Masala tuzing va uni yeching:

Tezligi km/soat	Vaqt	Masofa
60 km	5 soat	?
300 km	3 soat	?
?	4 soat	380 km
?	10 soat	645 km

699. Birinchi kuni 3 sr 9 kg, ikkinchi kuni 60 kg kam o'rik terildi. Barcha o'riklar quritildi. Quritilgan o'rikda massa 3 marta kamaysa, terilgan o'rikdan necha kilogramm o'rik qoqisi (turshak) hosil bo'ladi?

700. Qurilish uchun g'ishtlar 2 ta yuk tashish mashinasida tashildi. I mashina har birida 8400 tadan yuklangan g'isht bilan 16 ta reys yurdi, II mashina esa har gal 7900 tadan ortilgan g'isht bilan 18 ta reys yurdi. Qaysi mashina ko'p g'isht tashidi va qanchaga ko'p g'isht olib keldi?

701. Linoliumning bir bo'lagi kvadrat shaklida bo'lib, tomoni 3 dm dan iborat. Oshxonaning bo'yi 3 m 9 dm, eni 2 m 7 dm; koridorning bo'yi 3 m, eni 1 m 50 sm bo'lsa, ularga qancha bo'lak linolium kerak bo'ladi?

702. Misollarni yeching:

$$1742 \cdot 25 - 9809$$

$$380 \cdot 24 + 13600$$

$$1000000 - 1930 \cdot 64$$

$$56808 + 806 \cdot 37$$

$$782340 : 85 - 95200 : 17$$


$$136051 : 17 + 172140 : 19$$



GEOMETRIYA

GEOMETRIK SHAKLLAR VA GEOMETRIK JISM


Geometrik shakllar – nuqta, sinq chiziq, nur, to‘g‘ri chiziq, kesma, tekislik, yarim tekislik, yarim to‘g‘ri chiziq, burchak, uchburchak, to‘rtburchak, ko‘pburchak, parallel to‘g‘ri chiziqlar, parallelogramm, romb, parallelepiped, prizma va kub, doira, aylana, shar, konus va hokazo. Hayotda uchraydigan barcha narsalar ma‘lum bir geometrik shaklga ega. Shu sababli ularni geometrik jism deb atash mumkin. Masalan, binolar, mebellar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, transport vositalarining barcha qismlari, temir yo‘llar, kub, parallelepiped, silindr, konus, piramida va hokazolar geometrik jismlardir.




CHIZIQLI O‘LCHOVLAR

1. Ixtiyoriy olingan bir nuqtadan uchta bir xil to‘g‘ri chiziq o‘tkazing. Bir nuqtadan nechta to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkin?
2. Berilgan ikki nuqtadan to‘g‘ri chiziq o‘tkazing. Ikki nuqtadan nechta to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkin? Ikki nuqtadan nechta egri chiziq o‘tkazish mumkin?
3. Berilgan ikki nuqtadan ikkita har xil chiziq o‘tkazing. Shu ikkita chiziq to‘g‘ri chiziq bo‘la oladimi? Nima uchun?

4. Berilgan bir to'g'ri chiziqda yotmagan uchta nuqta mavjud. Ularning har ikkalasi orqali to'g'ri chiziq o'tkazing. Bunday to'g'ri chiziqdan nechta o'tkazish mumkin?
5. Kesishuvchi ikki to'g'ri chiziqning nechta umumiy nuqtasi bo'ladi?
6. Ikkita har xil to'g'ri chiziq ikkita umumiy nuqtaga ega bo'la oladimi?
7. Bir nuqtadan uchta har xil nur chiqaring. Boshi shu nuqtada bo'lgan nechta nur chiqarish mumkin?
8. Rasmda nechta kesma tasvirlangan, ularni aytib bering. Kesmalarni yana nima deb nomlash mumkin?



9. Rasmda ikkita siniq chiziq tasvirlangan. Har bir chiziq nechta kesmadan iborat? Ularning nomini ayting.



10. Rasmda qanday chiziqlar tasvirlangan?




11. Rasmda tasvirlangan to'g'ri chiziqlarning yo'nalishlarini ayting.



12. Sinfda gorizontaal, vertikal va og'ma yo'nalishlarga ega bo'lgan to'g'ri chiziqlarni ko'rsating.

13. Gorizontaal yo'nalishni aniqlash uchun shayton va vaterpasdan foydalaniladi. Tik (vertikal) yo'nalishni aniqlash uchun shovun qo'llaniladi. Shu asboblardan qanday ishlarda foydalaniladi?




14. Stol taxtasi, sinf poli qanday joylashgan? Shayton va vaterpas yordamida tekshiring. Sinf devorlari, deraza oynalari qanday joylashgan? Shovun yordamida tekshiring.

15. Daftaringizga gorizontaal, vertikal va og'ma to'g'ri chiziqlar chizing.


16. Rasmda tasvirlangan to'g'ri chiziqlar nima deb ataladi? Qanday chiziqlar parallel chiziqlar deb ataladi?



17. Parallel to'g'ri chiziqlar chizish uchun qanday asboblardan foydalaniladi? Ular yordamida bir necha parallel to'g'ri chiziqlar chizing.
18. Rasmda tasvirlangan to'g'ri chiziqlar nima deb ataladi? Qanday to'g'ri chiziqlar perpendikular to'g'ri chiziqlar deyiladi?



19. AB va CD to'g'ri chiziqlar yasang. Perpendikular to'g'ri chiziqlar yasash uchun qanday asboblari kerak?
20. Rasmda nima tasvirlangan? Bu to'g'ri chiziqlarda kesmalar berilgan. To'g'ri chiziqlar kesmasi deb nimaga aytiladi?



21. To'rtta kesmadan iborat sinik chiziq chizing. Bu sinik chiziqning uzunligini aniqlang. Sinik chiziqning boshini va oxirini kesma bilan tutashtiring. Qaysi masofa qisqa? To'g'ri chiziq bo'yichami yoki sinik chiziq bo'yichami?
22. Shaharlar orasidagi masofani o'lchash uchun qanday o'lchovlar ishlatiladi. Sinfning uzunligini, enini va balandligini qanday o'lchovlar bilan o'lchash mumkin? Siz partaning uzunligi va enini, sinfning balandligini, o'zingizning bo'yingizni, qalamning yo'g'onligini o'lchash uchun qanday o'lchovlarni tanlab olasiz?

CHIZIQLI O'LCHOVLAR JADVALI

1 km = 1000 m.

1 m = 10 dm = 100 sm = 1000 mm.

1 dm = 10 sm = 100 mm.

1 sm = 10 mm.

23. Uchta kesma chizing: Birinchisining uzunligi 4 sm 5 mm, ikkinchisi undan 1 sm 3 mm uzun, uchinchisi birinchisidan 2 sm 6 mm qisqa bo'lsin.
24. Tik holda joylashgan ikkita chizma chizing. Birinchisining uzunligi 55 mm, ikkinchisi undan 15 mm qisqa bo'lsin.
25. Uzunliklari 3 sm 5 mm, 2 sm 8 mm va 4 sm 3 mm bo'lgan kesmalar chizing. Ularning yig'indisini toping.
26. Uzunliklari 9 sm 2 mm va 85 mm bo'lgan kesmalar chizing. Ularning ayirmasini toping.
27. 2 sm kesma chizing. Uni 5 marta kattalashtiring.
28. 15,6 sm uzunlikdagi kesma chizing. Uni 3 marta qisqartiring.
29. Maktabdan uygacha bo'lgan masofani o'lchang va hisoblang. Masshtab: 1 sm : 100 m.





8 sm



M : 1 sm : 100 m

30. Maktab hovlisi va sport maydonchasining uzunligini va kengligini metr yoki ruletka yordamida o'lchang.
31. Maktabdan temir yo'l stansiyasigacha 6 km. Bu masofani kesma ko'rinishida tasvirlang. Chizmada 1 km masofani 1 sm kesma bilan oling. Ya'ni masshtab: 1 km : 1 sm.
32. Bir qishloqdan ikkinchi qishloqqa bo'lgan masofa 8 km. Bu masofani kesma ko'rinishda tasvirlang. Chizmada 1 km ni 1 sm kesma bilan oling, ya'ni masshtab: 1 km : 1 sm.
33. Maktabdan Amir Temur muzeyigacha bo'lgan masofa – 12 km. Bu masofani kesma shaklida tasvirlang. Masshtab: 1 km:1 sm.
34. Buxoro shahridan Navoiy shahrigacha bo'lgan masofa 110km. Bu masofani kesma shaklida tasvirlang. Masshtab: 1 sm : 10 km.
35. Rasmda qanday geometrik shakllar tasvirlangan? Shakllarning o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini ko'rsating.




36. Asosi va balandligi quyidagicha bo'lgan parallelogrammning perimetrini hisoblang:
- $a = 4 \text{ sm } 5 \text{ mm}, \quad h = 2 \text{ sm};$
 $a = 2 \text{ dm } 5 \text{ sm}, \quad h = 7 \text{ sm};$
 $a = 5 \text{ m } 2 \text{ dm}, \quad h = 1 \text{ m } 4 \text{ dm}.$

37. Chiziqli o'lchovlarni ayting. Chiziqli o'lchovlar bilan nimalar o'lchanadi? Uzunlik, kenglik, chuqurlik, balandlikni o'lchaydigan asboblarni ayting.

YUZA O'LCHOVLARI

38. Rasmda qanday geometrik shakllar tasvirlangan?



1) To'g'ri to'rtburchakning tomonlarini o'lchang. To'g'ri to'rtburchakning tomonlari haqida nima deyish mumkin?

2) To'g'ri to'rtburchakning burchaklarini o'lchang. To'g'ri to'rtburchakning burchaklari qanday burchaklar?

3) To'g'ri to'rtburchakning diagonalalarini o'lchang.

4) To'g'ri to'rtburchakning qarama-qarshi tomonlarini o'lchang.

5) To'g'ri to'rtburchak deb nimaga aytiladi?

1) Kvadratning tomonlarini o'lchang. Kvadratning tomonlari haqida nima deyish mumkin?

2) Kvadratning burchaklarini o'lchang. Kvadratning burchaklari qanday burchaklar?


3) Kvadratning diagonalalarini o'lchang.

4) Kvadratning qarama-qarshi tomonlarni o'lchang.

5) Kvadrat deb nimaga aytiladi?

39. Asosi 6 sm, balandligi 3 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing.

40. Asosi 50 mm bo'lgan kvadrat yasang.
41. Asosi a sm va balandligi h sm, yuzi S kv sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yuzini hisoblash formulasini eslang va yozing.



42. Tomonlari quyidagicha bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblang:
- | | |
|------------------|--------------|
| $a = 4,6$ m, | $b = 4$ m; |
| $a = 6,8$ m, | $b = 3$ m; |
| $a = 24$ sm, | $b = 8$ sm; |
| $a = 8$ sm 7 mm, | $b = 19$ mm; |
| $a = 12,8$ m, | $b = 6$ m. |
43. Tomoni 8 sm bo'lgan kvadrat chizing. Bu kvadratning yuzini hisoblang. Kvadrat yuzining formulasini eslang va yozing.
44. Tomoni $a = 12$ sm, $a = 10$ m; $a = 8$ dm, $a = 27$ mm bo'lgan kvadratning yuzini hisoblang.
45. Asosi 6 sm va balandligi undan 2 sm qisqa bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yuzini hisoblang. Qanday o'lchovlardan foydalaningizni ayting.
46. Yer maydoni o'lchovlaridan qaysilarini bilasiz? Tomoni 10 m bo'lgan kvadratning yuzi nima deb ataladi? Bir ar da necha kvadrat metr bor? Yuzlarni o'lchash uchun qanday holda ar dan foydalaniladi?

47. Uchastkada, bog'da yoki dalada yuzi 1 ar bo'lgan kvadrat belgilang. Bu kvadrat tomonining uzunligi qanday? Bunday kvadrat yasash uchun qanday asboblari kerak?
48. Agar polizning bo'yi 80 m, eni undan 25 m qisqa bo'lsa, uning yuzi necha ar ga teng bo'ladi?
49. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi uchastkalarining yuzlarini hisoblang:

Nomi	Bo'yi, metr bilan	Eni, metr bilan	Uchastka yuzi, ar
Poliz	100	60	
Bog'	70	40	
Uy band qilgan uchastka	12	10	
Hovlidagi qurilishlar	20	8	
Umumiy yuzi			

50. Mamlakatlar, katta shaharlar, katta o'rmonlar, okeanlar, dengizlar, katta dashtlar, sahrolarning yuzlari qanday o'lchovlar bilan o'lchanadi?
1 kv km da necha kvadrat metr bor?
51. Davlatlarning yer maydonini taqqoslang:

Nomi	Yer maydoni, ming kv m
AQSh	9 363,3
Fransiya	551,7
Buyuk Britaniya	224
Hindiston	3 281,2
O'zbekiston	447,4

Qaysi davlat eng katta maydonni egallaydi?

Tomonlari bir millimetr, bir santimetr, bir detsimetr, bir metr (1 mm, 1 sm, 1 dm, 1 m) bo'lgan kvadratning yuzasi mos ravishda bir kvadrat millimetr (1 kv mm), bir kvadrat santimetr (1 kv sm), bir kvadrat detsimetr (1 kv dm), bir kvadrat metr (1 kv m) ga teng.

Ularni 1 mm^2 , 1 sm^2 , 1 dm^2 , 1 m^2 kabi qisqa yozish ham mumkin. Bu birliklar kichikroq yuzalarni o'lchashda ishlatiladi. Kattaroq yuzalarni o'lchashda ar (a), gektar (ga), kvadrat km lardan foydalaniladi. 1 ar (sotix) tomoni 10 m ga teng bo'lgan kvadrat yuzasidan iborat.

$$1 \text{ ar} = 10 \text{ m} \cdot 10 \text{ m} = 100 \text{ m}^2 \text{ yoki } 100 \text{ kv m.}$$

Bir gektar, tomoni 100 m ga teng bo'lgan kvadrat yuzasidan iborat.

$$1 \text{ ga} = 10000 \text{ m}^2, \quad 1 \text{ km}^2 = 1000000 \text{ m}^2 = 100 \text{ ga.}$$

Yer maydoni o'lchovlari:

$$1 \text{ kv km} = 1000000 \text{ kv m} = 100 \text{ ga.}$$

$$1 \text{ ga} = 100 \text{ ar} = 10000 \text{ kv m.}$$

$$1 \text{ ar} = 10 \text{ m} \cdot 10 \text{ m} = 100 \text{ kv m.}$$

Yuza o'lchovlarini bunday ham yozish mumkin:

$$1 \text{ kv km} = 1 \text{ km}^2. \quad 1 \text{ kv sm} = 1 \text{ sm}^2.$$

$$1 \text{ kv dm} = 1 \text{ dm}^2. \quad 1 \text{ kv mm} = 1 \text{ mm}^2.$$

Yer maydoni (yuzasi) o'lchovlarining yangi belgilarini daftaringizga yozib oling.

52. Kvadrat metrga aylantiring:

$$1 \text{ ar} = 100 \text{ m}^2$$

$$1 \text{ ga} = 10000 \text{ m}^2$$

$$5 \text{ ar} = 6 \text{ m}^2$$

$$3 \text{ ga} = 16 \text{ m}^2$$

$$18 \text{ ar} = 15 \text{ m}^2$$

$$5 \text{ ga} = 3640 \text{ m}^2$$

$$34 \text{ ar} = 40 \text{ m}^2$$

$$4 \text{ ga} = 300 \text{ m}^2$$

53. Ar (sotix) ga aylantiring:

$$100 \text{ m}^2 = 1 \text{ ar}$$

$$450 \text{ m}^2$$

$$1500 \text{ m}^2$$

$$200 \text{ m}^2$$

$$503 \text{ m}^2$$

$$2600 \text{ m}^2$$

$$400 \text{ ga}$$

$$1950 \text{ ga}$$

$$70000 \text{ m}^2$$

$$800 \text{ ga}$$

$$2600 \text{ ga}$$

$$8009 \text{ ga}$$

54. Bir xonali kvartira xonasining bo'yi 5,5m, eni 4 m, oshxonaning bo'yi 3 m, eni 2,5 m, yuvinadigan xona 5 kv m va yo'lak 4,5 kv m bo'lsa, butun xonadonning yuza o'lchamini hisoblang.

55. Eshikning 1 m² yuzi uchun 170 g oq bo'yoq ketadi. Eni 0,8m, balandligi 2 m bo'lgan 20 ta eshikni 3 martadan bo'yash kerak, buning uchun qancha bo'yoq kerak bo'ladi?

56. Polning 1 m² yuzasini bo'yash uchun o'rtacha 40 g bo'yoq kerak. Yuzasi 5 m²·5 va 4 m²·3 bo'lgan yo'lakni ikki martadan bo'yash uchun qancha bo'yoq kerak bo'ladi?

57. Gektar bilan ifodalang:

$$20000 \text{ m}^2 = 2 \text{ ga}$$

$$80000 \text{ m}^2$$

$$460000 \text{ m}^2$$

$$18000 \text{ m}^2$$

$$45000 \text{ m}^2$$

$$378000 \text{ m}^2$$

$$42000 \text{ m}^2$$

$$78000 \text{ m}^2$$

$$300000 \text{ m}^2$$

$$50000 \text{ m}^2$$

$$90000 \text{ m}^2$$

$$1000000 \text{ m}^2$$

58. Ar (sotix) bilan ifodalang:

$$200 \text{ m}^2 = 2 \text{ ar}$$

$$2 \text{ ga} = 200 \text{ ar}$$

$$34 \text{ ga}$$

$$800 \text{ m}^2$$

$$4 \text{ ga}$$

$$80 \text{ ga}$$

$$1700 \text{ m}^2$$

$$18 \text{ ga}$$


$$96 \text{ ga}$$

$$4000 \text{ m}^2$$


$$20 \text{ ga}$$

$$100 \text{ ga}$$

59. Ikki xonaning yuzasini hisoblang:



60. Rasmda maktab yer yuzasi rejasi tasvirlangan. Mashtab: 1 sm: 6 m. Uchastkaning yuzasini hisoblang:





61. Agar butun maydonning $\frac{5}{10}$ bo'lagi tajriba maydoniga, $\frac{2}{10}$ bo'lagi mevazorga, qolgani sport maydonchasiga ajratilgan bo'lsa, sport maydonchasi necha kvadrat metrni tashkil qiladi?

62. Kvadrat metrlarda ifodalang:

$$5 \text{ ar}, \quad 53 \text{ ar}, \quad 27 \text{ ar}, \quad 41 \text{ ga}, \quad 6 \text{ ga}, \quad 37 \text{ ga}, \\ 1 \text{ ga}.$$

KUB

63. Bu geometrik jism nima deb ataladi?



64. Kubni qarab chiqing. Kubning tomonlari bor. Kubda nechta tomon borligini sanang. Kubning tomonlari kesishidan qirrasi hosil bo'ladi. Kubning nechta qirrasi borligini sanang. Kubning qirrasi kesishgan nuqta kubning uchi deyiladi. Kubda nechta uch borligini sanang.

Kubni qalin qog'oz ustiga qo'ying. Kubning ostki yonini chizib chiqing. Hosil bo'lgan shaklni kesib oling. Kubning yoni qanday shakl? Isbotlang. Kesib olingan shaklni kubning har bir yog'iga qo'yib ko'ring. Kubning tomonlari haqida nima deyish mumkin?

Kubning nechta uchi bor? Kub turgan tomon uning ostki asosi deyiladi.

Ostki asosga qarama-qarshi turgan tomon kubning ustki asosi deb aytiladi. Kubning qolgan tomonlari uning yon tomonlari deyiladi.

65. Kubning hamma qirralarini o'lchang. Kubning qirralari haqida nima deyish mumkin?

Kubda 6 ta tomon bor.

Kubning hamma tomonlari kvadratlar.


Kubning hamma tomonlari teng.

Kubning 12 ta qirrasi bor.

Kubning hamma qirralari teng.

Kubning 8 ta uchi bor.

66. Kubni bunday chizish kerak:




67. Arifmetik yashikdan kub oling. Kubning uchlarini, qirralarini, tomonlarini ko'rsating.

68. Kub shaklidagi narsalarni ayting. Bu narsalarning har biridagi tomonlarini, qirralarini, uchlarini ko'rsating. Kubda nechta tomon bor? Kubning har bir tomoni qanday geometrik shakldan iborat. Bitta kub tomonlarining kattaliklari haqida nima deyish mumkin? Kub turgan tomon nima deb ataladi. Ostki asosga qarama-qarshi tomon nima deb ataladi. Kubning nechta asosi bor? Kubning qolgan tomonlari nima deb ataladi? Kubning nechta qirrasini bor? Kub qirrasining kattaligi haqida nima deyish mumkin? Kubning nechta uchi bor?

69. Plastilindan kub yasang.

KUBNING TO'LA SIRTI VA YON SIRTI



76. Qalin qog'ozga o'zaro teng oltita kvadratdan tuzilgan va rasmda ko'rsatilgandek joylashgan shakl chizing. Bu shaklni qirqib oling va kub yasang. Kubni yoying. Hosil bo'lgan shakl kubning yoyilmasi deyiladi. Yoyilma kubning to'la sirtidan iborat.



Yodingizda tuting!

Kubning yoyilmasi kubning to'la sirtidir.

70. Qirrasini 2 sm bo'lgan kubning yoyilmasini chizing. Kubning to'la sirtini aniqlang.

Yechilishi:

- 1) Bitta tomonning yuzi nimaga teng?

$$2 \text{ sm} \cdot 2 = 4 \text{ sm}^2.$$


- 2) Kubning to'la sirti nimaga teng?

$$4 \text{ sm} \cdot 6 = 24 \text{ sm}^2.$$

Javob: kubning to'la sirti 24 sm^2 ga teng.


71. Kubning to'la sirtini formula bo'yicha hisoblash ham mumkin. Kubning qirrasini a harfi bilan belgilaymiz. Kub bir tomonining yuzi $a \cdot a$ ko'paytmaga teng. Kubda 6 ta tomon bo'lgani uchun kubning to'la sirti, uni S harfi bilan belgilaymiz, $6 \cdot a \cdot a$ ga teng. $S = 6 \cdot a \cdot a$.

72. Kubning yon sirtiga 4 ta tomon kiradi. Kub yon sirtining yuzi $4 \cdot a \cdot a$ ko'paytmaga teng. $S = 4 \cdot a \cdot a$.



73. Qirrasini 4 sm bo'lgan kubning bir tomonini yasash uchun:
- 1) Bir necha kvadrat santimetr qog'oz kerak bo'ladi.
 - 2) Kubning to'la sirtini yasash uchun-chi?
74. 1) Qirrasini 6 dm bo'lgan kubning to'la sirtini aniqlang.
2) Qirrasini 6 sm bo'lgan kubning yon sirtini aniqlang.
3) Qirrasini 80 mm bo'lgan kubning yon sirti nimaga teng?
4) Qirrasini 9 m bo'lgan kubning yon sirtini aniqlang. Shunday kubning to'la sirti nimaga teng?

75. Qirradi 9 sm bo'lgan kub shaklidagi qutichaning yon sirtiga yopishtirish uchun qancha qog'oz kerak?
76. Arifmetik yashikdan qirradi 3 sm bo'lgan kub oling. Kubning hamma tomonlarini, keyin ikki asosini aylantirib chizing. Kubning yoyilmasini hosil qiling.



77. Qirradi 4 sm bo'lgan kubning yoyilmasini chizing. Uni qaychi bilan qirqib oling. Kub yasang. Agar kub bitta tomonining yuzi 16 sm bo'lsa, uning to'la sirtini hisoblang.




Kubning ostki va ustki asoslari bo'lmagan yoyilmasi kubning yon sirti deyiladi.

78. Qirradi 1 sm, 2 sm bo'lgan kubning yon sirtini chizing.

PARALLELEPIPED


79. Parallelepipedni oling va uni qarab chiqing. Parallelepipedning nechta yog'i kesishganda qirra hosil qiladi? Parallelepipedning nechta qirradi borligini sanang.



Uchta qirradi kesishganda nuqta parallelepipedning uchi deyiladi.


Parallelepipedning tomonlarini qarang. Parallelepiped turgan tomon ostki asosi deyiladi. Ostki asos qarshisidagi tomon uning ustki asosi deyiladi. Qolgan tomonlari parallelepipedning yon tomonlari deyiladi.

Parallelepipedni bunday chizish kerak:



80. Gugurt qutisi oling. Gugurt qutisi qanday shaklga ega? Gugurt qutisini rasmda ko'rsatilgandek, qalin qog'oz ustiga qo'ying. Ostki asosi atrofini chizib chiqing. Hosil bo'lgan shaklni qirqib oling. Ostki asosi qanday shaklga ega. Qirqib olingan shaklni ustki asosga qo'ying. Parallelepipedning ostki va ustki asoslari haqida nima deyish mumkin?

Parallelepipedning (gugurt qutisining) yon tomonlarini qarab chiqing. Har bir yon tomon qanday geometrik shakllardan iborat. Parallelepipedning yon tomonlaridan biriga qo'ying.



Yon tomonini aylantirib chizib chiqing. Hosil bo'lgan shaklni qirqib oling. Parallelepipedning yon tomoni qanday shaklga ega. Hosil bo'lgan shaklning qarama-qarshi tomonlari haqida nima deyish mumkin? Parallelepipedning (gugurt qutisining) ikkinchi juft qarama-qarshi tomonlarini ham shunday taqqoslang. Qaralgan parallelepipedning (gugurt qutisining) hamma tomonlari to'g'ri to'rtburchak. Qarama-qarshi tomonlar o'zaro tengdir. Gugurt qutisining bo'yini, enini va balandligini o'lchang. Gugurt qutisining bo'yi, eni va balandligi turlicha.

81. Parallelepipedning bo'yi va eni teng bo'lishi mumkinmi? Ostki va ustki asoslari kvadratlar, ular o'zaro teng. Yon tomonlari – to'g'ri to'rtburchak, ular ham teng.





Yodingizda tuting!

Parallelepipedning asoslari to'g'ri to'rtburchak yoki kvadrat shaklida. Yon qirralari to'g'ri to'rtburchak shaklida. Parallelepipedning qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng. Parallelepipedning 12 ta qirrasini, 8 ta uchi bor.

82. Parallelepiped shaklidagi narsalarni ayting. Kitob javoni qanday shaklda? Uning tomonlarini, qirralarini va uchlarini ko'rsating.

KUB BILAN PARALLELEPIPEDNI TAQQOSLASH

83. Kub va to'g'ri burchakli parallelepipedni qarab chiqing.



O'xshashligi

Kubning nechta tomoni bor?

Parallelepipedning nechta tomoni bor?

Kubning nechta qirrasi bor?

Parallelepipedning nechta qirrasi bor?

Kubning nechta uchi bor?

Parallelepipedning nechta uchi bor?

Farqi

Kubning hamma tomonlari
qanday shaklda?

Parallelepipedning tomonlari
qanday shaklda?


84. Kubning ... ta uchi, parallelepipedning ham... ta uchi bor.
Kubning ... ta qirrasi, parallelepipedni ham ... ta qirrasi
bor.

Kubning ... ta tomon, parallelepipedning ham ... ta tomon
bor.

Kubning tomonlari ... shaklda, parallelepipedning tomonlari...
shaklda.

PARALLELEPIPEDNING TO'LA SIRTI VA YON SIRTI

85. Parallelepiped oling. Qalin qog'ozga parallelepipedning tomonlarini aylantirib chizib chiqing. Uning yoyilmasi hosil bo'ladi.




Rasmda parallelepipedning yoyilmasi ko'rsatilgan. Qalin qog'ozga parallelepipedning yoyilmasini chizing va parallelepipedni yasang.



Parallelepipedning yoyilmasi – uning to'la sirtidir.

86. Parallelepiped oling, uning faqat yon tomonlarini qalam bilan aylantirib chizib chiqing. Parallelepipedning yon sirti hosil bo'ladi.



87. Daftaringizga bo'yi 3 sm, eni 2 sm va balandligi 6 sm bo'lgan parallelepiped yon sirtini chizing.

88. Qalin qog'ozga bo'yi 5 sm, eni 3 sm va balandligi 6 sm bo'lgan parallelepipedning yoyilmasini chizing. Parallelepiped yasang.

HAJM HAQIDA TUSHUNCHA

89. Bir litrli va yarim litrli shisha stakanga suv quyung. Bir litrli shishaga necha stakan suv ketadi? Qaysi shishaning sig'imi yoki hajmi katta va qancha katta?
90. Katta qutidagi choyning hammasini kichik qutiga sig'dirish mumkinmi? Nima uchun? Qaysi qutining hajmi katta?



91. Bir litrli shisha bankaga 1,5 kg asal ketsa, uch litrli shisha bankaga necha kilogramm asal ketadi?
92. Rasmga qarang va qaysi shkafning (kitob javonining yoki kiyim shkafining) hajmi kattaligini ayting.



HAJM O'LCHOVLARI

93. Jismlarning hajmi kub o'lchovlari bilan o'lchanadi. Plastilindan yoki loydan qirradi 1 sm bo'lgan kub yasang.



Yodingizda tuting!

Qirrasining uzunligi 1 sm bo'lgan kubning hajmi kub santimetr deb ataladi. Kub santimetrlar sonlar yoniga quyidagicha yoziladi: 1 kub santimetr, 5 kub santimetr yoki 1 santimetr kub, 5 santimetr kub.

94. Hajmi 1 sm^3 bo'lgan kub qirrasining uzunligi nimaga teng? Qirrasining uzunligi 1 sm bo'lgan kubning hajmi nimaga teng?
95. Qalin qog'ozdan qirradi 1 dm bo'lgan kub yoyilmasini tayyorlang. Uni buklab yopishtiring (kub yasang).



Yodingizda tuting!

Qirrasining uzunligi 1 dm bo'lgan kubning hajmi kub detsimetr deb ataladi.

Kub detsimetrlar sonlar yoniga quyidagicha yoziladi: 1 kub dm, 7 kub dm yoki 1 dm^3 , 7 dm^3 .

96. Maktabning duradgorlik ustaxonasida har birining uzunligi 1 metrdan bo'lgan 12 ta yog'och tayyorlang. Sinf xonasining burchagida bu yog'ochlardan kub yasang. Bunday kubning hajmi kub metr deb ataladi.





Yodingizda tuting!

Qirrasining uzunligi 1 m bo'lgan kubning hajmi kub metr deb ataladi.

Kub metr sonlar yoniga quyidagicha yoziladi:

1 kub m, 3 kub m yoki 1 m^3 , 3 m^3 .



Yodingizda tuting!

Eng kichik hajm o'lchovi kub millimetrdir.

Qirrasining uzunligi 1 km bo'lgan kubning hajmi kub kilometr deb ataladi.

Kub kilometr, kub metr, kub detsimetr, kub millimetr – hajm o'lchovi.

97. Konfet qutisi, gugurt qutisi, shkaf hajmi, uy hajmi dengizdagi suv hajmi, taxta omboridagi taxtalarni qanday hajm birliklari bilan o'lchash mumkin?

PARALLELEPIPED HAJMINI O'LCHASH VA HISOBLASH

98. Bo'yi 8 dm, eni 3 dm, balandligi 16 dm bo'lgan kitob javonining hajmini hisoblang.
99. Sinfingizning hajmini hisoblang. Sinf hajmini hisoblash uchun nimani o'lchash kerak? Sinf hajmini o'lchash uchun qanday kub o'lchovini tanlash kerak?
100. Maktab sport zalining hajmini hisoblang. Sport zalining hajmini hisoblash uchun qanday o'lchashlarni bajarish kerak? Qanday hajm o'lchovini olish kerak?

101. Bo'yi 4 sm, eni 3 sm va balandligi 2 sm bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped yoyilmasini yasang. Ustki asosni qirqib oling va yopishtirib, to'g'ri burchakli parallelepiped yasang. Parallelepipedning pastki asosini kub santimetrlar bilan to'ldiring.

Parallelepiped uzunasini birinchi qatoriga necha kub santimetr joylashdi? Nima uchun?


Pastki asosda necha qator kub santimetr joylashadi? Nima uchun? Pastki qavatda nechta kub santimetr bo'ldi? Nima uchun? Butun parallelepipedda bunday qatlamlar nechta bo'ldi? Nima uchun? Parallelepipedda hammasi bo'lib nechta kub santimetr joylashdi?

Yozing:
$$\frac{4 \text{ sm}^3}{\text{qatorda}} \times \frac{3}{\text{qatlamdagi qatorlar}} \times \frac{2}{\text{qatlamlar}} = \frac{24 \text{ sm}^3}{\text{hajm}}$$

Parallelepipedning hajmi 24 sm^3 ga teng.

102. 1) To'g'ri burchakli parallelepipedning hajmini formula bilan hisoblash ham mumkin. Parallelepipedning bo'yini a harfi bilan, enini b harfi bilan, balandligini h harfi bilan, hajmini V harfi bilan belgilaymiz:


$$V = a \cdot b \cdot h.$$



2) Ixtiyoriy to'g'ri burchakli parallelepipedning bo'yini a , enini b , balandligini h santimetr bilan o'lchang va uning hajmini formula bilan hisoblang.

103. Maktab zalining bo'yi 20 m, eni 16 m va balandligi 4 m bo'lsa, uning hajmini hisoblang.


104. Maktabning duradgorlik ustaxonasida 12 ta dm^3 yasang. Ularni 1-rasmda ko'rsatilganidek joylashtiring. Parallelepipedning hajmi nimaga teng bo'ladi?



1-rasm.

Yozing: $6 \text{ dm}^3 \cdot 2 \cdot 1 = 12 \text{ dm}^3$.

Kub detsimetrlarni 2-rasmda ko'rsatilganidek joylashtiring. Va bu jismning hajmi nimaga teng bo'lishini yozing. Ushbu geometrik jism hajmini hisoblang. Bunday hisoblaymiz: parallelepiped asosining uzunasiga 3 sm^3 joylashadi.



2-rasm.

Bunday asoslardan 2 ta bo'ladi. 6 sm^3 li 2 ta qavat hosil bo'ladi. Bu parallelepipedning hajmi 12 sm^3 ga teng bo'ladi.

$3 \text{ sm}^3 \cdot 2 \cdot 2 = 12 \text{ sm}^3$.


To'g'ri burchakli parallelepipedning hajmi bunday hisoblanadi. Uning bo'yi, eni va balandligi bir xil o'lchov bilan o'lchanadi va chiqqan sonlar ko'paytiriladi.



To'g'ri burchakli parallelepipedning hajmini hisoblash uchun uning bo'yini, enini, balandligini o'lchash va chiqqan sonlarni ko'paytirish kerak.

KUBNING HAJMINI O'LGHASH VA HISOBLASH

- 105.** Kub bo'yi, eni va balandligi teng bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepipeddir (3-rasm). Kubning hajmini hisoblash uchun uning qirrasini uzunligini o'lchash va chiqqan sonni ko'paytuvchi qilib uch marta olish yetarli.



3-rasm.



Kub qirrasining uzunligini a harfi bilan belgilaymiz, u holda kubning hajmini hisoblash formulasi bunday ko'rinishda bo'ladi: $V = a \cdot a \cdot a$.

- 106.** Qirrasini 5 sm bo'lgan kubning hajmini hisoblang.
- 107.** Qirrasini 4 dm bo'lgan kub shaklidagi yashikning hajmini hisoblang.
- 108.** Kub shaklidagi qutining qirrasini 12 sm. Shu qutining hajmini hisoblang.
- 109.** Bir kub detsimetrda necha kub santimetr borligini bilish uchun kub detsimetrning qirrasini santimetr bilan o'lchash kerak. Kubning hamma qirralari teng, demak, bo'yi 10 sm, eni 10 sm va balandligi 10 sm. Shu kubning hajmini hisoblaymiz:
- $$V = 10 \text{ sm} \cdot 10 \text{ sm} \cdot 10 \text{ sm} = 1000 \text{ sm}^3.$$
- $$1 \text{ dm}^3 = 1000 \text{ sm}^3.$$
- 110.** Qirrasini 1 sm bo'lgan kubning hajmini kub millimetr bilan hisoblang. Kubning hajmini hisoblash qoidasini ayting.

111. Bir kub metrda necha kub detsimetr borligini bilish uchun kub metrning qirrasini detsimetr bilan o'lchash kerak. Ma'lumki, kubning bo'yi 10 dm, eni 10 dm va balandligi 10 dm. Shu kubning hajmini kub detsimetr bilan hisoblaymiz:

$$V = 10 \text{ dm} \cdot 10 \text{ dm} \cdot 10 \text{ dm} = 1000 \text{ dm}^3.$$

KUB O'LCHOVLARI (HAJM O'LCHOVLARI)

$$1 \text{ m}^3 = 1000 \text{ dm}^3$$

$$1 \text{ dm}^3 = 1000 \text{ sm}^3$$

$$1 \text{ sm}^3 = 1000 \text{ mm}^3$$

112. To'g'ri burchakli parallelepipedning hajmini hisoblang.

1) bo'yi 4 sm, eni 2 sm, balandligi 5 sm.

2) bo'yi 5 dm, eni 4 dm, balandligi 3 dm.

3) bo'yi 6 dm, eni 3 dm, balandligi 2 dm.

4) bo'yi 5 m, eni 4 m, balandligi 2,5 m.

5) bo'yi 4,5 m, eni 4 m, balandligi $3\frac{1}{2}$ m.

113. Sinfning bo'yi 8 m, eni 6 m, balandligi 3 m. Sinfda 16 bola o'qiydi. Bir bolaga necha kub metr havo to'g'ri keladi?

114. O'z xonangiz hajmini hisoblang. Oila a'zolaringizning har biriga necha kub metr havo to'g'ri kelishini bilib oling.




DOIRA. DOIRA QISMLARI



Esaylik: Tekislikning aylana bilan chegaralangan bo'lagi doira deb ataladi. Doiraning chegarasi aylanadir.

115. 1) 4-rasmda qanday shakllar tasvirlangan?



4-rasm.

2) Rasmdagi shakllarni daftaringizga chizing. Bu shakllarni chizish uchun nimalarni bilish kerak?

3) CD , OK , AB chiziqlar nima deb ataladi?

116. Aylana chizing. Diametr va radius uzunliklarini o'lchang. Aylana radiusi nechaga teng?

1) $R=3$ sm lik aylana chizing. Aylana D nechaga teng?

2) Doira ichida $D=4$ sm lik aylana chizing.

117. Doira chizing. Doirada vatar, diametr o'tkazing.

Doira chizing. Doirada ikkita radius o'tkazing.

2 ta radius oralig'idagi natijada hosil bo'lgan qism sektordir, doira qismini shtrixlang.



Doiraning ikkita radius bilan chegaralangan qismi **sektor** deyiladi (5-rasm).



5-rasm.

Doira sektori uchta bosh harf AOB bilan belgilandi.

118. Doira chizing. Unda 4 ta sektor ajrating. Ularni rangli qalamlar bilan bo'yab chiqing.
119. Yerning diametri 12756 km, Oyning diametri esa 9280 km ga kam. Oy radiusi Yer radiusidan necha kilometr ga qisqa?
120. Doirada MN vatar chizig'ini o'tkazing. Doirada hosil bo'lgan qismni shtrixlang.




Doiraning yoy qismi va vatar chizig'i bilan chegaralangan bo'lagi doiraning segmenti deb ataladi (6-rasm).



6-rasm.

121. Radiusi 2,5 sm lik doira chizing. Doirada segment va sektor chizing. COD sektorni shtrixlang.
122. Aylana chizing. Diametr o'tkazing. Hosil bo'lgan qismlarni nomlang.

123. 1) Radius o'lchov birliklari turlicha bo'lgan 3 ta aylana chizing. Har bir aylananing diametrini hisoblang (7-rasm).



7-rasm.

- 2) Aylananing qaysi birida sektor va segment ajratilgan?

124. 1) Doira chizing. Uni 8 ta sektorga bo'ling. 4 ta sektorni rangli qalam bilan bo'yang. Doiraning qaysi qismlari bo'yaldi?

- 2) Doirani 4 ta sektorga bo'ling. Bitta sektorni shtrixlang. Doiraning qaysi bo'lagi shtrixlanmadi?


DIAGRAMMALAR

Inson hayoti davomida shahar, mamlakatlardagi aholi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi, yer maydonlarini solishtiradi, mashina, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanadi. Taqqoslash ko'rgazmali bo'lishi uchun **diagramma** deb ataluvchi alohida chizmalardan foydalaniladi.


Diagrammalar shartli belgi sifatida aylana shaklida berilsa, u bir nechta sektorlarga bo'linadi.

125. Radiusi 3 sm li 1 aylana chizing. Quyidagi ko'rsatkichli aylanalari diagramma chizing. Yer uchastkasiga 4 ta terak, 3 ta chinor va 1 ta tol ekildi.

126. Yer planetasining $\frac{1}{3}$ qismi quruqlik, $\frac{2}{3}$ qismi suvlikdan iborat. Uni diagrammada ko'rsating. Butun doirani 3 ta qismga bo'lib, $\frac{1}{3}$ qismni radius bilan ajratamiz (8-rasm).



8-rasm.



9-rasm.

127. 9-rasmdagi diagrammani sabzavot yetishtirish bo'yicha o'qing:


- kartoshka yetishtirish – 50%
- sabzi – 25%
- lavlagi – 15%
- no'xat – 10%

128. Diagramma chizing. Suvning to'rt okean miqyosida taqsimlanishini aks ettiring.

- 1) Tinch okean – 50%
- 2) Atlantik okean – 25%
- 3) Shimoliy muz okeani – 5%
- 4) Hind okeani – 20%

Qaysi okean eng kichik maydonga ega? Qaysi okean eng katta maydonga ega? Barcha to'rtta okeanni taqqoslang.


129. Tayyorlangan kompotdagi mevalarning nisbatini ifodalovchi diagramma tuzing. 1 kg li kompotda mevalarning $\frac{1}{2}$ qismini olma; $\frac{1}{4}$ qismini o'rik, $\frac{1}{4}$ qismini boshqa mevalar tashkil etadi.
130. 10-rasmdagi doiraviy diagrammalarni ko'ring. Parrandachilik fermer xo'jaligida qaysi yili tuxum ko'p olindi va necha marta ko'p olindi?



10-rasm.


CHIZIQLI VA USTUNLI DIAGRAMMA

131. Taqqoslashda to'g'ri chiziqlardan foydalanilsa, **chiziqli diagramma** deb ataladi. Maktab yer uchastkasiga 8 ta archa, 12 ta terak, 5 ta chinor ekildi. Ekilgan daraxtlar turini ko'rsatuvchi chiziqli diagrammani tuzamiz. Chiziqlarni gorizontali diagrammalarda: archalar 8 ta katak, terak 12 ta katak, chinorni 5 ta katakka teng chiziqlar orqali ifodalaymiz (11-rasm):



11-rasm.


Diagrammalar **ustunli** shaklda ham tuzilishi mumkin. Uning uchun katakchalardan foydalaniladi (12-rasm):



12-rasm.

132. Sinfingizdagi o'quvchilar tarkibini chiziqli va ustunli diagrammalarda ifodalang. (Chizg'ich va rangli qalamlardan foydalaning.)

133. Makulatura yig'ish bo'yicha sinflar kesimida berilgan ustunli diagrammani o'qing. Masshtab: 1 ta katak = 10 kg (13-rasm).



1) Har bir sinf necha kilogramm makulatura yig'di?

2) Qaysi sinf o'quvchilari eng ko'p makulatura yiqqan va qanchaga ko'p yiqqan?

13-rasm.


134. Metroning yangi yo'lini qurish uchun yanvar oyida 150 metr, fevral oyida 200 metr, mart oyida 400 metr, aprel oyida 350 metrlik yer osti yo'li qazildi. Har bir katagi 50 metrni ifodalovchi chiziqli diagramma chizing.

135. Mamlakatimiz aholisining 40% ini 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar, 24% ini 30 yoshgacha va qolgan qismini 30 yoshdan katta bo'lgan kishilar tashkil etadi. Mamlakatimiz aholisining asosiy ko'p qismini qaysi yoshdagilar tashkil etadi?


Ushbu ma'lumotni ustunli diagrammalar orqali ifodalang.

136. Katta yoshlilar sutkaning $\frac{1}{3}$ qismini uyquga, qolgan qismini kundalik turmush faoliyatiga ajratishlari kerak. Buni radiusi 2,5 sm li doiraviy diagrammada ifodalang. Doiraviy diagramma qismlarini transportir yordamida chizing.

137. 1) Mahsulot ishlab chiqarishining o'sish darajasining oylar bo'yicha ko'rsatkichlarini diagrammada ko'ring. Mart, may, iyul oylarida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini aniqlang (14-rasm).



14-rasm.



15-rasm.

2) Ekinzorga ajratilgan yer maydoni foizini doiraviy diagramma orqali aniqlang (15-rasm).


138. Sinfingiz o'zlashtirish darajasini ifodalovchi chiziqli diagrammani chizing.

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Chiziqli o'lchovlarni ayting.
2. Geometrik shakl deganda nimani tushunasiz?
3. Geometrik jismlarga misol keltiring.
4. Kvadrat o'lchovlarini ayting.
5. Yer o'lchovlaridan qaysi birini bilasiz?
6. To'g'ri to'rtburchak, kvadrat yuzlarining formulalarini ayting va yozing.
7. Yuzi bir gektar bo'lib, tomoni 100 m bo'lgan kvadrat shaklidagi uchastkada necha kvadrat metr bo'ladi?
8. Yuzi bir ar bo'lib, tomoni 10 m bo'lgan kvadrat shaklidagi uchastkada necha kvadrat metr bo'ladi?
9. Bir gektarda necha ar bo'ladi?
10. Ar larda ifodalang:
3 ga, 16 ga, 25 ga, 14 ga 12 ar, 45 ga 6 ar,
100 m², 400 m², 1000 m², 25000 m².
11. Gektarlarda ifodalang:
10000 m², 1000000 m², 200000 m², 360000 m².
12. Yer maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning bo'yi 350 m, eni esa 600 m. Shu maydonning yuzini gektarlarda ifodalang.

13. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi dalaning bo'yi 1,6 km, eni esa 2 km. Shu dala yuzini gektarlarda ifodalang.
14. 200 m², 500 m², 800 m², 1000 m², 1500 m², 2000 m², 2500 m², 3000 m² necha ar ga teng?
15. 10000 m², 15000 m², 20000 m², 25000 m², 40000 m², 50000 m², 80000 m², 90000 m², 100000 m² necha gektarga teng.
16. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi bog'ning bo'yi 103 m, eni esa bo'yidan 18 m qisqa. Shu bog'ning yuzini va perimetrini hisoblang.
17. 1 ga yerga ekish uchun 150 kg makkajo'xori urug'i kerak bo'ladi. Bo'yi 200 m va eni 130 m bo'lgan maydonga ekish uchun qancha urug' kerak bo'ladi?
18. 1 ga yerga reja bo'yicha 260 kg bug'doy urug'i ekilishi kerak. Bo'yi 5500 m va eni 300 m bo'lgan maydonga 10tonna bug'doy urug'i yetadimi?
19. Uzunligi 580 m, eni 250 m bo'lgan dalaga makkajo'xori va lavlagi ekilgan. Agar dalaning $\frac{3}{4}$ qismiga makkajo'xori ekilgan bo'lsa, makkajo'xori necha gektar va lavlagi necha gektar yerga ekilgan?
20. Uzunligi 650 m, eni 300 m bo'lgan maydonga bug'doy ekilgan. Bu maydonning har bir gektaridan 28 sr don bug'doyi olindi. Bu maydondan necha sentner bug'doy olingan?

21. Rasmdagi yer uchastkasining yuzini hisoblang:



16-rasm.

22. Fermer xo'jaligi bog'i olmazor va nokzordan iborat. Bog'ning uzunligi 600 m, eni uzunligining $\frac{3}{4}$ qismiga teng. Agar olmazor butun bog'ning $\frac{2}{3}$ qismiga teng bo'lsa, olmazor va nokzorning har biri necha gektardan yerni band qilgan?
23. Bo'yi 800 m va eni 500 m bo'lgan fermer xo'jaligi bog'i o'rikzor va olmazordan iborat. Bir gektar yerdan 6 t 5 sr o'rik va shuncha yerdan 95 sr dan olma terildi. Fermer xo'jaligi bog'idan o'rikka qaraganda qancha ortiq olma terilgan?
24. O'zbekiston yer maydoni 447400 kvkm bo'lib, quruqlik yuzasi 425400 kvkm, suv yuzasi esa 22000 kvkm ni tashkil etadi. Qaysi yuzasi katta va qanchaga katta?
25. Namangan viloyati yer maydoni 7400 kv.km bo'lib, u Buxoro viloyati yer maydonidan 32900 kv.km ga ortiq. Buxoro viloyati yer maydoni qanchaga teng?

26. Rasmlarga qarang va savollarga javob bering:

1) 17-rasmdagi shakl nomini ayting.



17-rasm.

2) To'g'ri burchak tomonlari, burchaklari, balandligini ko'rsating, atang va sonini ayting.


3) To'g'ri burchak tomonlari nima deb ataladi? Uning tomonlari qanday shakllardan iborat?

4) To'g'ri burchak bo'yi va enini o'lchang.

5) To'g'ri burchak perimetrini hisoblang.

6) To'g'ri burchak yuzasini toping.

1) 18-rasmdagi geometrik jism nomini ayting.



18-rasm.

2) Parallelepiped tomonlari, qirralari, uchlarini ayting, ko'rsating, sonini ayting.

3) Parallelepipedning nechta qirrasini, uchi, tomonlari bor? Uning tomonlari qanday shaklda?


4) Parallelepipedning bo'yini, enini va balandligini o'lchang.

5) To'g'ri burchakli parallelepipedning hajmini hisoblang.

27. 1) 19-rasmdagi geometrik shakl va geometrik hajmlar nomini ayting.



a)



b)

19-rasm.

- 2) Kub va kvadratni taqqoslang, ularning o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini ayting.
 - 3) Kvadrat perimetrini hisoblang.
 - 4) Kvadrat yuzani hisoblang.
 - 5) Kub hajmini hisoblang.
- 28.** 12 ga yer maydoni xo'jalik ishlarini yuritish uchun arendaga oilalarga bo'lib berildi. Har bir oila 8 sotixdan yer olgan bo'lsa, yer maydoni nechta oilaga bo'lib berildi?
- 29.** 1) Kitob va kiyim shkafi uzunligi, balandligi, kengligini o'lchang.
2) Ushbu shkaflar hajmini hisoblang. Qaysi shkaf hajmi katta va qanchaga katta?
3) Uzunligi 15 dm, kengligi 8 dm, balandligi 10 dm lik akvarium hajmini hisoblang. Akvariumda 30 ta baliq suzayotgan bo'lsa, har bir baliqqa qancha hajm suv to'g'ri keladi?
- 30.** 1) Uzunligi 68 sm, eni 40 sm, balandligi 18,5 sm lik meva solinadigan yelim yashik hajmini hisoblang.
2) Maktab ustaxonasida yasalgan yog'och yashik hajmini hisoblang.
- 31.** Ikki o'tloqdan pichan o'rildi. Birinchi o'tloqning bo'yi 2500 m, eni bo'yidan 5 marta kam, ikkinchi o'tloqning bo'yi 8100 m, eni bo'yidan 3 marta kam. Agar har gekardan o'rtacha 130 sr dan pichan o'rilgan bo'lsa, qaysi o'tloqdan ko'p va qancha ko'p pichan o'rilgan?
- 32.** Quyidagicha yechiladigan masala tuzing:
- 1) $9 \text{ m}^2 \cdot 4 = 36 \text{ m}^2$;
 - 2) $7200 \text{ m}^2 : 36 \text{ m}^2 = 200$ oila.

33. O'rmon ko'chatzori to'g'ri to'rtburchak shaklida. Uning bo'yi 60 m, eni esa 2 marta qisqa. Ko'chatzorning $\frac{2}{3}$ qismiga archa, $\frac{1}{6}$ qismiga tut, qolgan qismiga terak ekilgan. Ko'chatzorning qanday maydoniga terak ko'chati o'tqazilgan?
34. Bo'yi 800 m, eni 200 m bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi dalaning yuzini hisoblang. Bu dalaga kartoshka ekilgan. Kartoshka gektariga 254 sr hosil beradi. Shu daladan qancha kartoshka olingan?
35. Bo'yi 800 m, eni 300 m bo'lgan birinchi uchastka yeriga makkajo'xori ekilgan. Bo'yi 300 m, eni 300 m bo'lgan ikkinchi uchastka yeriga bug'doy ekilgan. 1 ga yerga 220 kg bug'doy yoki 50 kg makkajo'xori ekilgan. Har qaysi dondan necha kilogrammdan ekilgan?
36. O'tilganlarni mustahkamlash.
- 1) Chiziqli o'lchovlar bilan nimalar o'lchanadi? Ularni ayting.
 - 2) Kvadrat o'lchovlar bilan nimalar o'lchanadi? Kvadrat o'lchovlarini ayting.
 - 3) Kub o'lchovlari bilan nimalar o'lchanadi? Siz qaysi kub o'lchovlarini bilasiz?
 - 4) Kvadratning yuzi qanday o'lchanadi?
 - 5) To'g'ri to'rtburchakning yuzi qanday topiladi?
 - 6) Kubning hajmi qanday hisoblanadi?
 - 7) Parallelepipedning hajmi qanday hisoblanadi?
- a) uzunlik; b) yuz; d) hajmi o'lchashning eng katta, eng kichik o'lchovlarini ayting.

CHIZIQLI, KVADRAT VA KUB O'LCHOVLARINING MUNOSABATLARI

Uzunlik o'lchovlari	Yuza o'lchovlari	Hajm o'lchovlari
1 km = 1000 m	1 km ² = 1 000 000 m ²	
1 m = 10 dm	1 m ² = 100 dm ²	1 m ³ = 1000 dm ³
1 m = 100 sm	1 m ² = 10000 sm ²	1 m ³ = 1 000 000 sm ³
1 dm = 10 sm	1 dm ² = 100 sm ²	1 dm ³ = 1000 sm ³
1 sm = 10 mm	1 sm ² = 100 mm ²	1 sm ³ = 1000 mm ³


37. 1) 20-rasmda berilgan burchak turlarini ayting.



20-rasm.

2) 90°, 110°, 45°, 180°, 30°, 95° li burchaklar yasang. Har bir burchakni nomlang.

38. 1) Burchaklariga ko'ra uchburchak turlarini aniqlang (21-rasm).



21-rasm.

2) Uchburchak burchaklarini o'lchang.

3) Uchburchak tomonlarini o'lchang. Tomonlariga ko'ra uchburchak turlarini ayting.

39. 1) Tomonlari: $a=6$ sm, $b=3$ sm, $c=5$ sm bo'lgan uchburchak yasang. Bunday uchburchak nomini ayting.
- 2) B burchagi 90° li uchburchak yasang va uning turini ayting.
40. 1) $a_1=3$ sm, $a_2=45$ mm, $a_3=5,4$ sm li uchta kvadrat chizing. Kvadratlar perimetrini hisoblang.
41. 2) Hamma tomonlari teng bo'lgan parallelogramm chizing. Bu parallelogramm turini ayting.
- 3) Tomoni 4 sm li romb chizing. Perimetrini hisoblang.

MUNDARIJA

Takrorlash	3
Raqamlash	3
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	9
Butun sonlarni qo'shish va ayirish	10
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	19
Butun sonlarni sonlarga ko'paytirish va bo'lish	20
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	31
O'lchov birliklari bilan berilgan sonlar ustida amallar	32
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	40
O'nli kasrlar	41
Kasr sonlarni taqqoslash	43
O'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarni o'nli kasrlarda ifodalash	44
O'nli kasrlarni kattaliklarni o'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlar shaklida yozish	45
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	48
Butun va kasr sonlarni qo'shish, ayirish	49
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	62
O'nli kasrlarni butun sonlarga ko'paytirish va bo'lish	63
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	76
O'nli kasrlar ustida hamma amallar	76
Oddiy kasrlar	80
Kasrlarni aylantirish	82
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	86
Oddiy kasrlarni qo'shish va ayirish	87
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	94
O'nli kasrni oddiy kasrga aylantirish	95
Oddiy kasrni o'nli kasr ko'rinishida ifodalash	97

Oddiy va o'nli kasrlar ustida amallar.....	102
Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....	106
Protsentlar	107
Protsent haqida tushuncha.....	107
O'nli kasrlarni protsent bilan almashtirish.....	109
Protsentni o'nli kasr bilan almashtirish.....	111
Sonning 1% ini topish.....	114
Sonning bir necha protsentini topish.....	117
Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....	125
Sonning protsentini topishni uning bo'lagini topish bilan almashtirish.....	125
Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....	132
Bir foiz bo'yicha sonni topish.....	133
Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....	138
Takrorlash	139
Butun va kasr sonlar bilan arifmetik amallar.....	139
Geometriya	156
Geometrik shakllar va geometrik jism.....	156
Chiziqli o'lchovlar.....	156
Chiziqli o'lchovlar jadvali.....	160
Yuza o'lchovlari.....	162
Kub.....	168
Kubning to'la sirti va yon sirti.....	169
Parallelepiped.....	171
Kub bilan parallelepipedni taqqoslash.....	174
Parallelepipedning to'la sirti va yon sirti.....	175
Hajm haqida tushuncha.....	176
Hajm o'lchovlari.....	177
Parallelepiped hajmini o'lchash va hisoblash.....	178

6600 e

Kubning hajmini o'lchash va hisoblash..... 181
 Kub o'lchovlari (hajm o'lchovlari)..... 182
Doira. Doira qismlari 183
 Diagrammalar 185
 Chiziqli va ustunli diagramma..... 187
 Mustahkamlash uchun topshiriqlar 190
 Chiziqli, kvadrat va kub o'lchovlarining munosabatlari 196

Abdulla Axatov, Farida Muzaffarova,
Margarita Saydaliyeva, Maxbuba Barakayeva

MATEMATIKA

*Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab
 va maktab-internatlarning 9-sinf darsligi
 (Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun)*

Ikkinchi nashr

Muharrir	<i>T. Nazarov</i>
Texnik muharrir	<i>D. Salixova</i>
Rassom	<i>J. Gurova</i>
Musahhih	<i>Sh. Ilhombekova</i>
Kompyuterda tayyorlovchi	<i>B. Babaxodjayeva</i>

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.
 Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,
 Mash'al mahallasi, Markaziy ko'chasi, 1-uy.
 Litsenziya raqami AI №265. 24.04.2015.

Bosishga 2016 yil 11 oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 70×90^{1/16}.
 Ofset qog'oz. «Arial» garniturasida. Kegli 14.
 Shartli bosma tabog'i 12,5. Nashr b.t. 10,71. Adadi 1047 nusxa. Buyurtma №625.

«NISO POLIGRAF» MChJ bosmaxonasida bosildi. Toshkent viloyati,
 O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY, Mash'al mahallasi, Markaziy ko'chasi, 1-uy.

SOTUVGA CHIQRISH TAQIQLANADI

RMKJ

NISO
Poligraf 

ISBN 978-9943-4765-9-2



9 789943 476592